

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI
O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MADANIYAT VAZIRLIGI
O‘ZBEKISTON DAVLAT KONSERVATORIYASI

Odiljon NAZAROV

XALQ CHOLG‘ULARIDA IJROCHILIK
(qashqar rubob)

Konservatoriyaning I kurs talabalari uchun darslik

“Musiqqa” nashriyoti
Toshkent
2018

85.315.3(50‘)

N 18

Nazarov Odiljon

Xalq cholg‘ularida ijrochilik. (qashqar rubob) O‘zbekiston davlat konservatoriyasi bakalavriati 1-kurs talabalari uchun darslik/O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi, Madaniyat vazirligi, O‘zbekiston davlat konservatoriyasi – T. “Musiqqa”, 2018. – 176 b.

KBK 85.315.3(50‘)

UO‘K 780.8:780.614.3(=512.133)(075.8)

*Ushbu darslik O‘zbekiston Respublikasi
Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining 2017 yil 28 iyundagi
434-sonli buyrug‘iga asosan nashrga tavsiya etilgan*

Mas’ul muharrir:

Azatgul TASHMATOVA – san’atshunoslik fanlari nomzodi, professor v.b.

Taqrizchilar:

Avaz MANSUROV – O‘zbekiston davlat konservatoriyasi professori, kompozitor

O‘rozali TOSHMATOV– O‘zbekiston davlat San’at va madaniyat instituti
professori

Azamat ISLOMOV – O‘zbekiston davlat konservatoriyasi o‘qituvchisi

Ushbu darslik O‘zbekiston davlat konservatoriyasining 5150700 - “Cholg‘u ijrochiligi” (xalq cholg‘ulari) bakalavriat ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha 1-kursda tahsil oluvchi talabalar uchun mo‘ljallangan bo‘lib, shu yo‘nalishning o‘quv dasturi asosida tuzilgan. Unda qashqar rubob ijrochiligining amaliy va nazariy jihatlarini yakka darslar mavzulari asosida yoritilgan..

Darslikdan shuningdek, turdosh cholg‘ularda o‘qitishda ham foydalayish mumkin.

Данный учебник предназначен для студентов 1-курса консерватории направления 5150700 – “Чолғу ижрочилиги” и создан на основе учебного плана данного направления. В нём рассматриваются теоретические и практические вопросы исполнительства на кашгарском рубобе в процессе индивидуальных занятий. С учебника также, могут пользоваться в обучении родственных инструментах.

This textbook is intended for students of the 1-course conservatory direction 5150700 – “Choluu Izhrochigi” and is created on the basis of the curriculum of this direction. It examines theoretical and practical issues of performing on the Kashgar rubab in the process of individual lessons. Since the textbook also, can use in learning related tools.

KIRISH

Vatanimiz mustaqillikka erishgandan keyin yurtimizda barcha sohalar kabi musiqa san'ati ham yangi taraqqiyot bosqichiga chiqdi desak mubolag'a bo'lmaydi. Buni hukumatimiz tomonidan qabul qilingan qarorlar natijasida olib borilayotgan ishlar orqali kuzatishimiz mumkin. Bugun o'zbek san'atkorlari – sozanda va xonandalar jahon sahnalarida o'z mahoratlarini namoyish qilish bilan birga milliy san'atimiz, milliy qadriyatlarimizni yanada yuksaklarga ko'tarish, targ'ib qilish imkoniyatlariga ega bo'lmoqdalar. Bu borada mamlakatimizda to'liq shakllangan uzluksiz musiqiy ta'limning yo'lga qo'yilganligining ahamiyati katta.

5150700 – Cholg'u ijrochiligi (xalq cholg'ulari) bakalavriat ta'lim yo'nalishi-ning Davlat ta'lim standartida belgilangan talablarga mos ravishda, o'quv rejasiga kiritilgan “Xalq cholg'ularida ijrochilik” fani uchun ko'rsatilgan soatlar hajmida, o'quv dasturi mavzulari, qolaversa, fanning uslubiyoti va didaktik talablari asosida yaratilgan ushbu darslik mazmunida zamonaviy pedagogik qarashlar, asarlarni o'rganishning muhim jihatlari, musiqiy ta'lim jarayonida erishilgan samarali natijalar, shuningdek, yillar mobaynida to'plangan qimmatli tajribalar o'zining ifodasini topgan.

Talaba konservatoriyaga kelishidan oldin litsey-kollejlarda musiqaning elementar nazariyasi, solfedjio, garmoniya, cholg'u ijrochiligi kabi fanlar bo'yicha saboq olib bir qancha dastlabki bilim va ko'nikmalarni o'zlashtirgan bo'ladi. Konservatoriyada cholg'u ijrochiligi yo'nalishi bo'yicha yakka tarzda olib boriladigan darslar fan dasturi asosida oddiydan-murakkabga tamoyilida, aniq tizimga solingan va maqsadga yo'naltirilgan holda bosqichma-bosqich amalga oshiriladigan keng qamrovli nazariy hamda amaliy mashg'ulotlardan iborat bo'lib, unda talabaning muayyan cholg'u ijrochiligi bo'yicha olgan bilimlari yanada rivojlantirilib, yuqori darajaga ko'tariladi.

Fanning o'quv dasturida maqsad va vazifalar quyidagicha belgilangan: “Xalq cholg'ularida ijrochilik” fani predmeti muayyan cholg'u (qashqar rubob) hisoblanib, uning asosiy maqsadi talabaning o'zlashtirgan bilim va ko'nikmalarini chuqurlashtirish, ijro mahoratini yuksaltirish, kasbiy bilim va tafakkurini yanada kengaytirish bilan birga uni pirovard natijada yakkanavoz ijrochi, ansambl va orkestr sozandasi, shuningdek, xalq cholg'ulari bo'yicha o'qituvchi sifatida mustaqil kasbiy ish faoliyat ko'rsatadigan, yuqori musiqa ijrochilik mahoratiga ega kadrlarni tayyorlashdir. Unda ushbu fan bo'yicha dars beradigan o'qituvchining vazifasi talabani faqat professional ijrochigina emas, balki jamiyatning badiiy didini, ilg'or musiqa san'atini ommalashtira oladigan faol madaniyat xodimi etib tarbiyalashdan iborat ekanligi belgilab qo'yilgan.

Talaba iqtidorini rivojlantirishga imkon darajasida harakat qilishi, o'zining ijodiy salohiyatini to'la namoyon etishi, milliy ijrochilik uslubini qo'llay bilish, kelajakda o'z cholg'usiga oid barcha boyliklardan foydalangan holda o'quvchilarga saboq berish kabi bilim va ko'nikmalarini namoyish etishi zarur.

I-kurs talabasi o'quv jarayonida turli davrlarda yaratilgan, turli janr va uslublarga tegishli bo'lgan musiqiy asarlarni o'rganish bilan birga qashqar rubob ijrochilik mahoratini egallab bormog'i kerak. Shuning uchun 1- va 2-semestrlar oraliq hamda yakuniy reyting attestatsiyalari uchun aniq ijrochilik dasturi ko'rsatiladi. Ma'lum bir asarni chuqur o'rganish, shu janr va uslubda yaratilgan boshqacha asarlar bilan tanishib chiqishni ham nazarda tutadi.

I-kurs talabasi uchun o'quv rejasida mustaqil ta'lim uchun ham zaruriy soatlar ajratilgan. Uni tashkil etishda mazkur fanning xususiyatlarini hisobga olgan holda quyidagi shakllardan foydalanish mumkin:

- darslik, o'quv qo'llanma, maxsus yoki ilmiy adabiyotlar (monografiyalar, maqolalar) bo'yicha fanlar boblari va mavzularini o'rganish;
- savollar va topshiriqlar bo'yicha mavzularni, janrlarni o'zlashtirish;
- avtomatlashtirilgan o'rgatuvchi nazorat qiluvchi tizimlar bilan ishlash;
- yangi musiqiy texnik vositalar va texnologiyalarni o'rganish;
- talabaning ilmiy tekshirish (ijodiy) ishlarini (TITI) bajarish bilan bog'liq bo'lgan fanlar bo'limlari yoki mavzularini chuqur o'rganish;
- faol o'qitish uslubidan foydalaniladigan o'quv mashg'ulotlari (diskussiyalar, seminarlar, kollokviumlar va b.).

Mustaqil ta'limni tashkil etishning mazmuni axborot-ta'lim resurslaridan, ta'lim muassasasida mavjud kutubxona, fonoteka va videoteka jamg'armasidan, repetitoriyalardan, o'quv laboratoriyalari, ovoz yozish studiyalari, teleradiokompaniya kanallari va konsert zallaridan unumli foydalanishdan, bajarilgan ishlarning tahlilini bayon etishdan iboratdir. Mazkur fanning xususiyatlaridan kelib chiqib kasbiy mahoratni rivojlantirish va takomillashtirishga qaratilgan vazifalarni maqsadli amalga oshirish ham nazarda tutiladi.

Talaba tasdiqlangan, ya'ni I-kurs mobaynida belgilangan majburiy ijro dasturi hisoblangan asarlar bilan cheklanib qolmay, o'z dunyoqarashini muntazam kengaytirib borishi uchun boshqa vazifalarni ham bajarishi lozim. Reyting nazoratlari yoki konsertda tinglovchi-tomoshabinlar oldida chalish uchun ma'lum bir kompozitorning asari ijrosini o'zlashtirayotgan davrda, ushbu muallifning shu janrdagi boshqa asarlarini ham o'rganish kerak. Bunday mustaqil izlanish kompozitor uslubini chuqurroq singdirib olishga katta yordam beradi.

Mazkur fanni o'zlashtirishda ta'limning zamonaviy metodlari (xususan, interfaol), pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari ijodiy o'quv jarayonida unumli qo'llaniladi. Axborot-resurs markazlari kompyuterlari, "Internet", "Ziyonet" kabi axborot resurs tarmoqlari, maxsus Veb-saytlar sahifalaridan unumli foydalanish, maxsus o'quv adabiyotlari – darslik, o'quv qo'llanma, uslubiy qo'llanma, metodik tavsiyalar, nota grafikasi yuzasidan amaliy kompyuter dasturlaridan keng foydalanish nazarda tutiladi.

Alohida ta'kidlash joizki, mazkur darslik an'anaviy (bosma) o'quv adabiyotlari toifasiga kiradi. Unga O'zbekiston kompozitorlarining cholg'u uchun yaratgan yangi asarlari, bastakorlar ijod namunalari, Shashmaqom asarlari, shuningdek, jahon kompozitorlari asarlaridan ayrim namunalar qashqar rubob uchun moslashtirilib, manbaa sifatida darslikka kiritildi.

Mazkur fan boshqa kasbiy fanlar bilan chambarchas bog'liq. O'quv rejada belgilangan ansambl sinfi, orkestr sinfi, xalq cholg'ularida o'qitish uslubiyoti, turdosh cholg'ularni o'rganish, ijrochilik san'ati tarixi, pedagogik amaliyoti, musiqa adabiyoti kabi fan mashg'ulotlarida talaba xalq cholg'ularida ijrochilik fanida o'zlashtirgan bilimlarini amalda qo'llash imkoniyatiga ega. Shuningdek, ushbu kasbiy fanlarda uchraydigan amaliy ko'nikmalarni esa xalq cholg'ularida ijrochilik fani mashg'ulotlarida o'zlashtirishi mumkin.

1-DARS: CHOLG‘U IJROCHILIK TARIXI VA QASHQAR RUBOB IJROCHILIK AMALIYOTI

Bir qancha yozma manbaalarda ming yillar mobaynida musiqa va musiqa cholg‘ulari, ularning o‘ziga xos xususiyatlari, ijrochilik san’ati, hamda, mohir sozandalar haqidagi qimmatli ma’lumotlar cholg‘u ijrochiligining boy tarixidan darak beradi.

Tarixiy manbaalardan ma’lumki, boshqa ko‘pgina xalqlarda bo‘lgani kabi Markaziy Osiyo xalqlarida ham musiqa ijrochiligi qadimdan xalqning to‘yutnantalarida, xalq sayillari va bayramlarida yakka holda, turli katta-kichik guruhlar ko‘rinishida shakllanib, keyinchalik hukmdorlar saroylarida maxsus jamoalar shaklida rivojlanib, takomillashib uzoq taraqqiyot yo‘lini bosib o‘tgan holda bizgacha o‘zining hozirgi mukammal ko‘rinishida yetib kelgan.

XX-asr boshlarida O‘zbekistonda bir qancha folklor etnografik ansambllar, xalq teatrlarining tuzilishi, Turkiston xalq konservatoriyasi va ko‘plab turli ijodiy jamoalarning shakllanishi, o‘zbek musiqasining tadqiq qilinishi, ularning yozib olinishi kabi ko‘plab ishlar, musiqa va ijrochilik san’atining yanada rivojlanishiga, taraqqiy topishiga turtki bo‘ldi.¹

Keyinchalik O‘zbekiston davlat filarmoniyasi qoshida birin-ketin tuzilgan “Shodlik”, “Lazgi”, “Go‘zal”, “Zarafshon” va “Bahor” kabi ashula va raqs ansambllari, “T.Jalilov nomidagi davlat akademik xalq cholg‘ulari orkestri” shuningdek, O‘zteleradiokompaniyasi qoshidagi “Y.Rajabiy nomidagi maqomchilar ansambli”, “D.Zokirov nomidagi xalq cholg‘ulari orkestri”, hamda so‘nggi yillarda cholg‘u ijrochiligi san’atiga salmoqli hissa qo‘shib kelayotgan “So‘g‘diyona” xalq cholg‘ulari davlat kamer orkestri va viloyatlardagi ko‘plab ashula va raqs ansambllarining O‘zbekistonda va horijiy mamlakatlardagi konsert faoliyatlarida ijrochilik san’ati, xususan, qashqar rubobi ijrochiligi ham targ‘ibot qilinib, rivojlantirib kelinmoqda. Bu jamoalar tarkibida mashhur rubobchi sozandalar ijod qilishgan va ijod qilmoqdalar.

1936 yilda Farg‘ona vodiysining so‘lim Shohimardon qishlog‘ida bo‘lib o‘tgan xalq saylida ustoz M.Mirzayev bir uyg‘ur sozandasidan qashqar rubob cholg‘usini xarid qiladi va Toshkentga olib kelib usta Usmon Zufarov bilan bu cholg‘uni takomillashtiradi, ya’ni uning menzurasi uzaytirilib, dastasiga latun qalamchalari o‘rnatiladi. Natijada bugungi ko‘rinishdagi rubob cholg‘usini yaratadilar. Tez orada bu cholg‘u ustoz M.Mirzayev ijrosi orqali o‘zbek musiqa ijrochiligida o‘z o‘rniga ega bo‘lib, cholg‘uning mohir sozandalari ham yetishib chiqib boshlaydi. O‘z navbatida qashqar rubob ijrochilik san’ati shakllanib, rivojlanib bordi. Bugungi musiqa ijrochilik san’ati, shuningdek musiqiy ta’limda qashqar rubob cholg‘usi yetakchi cholg‘ulardan biriga aylanib ulgurgan. Bu

Odilov A. “O‘zbek xalq cholg‘ularida ijrochilik tarixi”. T ., “O‘qituvchi”, 1995.

cholg‘u bo‘yicha mashhur ustoz, O‘zbekiston xalq artisti Muhammadjon Mirzayev, O‘zbekiston Respublikasida xizmat ko‘rsatgan artistlar Qobiljon Usmonov, Shavkat Mirzayev, Tohir Rajabiy, Zamira Rahmatullayeva, Odiljon Nazarov kabi taniqli sozanda va san‘atkorlar, ko‘plab Respublika va Xalqaro tanlovlar g‘oliblari yetishib chiqdilar. Oliy ta‘lim va o‘rta- maxsus ta‘lim muassasalarida hamda, “Bolalar musiqa va san‘at” maktablarida ushbu cholg‘u bo‘yicha ta‘lim yo‘lga qo‘yilgan.

Cholg‘u jrochilik san‘atini kompozitorlar va bastakorlar ijodisiz tasavvur qilib bo‘lmaydi. Ayniqsa M.Bafoyev, S.Jaliln, M.Sautovning, A.Mansurov, R.Abdullayev, H.Rahimov, M.Otajonovn, O,Abdullayeva, J.Charshemov kabi kompozitorlarni qashqar rubob, tanbur, ud, dutor, g‘ijjak, afg‘on rubob, doyra va xalq cholg‘ulari orkestri uchun yaratgan asarlari o‘zining yorqinligi, mazmunliligi, cholg‘uga mosligi, cholg‘u imkoniyatlarini to‘liq namoyon qilishi, ayniqsa, muayyan cholg‘uda ijrochilikni rivoshlantirishga xizmat qilishi bilan yaqqol ajralib turadi.

Shuningdek, O‘zbekiston kompozitorlari qashar rubobi uchun yaratgan maxsus asarlari rubob ijrochiligining yangi-yangi ufqlarini ochib bermoqda. So‘nggi yillarda yaratilayotgan maxsus asarlar ijro hamda o‘quv dasturlarini boyitib kelmoqda. Kompozitorlar ijodida qashqar rubob cholg‘usi uchun yaratilayotgan asarlarda milliylik va zamonaviylikning uyg‘unlashuvini kuzatishimiz mumkin. Mualliflardan S. Hayitboyevning “Ballada”, T.Azimovning “Durdona”, M.Bafoyevning “Afsona”, Q.Komilovning “Fantaziya”, “Mohim” poemasi, M.Otajonovning Qashqar rubob va orkestr uchun Konsert, O.Abdullayevaning Qashqar rubob va orkestr uchun Konsert, R.Abdullayevning Qashqar rubob va simfonik orkestr uchun Konsert, J.Charshemovning “Tarix sadosi”, N.Safarovning “Sharqona fantaziya” kabi asarlarda milliy ohanglar zamonaviy garmoniyalar bilan yo‘g‘rilgan holda yaratilganligi bilan ijrochilar va mutaxassislar tomonidan yuqori baholanmoqda.

Qashqar rubob ijrochiligi mohir sozanda va bastakorlar ijodi bilan chambarchas bog‘liq. Bastakor va mashhur sozanda, O‘zbekiston xalq artisti *M.Mirzayev* o‘tgan asrning 50-60 yillarida juda sermazmun ijod qildi. Uning qashqar rubobi uchun yaratgan har bir asari xalq orasida tez ommalashdi.Ustozning ham bastakor sifatida, ham sozanda sifatida sermahsul ijodi qashqar rubobi sozini o‘zbekning har bir xonadoniga olib kirdi. Qashqar rubobida o‘z farzandi O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan artist Sh.Mirzayev bilan birgalikda ijro etgan duetlari o‘zining takrorlanmas jozibasiga ega.

Bastakorning aynan qashqar rubobi uchun bastalagan “Shodlik”, “Marg‘ilon qizlari”, “Intizor etma”, “Gulrux”, “Orzu dil”, “Dil kuylasin”, “Lirik kuy” kabi o‘nlab musiqalari, nafaqat qashqar rubobi uchun yozilgan asarlar repertuarini boyitdi, balki, qashqar rubobi ijrochiligining rivojlanishiga, ijrochilik madaniyatining yuksalishiga, qashqar rubobining yangidan yangi ijro imkoniyatlarini ochilishiga sabab bo‘ldi.

Qashqar rubobchi sozandalardan *E.Shukrullayev* va *A. Bahromovlar* ijodi ayniqsa tahsinga sazovordir. Bu sozandalar qashqar rubobida ikki yo‘nalishda ijro

etgan va jahon festivali g'oliblari bo'lish bilan birga, o'zbek san'atini boshqa mamlakatlarda namoyish qilgan dastlabki rubobchilardandir.

M.Mirzayevning taniqli shogirdlaridan biri O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist *Qobiljon Usmonov* o'zining ko'p yillik ijodiy faoliyati davomida ijrochilik san'ati rivojiga katta hissa qo'shgan. Uning dastlabki yaratgan "Boshlang'ich rubob darsligi" kitobi keyingi avlod rubobchilari uchun asosiy o'quv qo'llanma bo'lib xizmat qildi. D.Zokirov nomidagi xalq cholg'ulari orkestrida qariyb 40 yillik faoliyati davrida ko'plab kuylarni, turli xil konsertlarda, televideniya va radio to'lqinlarida ijro etgan.

Qashqar rubobi ijrochiligida o'z o'rniga ega bo'lgan mohir sozandalardan biri bu – *Adham Xudoyqulov*dir. O'ziga xos ijro uslubiga ega bo'lgan bu sozanda ijro etgan har bir kuy texnik jihatidan murakkabligi, jozibasi va to'laqonliligi bilan sozandalar va tinglovchilar diqqatiga sazovor bo'lgan. Respublika radiosi fondiga ushbu sozanda ijrosida ko'plab kuylar yozib olingan.

O'zbekistonda mashhur qashqar rubobchi sozandalardan yana biri *Ariel Boboxonov*dir. U M.Ashrafiy nomidagi Buxoro san'at bilim yurtidagi o'zining ko'p yillik o'qituvchilik faoliyati davomida ko'plab yetuk rubobchi sozandalarni tarbiyalash bilan birga, doimiy ijrochilik faoliyatini ham olib borgan. Yuqorida ta'kidlaganimizdek jahon yoshlar festivali g'olibi, Respublika yosh ijrochilar tanlovi g'olibi, ko'plab musiqa anjumanlarida, san'at dekadalarida tinglovchilar hamda mutaxassislarining olqishlariga sazovor bo'lgan bu san'atkor, shashmaqom ijrochiligini mukammal egallash bilan birga, zamonaviy kompozitorlar asarlarini ham ijro etgan sozandalardandir. Ustozning qashqar rubobi uchun bastalangan "Xurram", "Feruza", "Buxoro go'zali" kabi kuylari juda mashhur bo'lib, rubobchilarning eng sevimli asarlaridan biriga aylandi. Bir necha bor Germaniyada ijodiy gastrollarda bo'lib, nemis tinglovchilari olqishlarini olgan A.Boboxonov ijrosida yozib olingan ko'plab kuylar O'zbekiston radiosi oltin fondida saqlanmoqda.

Respublikamizdagi ko'plab sozandalar ustози, Toshkent Davlat konservatoriyasining sobiq professori *Sulaymon Taxalov*ning cholg'u ijrochiligi san'atiga qo'shgan hissasi salmoqlidir. S.Taxalov ijrochilik faoliyati bilan birga o'zining o'qituvchilik faoliyati davomida T.Rajabiy, R.Qosimov, I.Ertoyev, Sh.Nuritdinov, B.Ergashev, R.Karimov, O.Nazarov kabi o'nlab etuk ijrochi-sozandalarni tarbiyaladi. S.Taxalov ikki yo'nalish, ya'ni ham an'anaviy ijro yo'nalishi, ham akademik yo'nalishini mukammal egallagan san'atkoridir. Uning ijrosidagi kuylar gramplastinkalarga va O'zbekiston radiosi oltin fondiga yozib olingan.

Ustoz san'atkor M.Mirzayevning farzandi O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist, bastakor, mashhur rubobchi sozanda *Shavkat Mirzayev* qashqar rubob ijrochiligini tinimsiz rivojlantirib, targ'ib qilib kelmoqda. Ustozning ishlarini davom ettirib ko'plab kuy va qo'shiqlar bastalash bilan birga, el suygan xonandalar bilan doimiy hamkorlikda faoliyat olib bormoqda. Dunyoning o'nlab mamlakatlarida o'z san'atlarini namoyish etgan.

Taniqli rubobchi O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan artist *Tohir Rajabiy*ning ijro uslubi alohida ahamiyat kasb etadi. U akademik yo‘nalish bilan bir qatorda, an’anaviy ijro yo‘nalishlarini puxta egallagan san’atkorlardan biridir. Uning ijrosida 100 dan ortiq kuy va qo‘shiqlar hamda, kompozitorlar asarlari yakka rubob ijrosida ansambllar, xalq cholg‘ulari orkestri va estrada simfonik orkestri jo‘rligida magnet tasmlariga yozilib, O‘zbekiston radiosi oltin fondida saqlanmoqda. T.Rajabiy Vengriya, Germaniya, Rossiya kabi davlatlarda gastrollarda bo‘lib, o‘zining mohirona ijrosi bilan tinglovchilar olqishlariga sazovor bo‘lgan.

Savollar:

- 1) O‘zbekistonda qashqar rubob ijrochiligi qanday rivojlangan?
- 2) Qaysi mashhur rubobchi sozandalarni bilasiz?
- 3) M.Mirzayev dastlabki rubob cholg‘usini qaysi usta bilan takomillashtirgan?
- 4) Qashqar rubob uchun qanday maxsus yozilgan asarlarni bilasiz va ularning mualliflari kimlar?

Mustaqil mashg‘ulot uchun topshiriqlar:

- 1) Ijrochilik tarixi bo‘yicha adabiyotlardan cholg‘u ijrochilik tarixi haqida ma’lumotlar to‘plang.
- 2) M.Mirzayevning qashqar rubob uchun yaratgan asarlari ro‘yxatini tuzib chiqing.
- 3) O‘zbekiston kompozitorlarining qashqar rubob uchun asarlari, nota matnlarini topib o‘zingiz uchun yig‘ib qo‘ying.
- 4) O‘zbekiston davlat konservatoriyasi hamda O‘zbekiston radiosi fonotekasidan qashqar rubobida chalingan kuylarining magnet yozuvlarini toping.

Tayanch iboralar: milliy cholg‘ular, ijrochilik tarixi, mashhur sozandalar, asosiy tushunchalar

2-DARS: XALQ CHOLG‘ULARIDA IJROCHILIK. IJROCHILIK HOLATI(POSTANOVKA). IJRO DASTURINI SHAKLLANTIRISH

Xalq cholg‘ularida ijrochilik fanining asosiy maqsadi muayyan cholg‘uda ijro etish sir-asrorlarini o‘rgatib borishdan iborat. Ma’lumki, barcha fanlar o‘zining asosiy tushunchalariga ega bo‘lib, ular aynan u yoki bu sohaga tegishli bo‘lgan holda, muayyan soha masalalarini to‘liq ochib berishda muhim vositalardan biri hisoblanadi. Ana shunday sohalardan biri - zamonaviy musiqa san’ati ham bir qancha turlarga tarmoqlanib, uning barcha yo‘nalishlari alohida rivojlanib bormoqda. Ular: musiqa nazariyasi, musiqa tarixi, musiqa tanqidchiligi, kompozitsiya, dirijyorlikning barcha turlari (xor dirijyorligi, xalq cholg‘ulari, simfonik, estrada, damli cholg‘ular orkestrlari dirijyorligi), vokal san’ati, an’anaviy xonandalik san’ati, cholg‘u ijrochiligi (barcha cholg‘ular bo‘yicha), estrada cholg‘u va vokal san’ati, elekromusiqa, musiqa ijrochiligining zamonaviy yo‘nalishlari (jaz

musiqasi, rok, pop yo'nalishlari) kabi juda keng qamrovli sohalarni o'zida mujassam etadi. Musiqaning barcha sohalariga tegishli bo'lgan *nota, nota yo'li, kuy sur'ati, musiqiy xotira, musiqiy shakl, musiqiy terminlarning barchasi, musiqiy janrlar, kompozitorlar ijodiyoti, frazirovka, badihago'ylik, kompozitsiya, improvizatsiya, dinamika, dirijyorlik, auftakt, melizmlar, artikulyatsiya, ekspozitsiya, rivojlov, repriza, ijro madaniyati, ijro repertuari, konsert ijrochiligi* kabi ko'plab tushunchalar musiqa ilmining asosiy tushunchalari bo'lib, ular aynan sohaga oid bo'lgan fikr va ma'lumotlarni ifoda etishda qo'llanilishi sir emas, albatta.

Xalq cholg'ularida ijrochilik fanining asosiy tushunchalari esa musiqa ilmining barcha tushunchalari bilan birga aynan cholg'u ijrochiligi, xususan, milliy cholg'ularda o'qitishning aksariyat ijrochilik bilan bog'liq bo'lgan o'ziga xos jihatlarini o'zida aks ettiradi. Ular: *milliy cholg'ular; cholg'ular oilasi; cholg'u, sozlash; ijrochilik holati; tovush hosil qilish va uni boshqarish; mizrobli sozlar; urma-zarbli, urma-torli cholg'ular; zarblar; tremolo; yakka zarb; bilak zarb; bidratma; sayqal; molish; kashish; kamon; pozitsiya; applikatura asoslari; chap qo'l tezligi; o'ng qo'l xususiyatlari; kadensiya; etyud; gamma; ansambl; orkestr; musiqiy bezaklar;* va hokazolar.

Ushbu tushunchalarning mazmun-mohiyati cholg'uda ijro etish sir- asrorlarini o'zlashtirish masalalarini ifodalashdan iborat. Musiqiy ta'limning xalq cholg'ularida ijrochilik yo'nalishi bo'yicha olib boriladigan darslarda ana shu tushunchalar orqali talabalarga mavzular, amaliy mashg'ulotlar, ko'nikma va malakalar o'rgatib boriladi. Ular nazariy bilimlar bilan bevosita bog'liq bo'lsada, ko'proq amaliy ahamiyat kasb etadi. Chunki cholg'ularda ijro etish san'atini amaliy mashqlar, tinimsiz shug'ullanish, ijodiy izlanishlar orqaligina o'zlashtirish mumkin. Amaliy mashg'ulotlarda olib boriladigan darslar ham asosiy tushunchalar orqali amalga oshirilib, talabalarining ijro mahoratini rivojlantirib borishda muhim omillardan biri bo'lib xizmat qiladi.

Konservatoriyaning birinchi kursiga xalq cholg'ulari yo'nalishi bo'yicha o'qishga kirgan talaba ixtisoslik bo'yicha dastlabki darsga kirganda albatta, o'qituvchi talaba bilan o'zaro suhbat qiladi. Bunda talabaning oliy ta'limgacha bo'lgan o'rta ta'lim muassasasida olgan bilimlari tekshirib ko'riladi. So'ngra talaba o'z cholg'usini yaxshilab sozlashi va ustoz talab qilgan bir nechta asarlarni ijro qilib berishi talab etiladi. Ijro natijasidan talabaning ixtisoslik bo'yicha olgan bilim va ko'nikmalari aniqlab olinadi. Shuningdek, uning dunyoqarashi, bilimlari, ijrochilik mahorati, qobiliyati, imkoniyatlari chamalab olinishi kerak bo'ladi. Bu o'z navbatida talabaning butun kurs uchun shakllantirilishi lozim bo'lgan ijro dasturiga o'z ta'sirini o'tkazadi. Ya'ni, aynan talabaning qobiliyati va ijro ko'nikmalarini hisobga olgan holda ijro dasturi shakllantiriladi. Bunda albatta, o'quv rejasidagi va kafedradagi mavjud talablar asosida dastur shakllantirilishi talab etiladi.

Ijro dasturini shakllantirish

O‘zbekiston davlat konservatoriyasida 5150700 – Cholg‘u ijrochiligi (Xalq cholg‘ularida ijrochilik) bakalavriat ta‘lim yo‘nalishida ta‘lim dasturlarini amalga oshirish tizimga solingan bo‘lib, ushbu fan bo‘yicha amaliy (yakka) mashg‘ulotlar olib borilishi nazarda tutiladi. Bu – yakka mashg‘ulotlarda o‘zlashtirilgan bilimlarni, amaliy ko‘nikmalar orqali mustahkamlab borishga yordam beradi. Xususan, amaliy (yakka) mashg‘ulotlarda har bir mavzu yuzasidan cholg‘uni cholib ko‘rish, kuylarning biror qismini notaga qarab ijro etib, tinglovchiga ta‘sirchanligi xususiyatlarini takroriy tajribalar (repetitsiyalar), ijro talqinlari orqali sinab ko‘rish yaxshi natija beradi. Amaliy (yakka) mashg‘ulotlar ayrim asarlarning ijro talqinlari (musiqiy yozuvlari)ni tinglab ko‘rish, tajriba (repetitsiya)lar vositasida o‘z ijodiy (yoki ijro) yo‘nalishini aniqlash kabi zarur ko‘nikmalarni shakllantirishga qaratiladi. Musiqiy ijro yozuvi namunalarini turli uslublarda yozib olib saqlash, sadolanish variantlarini tahlil orqali o‘rganish vazifalari ham qo‘yiladi.

1-kurs bakalavriat tabalasining o‘sayotganini ijrochilik amaliyotlarining samarali tashkil etilganligidan kuzatish mumkin. Talabalar butun o‘qish jarayonida ixtisoslik sinfida olgan bilimlari va ijrochilik ko‘nikmalarini, sinov-imtihonlarda, akademik konsertlarda, sinf konsertlarida, kompozitorlar ijodiga bag‘ishlangan kechalar, bayram konsertlari, hamda Respublika va Xalqaro tanlov-festivallarda qatnashishlari, ularni ijrochilik mahoratlarini yanada oshirishda yordam beradi.

Talabaning 1-kurs, ya‘ni 1- va 2-semestrlar mobaynida o‘rganishi lozim bo‘lgan O‘zbekiston kompozitorlari asari (kuylar), jahon kompozitorlari asari (kuylar) etyud va gammalar, yirik shakldagi asar, bastakorlar ijodidan, Shashmaqom asarlaridan namunalar, qardosh xalqlar kompozitorlari ijodidan asarlar, mohirona (virtuoz) asarlar har bir talaba uchun alohida (individual) tanlab olinib, ijro dasturi shakllantirib olinadi.

Darslikda yoritilgan musiqiy janrlar fanning taqdiqlangan va joriyga kiritilgan o‘quv dasturi bo‘yicha tanlangan. Qolaversa, O‘zbekiston davlat konservatoriyasining “Xalq cholg‘ularida ijrochilik” kafedrasidan yillar davomida shakllantirilgan, kursma-kurs belgilangan xususiy talablar majmuasi ham mavjud. 1-kurs talabalari boshqa ustozlar sinfida shu janrlar va uslublarda yaratilgan turli kompozitorlarning asarlarini o‘rganishlari mumkin. Ular murakkablik darajasi bo‘yicha albatta oliy ta‘lim talablariga va har bir talabaning imkoniyatlariga to‘g‘ri kelishi kerak. Darslikda notasi berilgan asarlar faqat namunaviy dastur sifatida taqdim etilgan. “Qashqar rubob” ixtisosligining 1-kursi ta‘lim jarayonlari mobaynida ijrochilik mahoratini yangi bosqichda o‘zlashtirish uchun dastavval ijro dasturini shakllantirish zarur, bu o‘quv yili boshida amalga oshiriladi. Misol tariqasida ushbu darslikka asos qilib, bir talabaning iqtidorini inobatga olgan holda “Talaba shaxsiy rejasi”ni tuzsak. O‘rtacha ijrochilik mahoratini egallagan talaba uchun namuna sifatida 1-o‘quv yiliga quyidagi ijro dasturini tavsiya etiladi.

1-semestrda ijro dasturi namunasi:

- 1) O'zbek xalq kuylaridan "Gulbahor va tanovor"
- 2) O'zbekiston kompozitori asari sifatida Q.Komilovning "Fantaziya"si
- 3) Jahon kompozitorlari asari sifatida P.Chaykovskiyning "Kuz qo'shig'i" kuyi;
- 4) Bastakorlar ijodi namunasi sifatida M.Murtazoyevning "Tamanno" ashulasi;
- 5) Yirik shakl namunasi sifatida M.Otajonovning qashqar rubob va orkestr uchun konserti.

2-semestrda ijro dasturi namunasi:

- 1) I-kurs uchun majburiy gammalar;
- 2) Mohirona etyud sifatida Q.Nazarov Etyud №3
- 3) Mohirona etyud sifatida O.Nazarov Etyud №15
- 4) Mohirona asar sifatida V.Asevedoning "Braziliyalik kichkintoy" kuyi;
- 5) Shashmaqom asarlari namunasi sifatida "Buzruk" maqomidan "Tarjei Buzruk", "Garduni Buzruk"
- 6) Qardosh xalqlar kompozitorlari asarlari namunasi sifatida H.Xanmamedovning Tor va simfonik orkestr uchun №3 Konserti I-qism;

Ijrochilik holati(postanovka)

Xalq cholg'ulari yo'nalishi bo'yicha konservatoriyaga o'qishga qabul qilingan talaba ixtisoslik bo'yicha birinchi darslarni yana o'sha ijrochilik holati bo'yicha ko'nikmalarini takomillashtirishdan boshlaydi. Sababi, cholg'ularda o'qitish ishida dastlab cholg'uni to'g'ri ushlab, o'ng va chap qo'llarning to'g'ri qo'yilishi, cholg'uga nisbatan to'g'ri joylashish, tana qismlarining erkinligi kabi ko'nikmalarining o'zlashtirilishi va aynan mana shu ijrochilik holati keyinchalik mohir sozanda darajasiga erishishda eng asosiy omillardan biri ekanligidir. Bunday ko'nikmalar musiqiy ta'limning ilk bosqichida, ya'ni, Bolalar musiqa va san'at maktabida shakllantirilsada, bu holatga yetarlicha e'tibor bermaslik natijasida keyinchalik yuzaga keladigan jiddiy kamchiliklar ta'limning aynan konservatoriya bosqichida ham ishlash talab etiladigan jiddiy masalalardan biri bo'lib qoladi.

Konservatoriyaga o'qishga kirgan talaba ma'lum darajada bilim va ko'nikmalarga ega bo'lsada, uning ijrochilik holatida ayrim nuqsonlar ko'zga tashlanadi. Tajribada kuzatilishicha, ko'pincha ayrim murakkab passajlar, asarning murakkab qismlari qancha shug'ullanilmasin, talab darajasidagi ijroga erishib bo'lmaydi. Bunga aynan chap yoki o'ng qo'lning nuqsonlari sabab bo'layotganligiga aksariyat hollarda mutaxassislar ko'p e'tibor qaratishmaydi. Ana shunday nuqsonlardan biri bu chap qo'l barmoqlarning rubob dastasiga perpendikulyar qo'yilishidir.

Bunda chap qo'l barmoqlari oldinga chiqib ketishi natijasida dasta kaftga qo'yiladi va barmoqlarning erkin harakatlanishi chegaralanib qoladi. Ayniqsa oddiy gammada yoki passaj ijrosida pozitsiya almashinishida tovushning, ya'ni musiqa

ohanglarining “uzilib” qolishi yuzaga keladi. Talaba qancha ko‘p shug‘ullanmasin baribir tekis tovush eshutilishiga erisha olmaydi. Bundan tashqari barmoqlarning dasta pardalarini sezishi ham kamayadi. Chunki barmoq pardani tik bosadi. Bu esa tovushni sifatli sadolantirish, sadolanish davomiyligini his qilish, tovushlarni biridan ikkinchisiga “olib o‘tish”, milliy musiqiy bezaklar - “bidratma”, “to‘lqinlatish”, “molish”, “kashish”, “glissando” ijrosini o‘zlashtira olmaslikka olib keladi. Birgina shu kamchilik barmoqlarni tordan torga o‘tishini qiyinlashtiradi, chunki bunday holatda barmoq torlarda “sirg‘almasdan” balki, “sakrab” harakat qiladi, akkordlar olishni qiyinlashtiradi, chunki barmoqlar oldinga chiqib ketganligi ularning almashishini qiyinlashtiradi.

Kuzatiladigan kamchiliklardan yana biri bu chap qo‘l barmoqlarining dastadan ko‘tarilib ketishi, yoki pastga tushib ketishidir.

Bu holatda ham ijro texnikasi pasayadi, tovushlar tekisligi buziladi. Chunki barmoq har bir notani bosish uchun alohida ortiqcha vaqt sarflaydi. Yoki o‘ng qo‘lda uchraydigan kamchiliklardan hisoblangan - rubob kosasi holatining noto‘g‘riligidir. Bunda o‘ng qo‘l oldinga chiqib, yoki orqaroq tortilib qolishi tovushning bo‘g‘iq yoki quruq jaranglashiga sabab bo‘ladi.

Rubob kosasi noto‘g‘ri ushlanganda kosa ichkariga kirib qolishi yoki bir oz oldinga chiqib qolishi natijasida kosaning mustahkam ushlanmasligi, uning doimo qimirlab turishi oqibatida o‘ng qo‘l kuchining kamayishiga, qiyin shtrixlarda tovush yomon chiqishiga, sozandaning tez charchab qolishiga sabab bo‘ladi. Kosaning noto‘g‘ri ushlanishi rubob dastasining yuqoriga ko‘tarilib ketishiga yoki yuqori pozitsiyalarda chap qo‘l barmoqlari harakatlarining cheklanishiga olib keladi.

O‘ng qo‘l holatida mizrob(mediator) ushlashda ko‘zga tashlanadigan kamchilik – bu bosh barmoqning holati bo‘lib, unda bo‘g‘inlarning bukilmasligi qolgan barmoqlarning ham noto‘g‘ri joylashishi ko‘zga tashlanadi.

Bu holat mizrobni yaxshi sezilmaslikka, tovush kuchi va sifatining kamayishiga, uzoq vaqt ijro eta olmaslikka, ijro paytida mizrobni boshqara olmaslikka olib keladi. Ayrim hollarda esa hatto ijro paytida mizrobni qo‘ldan tushirib yuborish holatlariga ham olib keladi.

Talabada yuqoridagi nuqsonlar mavjud bo‘lar ekan, u yuqori ijro texnikasiga erisha olmaydi. Demak, qashqar rubobda ijro mahoratini takomillashtirish jarayonida dastlabki amalga oshiriladigan ish bu- ijrochilik holatini to‘g‘rilash bo‘lib, uni o‘qituvchining qat’iy nazorati ostida muayyan vaqt davomida amalga oshirish samarali natijaga olib keladi.

Savollar:

- 1) Ijro holati(postanovka) deganda nimani tushunasiz?
- 2) Chap qo‘l holatini to‘g‘ri qo‘yish uchun qanday mashq qilish kerak?
- 3) Agar rubob kosasi noto‘g‘ri ushlansa, sozanda ko‘rinishida qanday o‘zgarishlar yuz beradi?
- 4) Mizrobning noto‘g‘ri ushlanishi qanday oqibatlarga olib kelishi mumkin?
- 5) O‘ng qo‘l barmoqlari bo‘g‘inlari qay holatda bukilishi kerak?

6) Chap qo'lda uchraydigan nuqsonlar ijroda qanday kamchiliklarga sabab bo'ladi?

Mustaqil mashg'ulot uchun topshiriqlar:

- 1) Ijrochilik holatining ahamiyati haqida gapirib bering.
- 2) O'zingizning ijrochilik holatingizni kuzating va kamchiliklarni aniqlab, ularni bartaraf etish ustida ishleng.
- 3) Ijrochilik holatini yaxshilash uchun maxsus mashqlar yordamida shug'ullaning.
- 4) Ijrochilik holatiga doir ma'lumotlarni boshqa adabiyotlardan to'plang va ularni taqqoslang.

Tayanch iboralar: ijrochilik holati; mizrobli sozlar; tremolo; yakka zarb; o'ng qo'l xususiyatlari.

3-DARS: O'ZBEK XALQ KUYI "GULBAHOR VA TANOVOR"

1. Ijro dasturida ko'rsatilgan o'zbek xalq kuylari turkumidan "Gulbahor va Tanovor" kuyini o'rganishdan oldin o'zbek xalq kuylari haqida qisqacha ma'lumot bilan tanishib chiqamiz.

Xalq kuylari musiqashunoslar tomonidan sozandalar ijrosidan notaga olingan. "Gulbahor va Tanovor" kuyi professor F.Karomatov, R.Qosimov, sozanda Q.Umarov kabi mutaxassislar tomonidan notaga olingan.

Mutaxassislarning ta'kidlashlaricha, qachonlardir muayyan bastakor tomonidan yaratilib, xalq orasida mashhur bo'lgan, keyinchalik muallifi unutilgan yoki noma'lum bo'lgan asarlar o'zbek xalq kuylari turkumiga kiritilgan. Ba'zan asarlar "Abdurahmonbegi", "Hojiniyoz", "Aliqambar", "Muxammasi Nasrullovi" kabi bastakor nomi bilan ham atalgan bo'lishi ham mumkin. Hatto hozir ham bastakorlarimizning ko'pgina asarlari xalq kuylari deb ta'riflanib kelinayotgan holatlarga duch kelishimiz mumkin². Dasturda berilgan "Gulbahor va tanovor" kuyi ham shular jumlasidandir. Ushbu asar ko'plab ijodiy jamoalar tomonidan ijro qilingan bo'lib, ularning magnit yozuvlari fonotekalarda mavjud. Asarni o'rganishga kirishishdan avval uning yozuvlarini diqqat bilan tinglash zarur.

2. Kuyini o'rganishga kirishishdan oldin qo'llarni quyidagi mashqlar orqali qizdirib olamiz. Birinchi va ikkinchi mashqlar o'ng qo'l, uchinchi va to'rtinchi mashqlar esa chap qo'llar uchun tavsiya etiladi. Uchinchi torda triol chalganda triolning o'rta tovushi aniqligiga va tovushlar tekisligiga e'tibor qarating, chap qo'l barmoqlari uchi bilan qattiq va aniq, shu bilan birga barmoqlar bo'g'inlari bukilgan holda bosishiga e'tibor bering. Agar chap qo'l barmoqlar harakatida og'irlik sezilsa, barmoqlarni orqaga torting.

² Darslikning ilova qismida o'zbek xalq kuylarining qisqacha ro'yxati keltirilgan.

3. Dastlab kuyning birinchi , ya'ni “Gulbahor” qismini nota yozuvidan o‘qing. “Gulbahor va Tanovor” kuyining jumalari 4 taktdan iborat.

Ushbu jumlar ijrosida ularning boshlanishi va tugallanishini ifodali ijro etish ustida ishleng. Keyingi jumalarni dastlabki jumlar bilan bog‘lang.

Asarning daromad qismi 17-taktdan boshlanib 8 takt davom etadi.

4. Daromaddagi ikki jumla ijrosida ijro shtrixlarini rang-barang ijro etish ustida ishleng. Asarning 25-32 taktlari kuyning avjini tashkil etadi. Bu qismda tremolo shtrixi keng qo‘llaniladi. Tremoloning davomiyligi, uning uzilish nuqtasi va tepaga uzilish ko‘nikmalari ustida ishleng.



Ushbu qismda asosan zarblarga ahamiyat bering. O'ng va chap qo'llar mutanosibligi muhimdir. Tovush jarangdorligini so'ndirib qo'ymaslikka harakat qiling. Eng muhimi, berilgan applikatoraga qat'iy rioya etish talab etiladi. Chunki, milliy musiqiy bezaklar ijrosini o'zlashtirishda bu asosiy omil hisoblanadi.

Savollar:

- 1) Xalq kuylari turkumiga qanday kuylar kiradi?
- 2) "Gulbahor va Tanovor" kuyining qanday yozuvlarini bilasiz?
- 3) "Gulbahor va Tanovor" kuyi kimlar tomonidan notalashtirilgan?
- 4) Yuqorida o'zlashtirilgan asarda jumlar necha taktdan iborat?

Mustaqil mashg'ulot uchun topshiriqlar:

- 1) "Gulbahor va Tanovor" kuyi yozuvlarini tinglang.
- 2) Asarni jummalarga bo'lib o'rganing.
- 3) Jumlar oxirida dinamikaga e'tibor bering.
- 4) Maxsus mashqlarni takrorlab shug'ullaning.
- 5) Kuyning "Tanovor" qismini uyda tahlil qiling.

Tayanch iboralar: tanovor, xalq kuylari, bastakor, turkum

4-5-DARSLAR: AMALIY IJROCHILIK MASHG'ULOTLARI


1. Mashg'ulotni boshlashdan oldin mashqlar bilan qo'llarni qizdirib olamiz. Quyidagi mashqlar asosan o'ng qo'l barmoqlari uchun berilgan bo'lib, ular orqali musiqiy bezaklarga xos bo'lgan ko'nikmalar – torlarni his qilish, ularni turli holatlarda har-xil bosish ko'nikmalarini takomillashtirish uchun tavsiya etiladi.





2. Gulbahor va Tanovar kuyining Gulbahor qismini yoddan ustoz bilan takrorlang.

Navbatdagi darslarda “Tanovor” qismi ustida ishlaymiz. Dastlab uyga berilgan vazifa – ushbu qismni tahlil qilib bering. So‘ngra Tanovor usuli ijrosida zarblar va tovushlarni nazorat qilishga e‘tibor bering. Bu ko‘nikmalarni ustoz bilan birga ijro qilib o‘zlashtiring. Shundan so‘ng Tanovor qismini o‘rganishni boshlaymiz. Ushbu qismda jumlar 6-8 taktdan iborat bo‘lib, dastlabki jumla 6 takt bo‘lsa, keyingisi 8 taktni tashkil etadi.



O‘zbek milliy musiqasiga xos bo‘lgan ijro uslubi o‘ziga xos applikaturani talab etadi. Yuqorida ta’kidlanganidek, bu musiqiy bezaklar ijrosi bilan bog‘liq. Shu sababli berilgan applikaturaga qat’iy rioya qiling. Masalan: har doim *do* va *fa* notalarida bidratma 2- barmoq bilan yarim ton pastdagi tovush bilan chalinsa, *mi*, *re*, *si* kabi tovushlarda 1- barmoq bilan yuqoridagi tovushga bidratma qilib chalinadi. Bu ko‘nikmalarni o‘zlashtirish uchun maxsus mashqlar bilan shug‘ullaning. Qolaversa, ustoz bilan birga takrorlash orqali ushbu nolalarni qanday ijro etilayotganini ko‘rish orqali o‘zlashtiriladi.

3. Asarning daromad qismi va birinchi avji 25-52 taktlarni o‘z ichiga oladi.



Daromad qismi jumalari 6+6+8 taktlardan iborat. 21-taktdan 28-taktgacha kichik avj kuy tuzilmasi oktava oralig'ida pastga harakat qiladi. Bu jumla kuyni shaxdam, intiluvchan xarakterda jaranglab keyingi katta avj oldi daromadga olib o'tadi. Bu qism 25-52 taktlarga o'xshash. Faqat katta avj bir oz o'zgarishlar bilan takrorlanadi. Katta avj kuyning *lya* notasi atrofida rivojlanishi bilan o'ziga xos xususiyat kasb etganligi bois talabalar kuyni o'zlashtirishda bir oz chalkashlikka yo'l qo'yadilar.

Katta avj qismini alohida ustoz bilan birga chalib o'zlashtiring. Kichik avj bilan farqli jumalarni aniqlab, ularga alohida e'tibor bering. Shuningdek ushbu qismning shtrixlari asosan tremolo va yakka zarbli usullarning ketma-ketligidan iborat ekanligiga diqqatni qarating. Shtrixlar kuyni to'laqonli jaranglashida asosiy omil ekanligini unutmang.

Savollar:

- 1) Tanovor qismida kichik avj nechanchi taktlari o'z ichiga oladi?
- 2) Bu qismda asosan qanday shtrixlar qo'llaniladi?
- 3) Applikaturaning o'ziga xosligi nimadan iborat?
- 4) Asarni qanday ansambllar ijro etgan?

Mustaqil mashg'ulot uchun savol va topshiriqlar:

- 1) Asarning turli yozuvlarini tinglab va ularni taqqoslang.
- 2) Ansambl tarkibida qanday shtrix, yakka holda qanday shtrix tanlash afzalligini aniqlang.
- 3) Kuyni birinchi qismi bilan qo'shib takrorlang.
- 4) Doira jo'rligida ijro etganda jumalarda usulga mutanosib ijro etilishiga ahamiyat bering.

Tayanch ibjralar: applikatura, strix, ansamdl, jumla.

6-DARS: O'ZBEKISTON KOMPOZITORLARI IJODIDA QASHQAR RUBOB CHOLG'USI UCHUN ASARLAR YARATISH TENDENSIYALARI

Talaba bilan birinchi darsda uning imkoniyatlarini hisobga olgan holda tuzilgan ijro dasturidan joy olgan ikkinchi asar O'zbekiston kompozitori Q.Komilovning qashqar rubob va orkestr uchun "Fantaziya"si. Ushbu asar timsolida talaba faqat O'zbekiston kompozitorlari asarlari bilan tanishibgina qolmasdan, balki O'zbekistonda kompozitorlarning qashqar rubob cholg'usi uchun asarlar yaratish tendensiyalari bilan ham tanishib borishlari zarur. Shu sababdan quyida ana shu masalalar bo'yicha nazariy ma'lumotlar taqdim etiladi.

XX asrning birinchi yarmida davr taqozosi bilan butun jahon miqyosida madaniyatlarning o'zaro yaqinlashuv jarayonlari kuzatildi. O'zbekistonda musiqa san'atining yangi turlari shakllana boshladi. O'sha paytlarda o'zbek musiqa san'ati rivojlanishida xorij mamlakatlari musiqachilarining ta'siri katta bo'lganini inkor

etib bo'lmaydi, albatta. V.Uspenskiy, N.Mironov va uning safdoshlarni o'zbek xalq musiqasini notaga olish ishlarini boshlab yuborganliklari tarixdan ma'lum. Yangi tashkil etilgan ijodiy jamoalar, o'quv yurtlari, tizimga solingan ta'lim asta-sekin shakllana boshladi. Toshkentda konservatoriya ochilishi, viloyatlarda musiqa bilim yurtlarining tashkil etilishi musiqiy ta'limni yangi pog'onaga ko'tardi. Asta-sekin yangi zamon talabiga javob beradigan milliy kadrlar yetishib chiqqan boshladi. Ular sozandayu-xonandalardan tortib, musiqashunos kompozitorlari-bastakorlardan tashkil topgan bo'lib, o'zbek musiqa san'ati rivoji yo'lida fidokorona mehnat qildilar.

Dastlab kompozitorlar Yevropa cholg'ulari-fortepiano, skripka uchun, simfonik orkestr, xor va vokal ijrochilari uchun asarlar yaratgan bo'lsalar, keyinroq, o'zbek musiqiy dramalari va milliy musiqamiz asosida yaratilgan yirik asarlarni ham yarata boshladilar. Shunday qilib o'zbek kompozitorlik maktabi shakllandi.

Milliy cholg'ular uchun kompozitorlar XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab asarlar yarata boshladilar. Dastlabki namunalar bastakorlar tomonidan yaratilgan bo'lib ular: T.Jalilov, Y.Rajabiy, M.Mirzayev, F.Sodiqov, S.Yo'ldoshev, M.Niyozov, E.Shukrullayev, G'.Hojiqulov kabi ko'plab ustozlar yaratgan asarlardir.

Qashqar rubob uchun takrorlanmas, yorqin asarlar yaratgan Muhammadjon Mirzayev tomonidan bastalangan "Lirik kuy", "Intizor etma", "Marg'ilon qizlari", "Dilrabo", "Yangi tanovor", "Gulrux", "Dil kuylasin", "Shodlik" kabi kuylar qashqar rubob ijrochiligini yana bir pog'onaga ko'tarilishiga sabab bo'ldi. Ayniqsa ushbu asarlar ikkita rubobda ijro etilishi o'sha paytda katta yangilik edi.

Kompozitorlardan Ibrohim Hamrayev "Qashqar rubob va fortepiano uchun Konsert", Abdusharif Otajonov "Chang va fortepiano uchun Konsert" va pyesalar kabi namunalar yaratilgan bo'lsa, bugungi kunda milliy cholg'ular uchun deyarli har bir kompozitor ijod qilmoqda. Zamonaviy kompozitorlarimizdan Sayfi Jalil, Mustafo Bafoyev, Farhod Alimov, Habibullo Rahimov, Rustam Abdullayev, Dilorom Saydaminova, Nadim Norxo'jayev, Avaz Mansurov, Muhammad Otajonov, Dmitriy Yanov-Yanovskiy, Oydin Abdullayeva, Dilnoz Zokirova, Jamil Charshemov kabilarning xalq cholg'ulari uchun yaratgan asarlari doimiy ijro repertuaridan mutahkam o'rin olib, musiqiy ta'limning barcha bosqichlarida yangi avlod sozandalarini tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etib kelmoqda.

O'zbekiston kompozitorlari tomonidan qashqar rubob uchun yaratilayotgan asarlar orasida boshqa cholg'ular, masalan: skripka, fortepiano, violonchel kabi cholg'ular, shuningdek, turli orkestrlar uchun yozilgan asarlarni qashqar rubob cholg'usi uchun moslashtirish yoki qayta ishlash natijasida paydo bo'layotgan asarlar ham ijro repertuaridan mustahkam o'rin olib bormoqda. Bu yo'nalishda kompozitorlar F.Alimovning "Tamanno", "O'rik gullaganda", "Feruza", M.Otajonovning "Bolgarcha syuita", "Eroncha Fantaziya", "Sadri Gusfand", "Kujo rafte", "Mavrigi" kabi asarlarni yaratib qashqar rubob ijrochiligiga yangi bir yo'nalishni kirib kelishida o'zlarining munosib hissalarini qo'shib kelmoqdalar.

Savollar:

- 1) O‘zbekiston kompozitorlarining qashqar rubob cholg‘usi uchun asarlar yaratish tendensiyalari haqida nima deya olasiz?
- 2) O‘zbekiston kompozitorlarining qashqar rubob cholg‘usi uchun yaratgan qanday asarlarini bilasiz?
- 3) Talaba 1 o‘quv yili mobaynida qaysi janr va yo‘nalishlardagi asarlarni ijro etishi shart?
- 4) M.Mirzayev rubob cholg‘usi uchun qanday duetlar yaratgan?

Mustaqil mashg‘ulot uchun topshiriqlar:

- 1) O‘zingizning ijrochilik formangizni tiklash uchun mashqlar chaling.
- 2) Kompozitorlik maktablari haqidagi ma‘lumotlarni ensiklopediya va boshqa manbalardan toping, keyingi darsda ustozingizga so‘zlab bering.
- 3) Cholg‘u kuyining yirik shakldagi asardan nima farqi borligini musiqiy shakllarga oid kitoblardan o‘qib o‘rganing.
- 4) O‘z cholg‘uingizni sozlash ustida muntazam shug‘ullanib boring.

Tayanch iboralar: Tendensiya, maxsus asar, xalq cholg‘ulari orkestri, ballada, poema, konsert, fantaziya.

**7-8-DARSLAR: Q.KOMILOV. QASHQAR RUBOB
VA ORKESTR UCHUN “FANTAZIYA”**

1. “Gulbahor va Tanovor” kuyini yoddan chalib bering. Milliy bezaklar ijrosiga va qismdan qismga o‘tishga e‘tibor bering.

2. Ushbu darsda yangi asar, ya‘ni dasturda aniqlab olingan O‘zbekiston kompozitor asarlari turkumidan Q.Komilovning sharq mavzulari asosida qashqar rubob va orkestr uchun Fantaziya asarlari o‘rganishga kirishamiz. Dastlab asar muallifi haqida to‘xtalib o‘tsak.

O‘zbekiston Bastakorlar uyushmasi safiga 1992 yili qabul qilingan kompozitor, O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan artist, mohir g‘ijjakchi, Qahramon Komilov, Toshkent shahrida 1948 yilning 21 martida tug‘ildi. 1962-1966 yillarda Hamza nomidagi Toshkent musiqa bilim yurtida g‘ijjak cholg‘usi bo‘yicha tahsil oldi. 1988-1993 yillarda esa Toshkent davlat konservatoriyasini kompozitorlik fakultetini professor B.F.Gienko sinfida muvaffaqiyatli bitirdi. 1964-2001 yillar mobaynida O‘zbekiston radiosi huzuridagi o‘zbek xalq cholg‘ulari orkestrida g‘ijjakchi sozanda, 1996-1998 yillarda G‘anijon Toshmatov nomidagi «Dutorchi qizlar» ansamblining badiiy rahbari, 2001-2012 yillarda O‘zbekiston davlat san‘at institutida dotsent lavozimida faoliyat yuritdi.

Q.Komilov bastakor sifatida turli janr va shakllarda jozibali, milliy ruhda sug‘orilgan, rang-barang original musiqiy asarlar yaratdi. Toshkentning 2000 yillik yubileyiga bag‘ishlangan, o‘zbek xalq cholg‘ulari orkestri uchun yozgan «Toshkent haqida poema»; yakkaxon, xor va orkestr uchun O.Matchon so‘ziga yozgan

«Mening muhabbatim» syuitasi, o‘zbek xalq cholg‘ulari orkestri uchun uchta uvertyura; soprano va orkestr uchun N.Narzullayev so‘ziga «Ishonadi ona yuragi» balladasi, tenor, xor, suxandon va orkestr uchun «XX asr nidosi» (E.Vohidov so‘zi) balladasi, violonchel va fortepiano uchun «Elegiya», akapella xori uchun «Yurtim» (M.Ali so‘zi) qo‘shig‘i; xor va orkestr uchun «Jon tasadduq», «El madhi» (U.Rashid so‘zlari), «Nur qo‘ynida diyorum» (N.Narzullayev so‘zi) kabi 400 dan ziyod turli mavzularda qo‘shiqlar yaratdi.

Q.Komilov «Simfoniya» (1993 y.); «Dalvarzintepa» syuitasi (1995 y.); qo‘shnay va orkestr uchun «Ko‘klam tarovati», g‘ijjak va orkestr uchun «Diyorum madhi», rubob va orkestr uchun «Do‘stlik», g‘ijjak va orkestr uchun «Alla» kabi pyesalari, xor uchun «O‘zbekiston qo‘shig‘i» (H.G‘ulom so‘zi); «Ozod yurt» (M.Ali so‘zi) nomli oratoriyalarini, «Jaloliddin Manguberdi» va «Ona faryodi» (K.Avaz so‘zlari) vokal-poemalarini, musiqali teatr uchun «Diyonatga xiyonat» (K.Avaz pesasi 1999 y.), «Otabek va Kumushbibi» (J.Jabborov pesasi, 1999y.), «Oy onam-qaynonam», «Muhabbatim qismatim», «Garovdagi muhabbat» kabi musiqali drama va komediyalarga musiqa bastaladi.

Kompozitor so‘nggi yillarda qashqar rubobi va xalq cholg‘ulari orkestri uchun «Mohim» Poemasi hamda Fantaziya asarlarini yaratdi. Bugungi kunda ushbu asarlar ijrochilik va o‘quv dasturlaridan mustahkam o‘rin olgan.

3. Endi kompozitorning «Qashqar rubob va orkestr uchun Fantaziya» asarini o‘rganishga kirishamiz.

Asar maxsus qashqar rubob cholg‘usi uchun yaratilgan bo‘lib, erkin shaklda yozilgan. Dastlab D.Zokirov nomidagi XChO sozandasi Rustam Karimov tomonidan ijro etilgan. Erkin improvizatsiya bilan boshlanadigan kirish qismi nota matnida qisqa ko‘rinishda barilgan bo‘lsada, uni ijrosi kengroq ijro etishi mumkin.

Ushbu darsda 70-taktgacha nota matnini o‘qib chiqing. Dastlab *ad libitum* asosida kichik kadensiya berilgan. Ushbu kadensiya asarning birinchi ijrochisi Rustam Karimov tomonidan ancha keng tarzda, mukammal kadensiya ko‘rinishida ijro etilgan. Demak ushbu qism erkin holda ijrochiga o‘z mahoratini ko‘rsatishga imkon yaratadi. Sol major tonalligida 1-raqamdan boshlanadigan dastlabki qism 2/4 o‘lchovida yengil, shaxdam xarakterli teskari zarbli kuy tuzilmasi Fantaziyaning birinchi mavzusi hisoblanadi. Forteplano teskari zarb usulida to‘rt taktli kirish qismini chalib bergach, beshinchi taktdan solo boshlanadi.

1 Allegretto

Sekvensiyali jumladan tuzilgan ushbu qism yengil, o‘ynoqi, shaxdam ijro etilishi kerak.

5-raqamdan re minor tonalligiga o‘tgan **Meno mosso** sur‘atida 7/8 o‘lchovli qism boshlanadi. Ushbu qism o‘zining ritmi va ixcham, yakunlangan shaxdam kuy ohangi bilan o‘ziga xoslik kasb etadi. Qashqar rubob ijrosida mavzuning har ikkinchi taktida takrorlanadigan choraklik tovushlar tremolosi tepaga uzilishi kerak. Shundagina keyingi jumлага auftakt bilan yengil o‘tish imkoni yaratiladi.

Ushbu qismni fortepianoning 9 taktli mavzusi yakunlab beradi.

Ko‘rinib turganidek so‘nggi takt do major tonalligiga o‘tish og‘ishmasi bilan tugallanadi. Bu yerda *ritenuto* orqali keyingi mavzuga o‘tiladi. Ushbu darsda asarning I va II qismlari tahlil qilib nota orqali o‘qib chiqildi. Endi shtrixlar va applikator haqida to‘xtalib o‘tsak. Asarni o‘zlashtirishning dastlabki jarayonidan boshlab shtrix va applikatorani to‘g‘ri qo‘yish muhim. Birinchi qism $\square \vee$ shtrixlarida, teskari zarb esa faqat pastga zarb berib chalinadi. Ikkinchi qismda sakkiztalik notalar pastga, choraklik notalar esa tremolo shtrixida chalinadi.

Savollar:

- 1) Q.Komilov qashqar rubob uchun nechta asar yozgan?
- 2) Kompozitor qayerda ijodiy faoliyat olib borgan?
- 3) Fantaziya so‘zining ma‘nosi nima?
- 4) Asarga qanday o‘lchovlar qo‘llanilgan?

Mustaqil mashg'ulot uchun topshiriqlar:

- 1) Kompozitor hayoti va ijodi bilan to'liq tanishib chiqing.
- 2) Q.Komilov yaratgan boshqa asarlar haqida ma'lumot o'rganing.
- 3) Asar shtrixlari ustida ishlang.
- 4) Kadensiyani mustaqil ravishda o'zingiz yaratishga harakat qiling.

Tayanch iboralar: tendensiya, kadensiya, kompozitor, fantaziya.

9-10-DARSLAR: AMALIY IJROCHILIK MASHG'ULOTLARI

1. Darsni boshlashdan oldin mashqlar bilan qo'llarni qizdirib olamiz. Mashqlarni mustaqil ravishda, shuningdek, F.Vasilyevning "Qashqar rubob uchun gamma va mashqlar applikaturasi" (1981) kitobidan va O.Nazarovning "Xalq cholg'ulari ijrochilik" (qashqar rubobi uchun gamma va etyudlar.2016) o'quv qo'llanmasidan, hamda G.Shradikning kitobidagi mashqlardan foydalanishingiz mumkin.

0 1 3 4 3 4 3 4 3 0 1 3 1 3 1 3 1 1

3 1 1 2 4 2 4 2 4 1 1 0 1 3 4 3 4 3 4 1

3 0 1 0 3 0 4 0

1 4 1 4 3 4 1 4 2 4

2. O'tgan darsda o'zlashtirilgan Q.Komilovning Fantaziya asarining 70-taktigacha yoddan chalib bering. Asarning 71-139 taktlarni oldingi qismiga bog'lang.

Ushbu qism **Allegro** sur'atida do major tonalligida yozilgan bo'lib, sekvensiyasi jumladan tuzilgan. Jumlar ijrosida pauzalarga ahamiyat bering. Tovushlar suvalmasdan, ayniqsa tepaga beriladigan zarblarning aniq jaranglashiga alohida e'tibor bering.

mf

9-10 raqamlar faqat pastga zarb berib chalinadi. 10 raqamga bir takt bog'lovchi vazifasini o'taydigan passaj seksolli tovushlari tekis va aniq ijro etilishi zarur.

10

12-raqamdagi o'n oltitalik notalarning zarblari tekisligi ustida alohida ishlang.

13

13-raqamdagi to'rt takt ichida tonallik asta-sekinlik bilan si bemol tonalligiga og'ib boradi va so'nggi to'rtinchi qismga ulanadi.

3. O'tgan darslarda o'zlashtirilgan Q.Komilovning Fantaziya asarining 134-taktigacha yoddan fortepiano jo'rligida takrorlang. Nota matni to'g'riligiga va tovushlar ijrosiga e'tibor bering.

Navbatdagi darslarda Fantaziyaning so'ngi qismlarini, ya'ni 140-194 taktlarni o'rganamiz. Bu qism asarning so'ngi qism bo'lib, **Vivo** sur'atida *si bemol* major tonalligida davom etadi.

14-raqam 20 taktli fortepiano partiyasi tez ijro etiladigan o'n oltitalik jumalarni tayyorlab beradi.

14 Vivo

Bu qism ijrochidan chap qo‘l harakatlari bilan yengilligini talab etadi. Shu bilan birga o‘ng qo‘l zarblarining aniqligi, tekisligi muhim. Bu qismni notadan oxiriga o‘qing. Fortepiano jo‘rligida pauzalar, hamda ritm ustida ishlang. Jumlar so‘nggida keladigan ikki taktli trela 1-3 barmoqlarning aniq va yengil harakatlanishi ustida ishlang.

So‘nggi qism nota matnida uchraydigan tasodifiy alteratsiya belgilariga e‘tibor berishni taqozo etadi. Chunki bu belgilar applikatorada o‘zgarishga sabab bo‘lganligi bois, chap qo‘l barmoqlari uchi bilan pardalarni aniq bosish ustida alohida ishlang.

Asarning sur'ati yuqori bo'lganligi bois, yonma-yon joylashgan sekvensiyali passajlarni avval sekin tempda o'zlashtirib oling. Fantaziyani o'z tempida chalishdan oldin uni to'liq holda fortepiano jo'rligida sekin tezlikda chalib o'rganing.

Savollar:

- 1) Qashqar rubob uchun O'zbekiston kompozitorlarining qanday yirik shakldagi asarlarini bilasiz?
- 2) **Meno mosso** termini ma'nosi nimani bildiradi?
- 3) Qanday sur'atlarni bilasiz?
- 4) Qashqar rubob uchun qanday mashqlarni bilasiz?

Mustaqil mashg'ulot uchun topshiriqlar:

- 1) Fantaziyaning oldingi qismlarini yoddan chaling.
- 2) O'tilgan darsda berilgan mashqlarni yoddan tez sur'atda chaling.
- 3) Chap qo'l barmoqlari uchi bilan qattiq bosib mashq qiling.
- 4) Asarni oxirigacha yod oling.

Tayanch iboralar: meno mosso, sur'at, chap qo'l barmoqlari, sekvensiya.

11-DARS: TOVUSH KUCHINI BOSHQARISH (DINAMIKA)

Konservatoriyaga o'qishga kirgan I bosqich talabalarida tovush balandligini aniq his qilish, ularni bir-biridan farqlay bilish, ijroda ular o'rtasidagi chegarani ko'rsata bilish ko'nikmalari yetarlicha o'zlashtirilmaganligi ko'zga tashlanadi. To'g'ri, har bir kompozitorning, u yoki bu asarda qo'ygan dinamikasi o'ziga xos, o'sha asar xarakteri, ruhiyati va badiiy obrazidan kelib chiqib tanlagan bo'lishi mumkin, ya'ni bu belgilar qandaydir nisbiy ma'no kasb etadi. Lekin shunday bo'lishiga qaramay, talaba ijro etilayotgan asarni to'liq va puxta o'rganishi, bu o'rinda barcha ijro ko'nikmalari qatori, tovush balandligini boshqarish ko'nikmalarini ham to'liq o'zlashtirishi talab etiladi.

Musiqiy asarda uch xil tovush balandligi qo'llaniladi:

- *asta-sekin, birtekisda, silliq tovush almashinuvi;*
- *qarama-qarshi tovush almashinuvi;*
- *bosqichma-bosqich tovush almashinuvi;*

Mutaxassislarning ta'kidlashicha, tovush balandligining o'zgarishi bu – badiiy obraz o'zgarishi emas, balki faqat holat o'zgarishi ekan³.

Ko'pincha BMSM, litsey-kollej o'quvchilari ijrosida *forte* chalinsa sur'atning tezlashishi, *piano* ijrosida esa aksincha sekinlashish odati ko'zga tashlanadi. Aslida esa, tovush balandligi o'zgarishi kuy sur'atiga ta'sir qilmasligi kerak. Endi tovush balandligi o'zgarishini birma-bir ko'rib chiqsak: *asta-sekin, bir tekisda, silliq* tovush almashinuvi, ya'ni tovushning tekis ko'tarilishi va tekis pasayishi deyarli

³V.Круглов, “Школа игры на домре” М., 2003.

barcha musiqiy asarlarda uchraydi. Bu tovushning ifodaviyligini tashkil qiluvchi omillardan biri hisoblanib, tovush o'ng qo'l bilan mizrob(mediator)ni boshqarish orqali amalga oshiriladi. Bunda mizrob bilan torga zarb berish kuchini maqsadga muvofiq holda tanlay bilish, mizrobning qaysi qismi bilan torga tegish, o'ng qo'l bosh va ko'rsatkich barmog'ining qo'yilishi, shuningdek, o'ng qo'l amplitudasi masofasini to'g'ri tanlash kabi tushuncha va ko'nikmalarni o'zlashtirish talab etiladi. Shu bilan birga chap qo'l barmoqlarining dastani, bosilgan pardani "sezishi", qanday kuch bilan uni bosishi, bir so'z bilan aytganda tovushni pardadan "sug'urib olishi" zarur.

Ayniqsa *piano* chalganda shunday ehtiyotkorlik, aniqlik va bosim bilan chalish kerakki, unda tovush tembrini yo'qotmagan holda jaranglashi kerak, bunday tovush katta auditoriyalarda ham bemalol eshitiladi. Shu o'rinda asta-sekinlik bilan tovushni *fortissimogacha* ko'tarishdan oldin tovushning o'sishini yaqqol ko'rsatib berish uchun tovush pasaytirilsada, uning kuchini, aniqligini, ayniqsa tembrni aniq saqlab turilishini ta'minlash asosiy omil hisoblanadi. Buning uchun quyidagicha mashqni gammalar ijrosida qo'llash mumkin.

p — *mp* — *p* — *mf* — *mp* — *f* — *mf* — *ff* —

Qarama-qarshi tovush almashinuvi bunday o'zgaruvchanlik qadimiy Yevropa kompozitorlari asarlarida ko'p uchraydi, qaysiki kuchli *fortedan* keyin takror go'yo "aks-sado"dek *pianoda* qaytariladi. Bunda *piano* aniq, tiniq, yorqin bo'lishi lozim. Ko'pincha bir holatdan ikkinchisiga (f-p, p-f)o'tishda kichik nafas(sezura) talab etiladi. Bunda mizrob bo'shamaydi, amplituda va bosim, chap qo'lning dastaga bosilishi o'zgarmaydi faqat mizrobning torga tegishi o'zgaradi.

Bosqichma-bosqich tovush almashinuvi, odatda, variatsiyalarda yoki avj(kulminatsiya)ga tayyorlab berishda qo'llaniladi. Masalan, tovush pog'onama-pog'ona ko'tarilib boradi: *p* — *mp*, *mp* — *mf*, *mf* — *f*, *f* — *ff*

Bunday ko'nikmalarni o'zlashtirish uchun xohlagan ikki oktavali gammani shunday holatda mashq qilish mumkin:

The image shows two staves of musical notation in D major (one sharp). The first staff contains a sequence of notes: D4 (pp), E4 (p), F#4 (mf), G4 (f), A4 (ff), B4 (f), C5 (mf), D5 (p), E5 (pp), F#5 (p), G5 (mf), A5 (f), B5 (ff), C6 (f), D6 (mf). The second staff continues the sequence: E6 (p), F#6 (pp), G6 (p), A6 (mf), B6 (f), C7 (ff), D7 (f), E7 (mf), F#7 (p), G7 (pp), A7 (p), B7 (mf), C8 (f), D8 (ff). The notes are marked with their respective dynamic levels.

Yana shuni ta'kidlash lozimki, tovush balandligining o'zgarishi tovush rangini o'zgartirishi mumkin. Bunday usul katta-katta dinamik bo'laklarni tayyorlashda qo'l keladi. Shuningdek, tovush balandligi ma'lum holat xarakterini beradi. Uni shartli ravishda quyidagicha ta'riflash mumkin.

Piano –xotirjamlik, hayolot.

Mezzo forte –ishonch, erkinlik.

Forte –kuch, shaxdamlik, botirlik.

Fortissimo – muayyan kuchlanish, dod solish kabi, qichqirish, nafrat v.h.

Savollar:

- 1) Dinamikaning qanday turlarini bilasiz?
- 2) Tovush balandligini boshqarish ko'nikmasini takomillashtirish uchun qanday mashqlar qilish mumkin?
- 3) Qarama-qarshi tovush almashinuvi qanday asarlarda ko'p uchraydi?
- 4) Ijroda dinamik tuzlarni aniq talqin qilish uchun nimalarga e'tibor berish kerak?

Mustaqil mashg'ulot uchun topshiriqlar:

- 1) Musiqiy asarning badiiy jihatdan to'laqonli jaranglashida dinamikaning ahamiyati haqida gapirib bering.
- 2) Dinamikani chuqurroq o'zlashtirish uchun mavzuda berilgan mashqlarni mustaqil bajaring.
- 3) "Piano" va "forte" dinamikasini alohida mashq qiling.
- 4) Dinamikani yaxshi o'zlashtirish uchun o'ng qo'lingiz holati va mizrobni ushlab holatini doimo nazorat qiling.

Tayanch iboralar: dinamika, kreschendo, diminuendo, tovush almashinuvi.

12-DARS: QASHQAR RUBOBI TOVUSH IMKONIYATLARI. TOVUSH HOSIL QILISH VA UNI BOSHQARISH. P.I.CHAYKOVSKIY "KUZ QO'SHIG'I"

Ushbu darsda P. Chaykovskiyning "Kuz qo'shig'i" asari misolida Qashqar rubobi tovush imkoniyatlari va tovush hosil qilish, boshqarish ko'nikmalarini o'rganamiz. Asar mayin, kuychan, o'ta g'amgin xarakterda bo'lganligi bois qashqar rubob ijrosida ushbu cholg'uning tovush imkoniyatlaridan kelib chiqib, o'ziga xos ijro uslublari tanlanadi.

1. O'tgan darslarda o'zlashtirilgan Q.Komilovning "Fantaziya" asarini fortepiano jo'rligida takrorlang. Ansambl va dinamik belgilarga e'tibor bering.

2. Konservatoriyada xalq cholg'ularida ijrochilik yo'nalishida o'zbek musiqasi bilan birga jahon kompozitorlari asarlari namulari ham o'rgatib borilishi ma'lum. O'quv dasturidan I.S.Bax, L.Betxoven, V.Motsart, E.Grig, A.Dvorjak, K.Sen-Sans, P.Sarasate, J.Bize, F.List, A.Vivaldi, M.Oginski, P.Chaykovskiy, G.Sviridov kabi o'nlab jahon kompozitorlari asarlari o'rin olgan. Ushbu ijro darsda ijro dasturida belgilangan jahon kompozitorlari asarlari turkumidan rus kompozitori P.I.Chaykovskiyning "Kuz qo'shig'i" asarini o'rganishga kirishamiz.

Endi muallif haqida qisqacha ma'lumotlarga to'xtalib o'tsak. Ulug' rus kompozitori P. Chaykovskiy musiqasining eng asosiy xususiyatlaridan biri uning vokal asarlariga ham, cholg'u asarlariga ham birdek xos bo'lgan, xalq qo'shiqlari hamda shahar romansi ohanglari bilan yaqindan bog'liqlikdagi mislsiz go'zal kuychanligidir. P.I.Chaykovskiy 1840-yil 25 aprelda uncha katta bo'lmagan

Votkinsk ishchi qishlog'ida tug'ilgan. 1859-1865-yillarda P.I.Chaykovskiy Peterburg konservatoriyasida o'qiydi. 1866 yil yanvarida u N.G.Rubinshteynning taklifini qabul qilib, konservatoriyada dars berish uchun Moskvaga ko'chib o'tadi.

1877-yilgacha kompozitor "Sarkarda"("Voevoda"), "Undina", "Askar" ("Oprichnik"), ("Temirchi Vakula")"Kuznets Vakula" operalari, uchta simfoniya, "Oqqush ko'li" baleti, Bir qismli simfonik asarlar "Yevgeniy Onegin" va To'rtinchi simfoniya ham Moskvada nashr etildi.

Ijodiy erkinlikning boshlanishi ko'plab yangi asarlar yaratilishiga sabab bo'ladi. Bular "Orlean qizi"("Orleanskaya deva") va "Mazepa" operalari, torli orkestr uchun "Italyancha kaprichchio" serenada, "1812-yil" Tantanali uvertyurasi, fortepiano uchun katta sonata, "Bolalar albomi", skripka va orkestr uchun konsert, ajoyib badiiy asar "Avliyo Ioann Zlatouts liturgiyasi", "Buyuk san'atkor xotirasida", shuningdek, 100 dan ortiq romanslar yaratdi.

Opera va simfonik dirijyor sifatida Chaykovskiy Rossiya, Germaniya, Chexiya, Fransiya, Angliya, Amerikaning turli shaharlaridagi konsertlarda chiqadi. Jahon musiqa san'atini rivojlantirishdagi xizmatlarini inobatga olgan holda unga 1893-yilda Kembrij universitetining faxrli doktori darajasi berildi.

1880-yillar ikkinchi yarmi 1890-yillar boshlarida P. I. Chaykovskiy "Charodeyka", "Pikovaya dama" va "Iolanta" operalari, "Uyqudagi go'zal" va "Shelkunchik" baletlari, "Manfred" simfoniyasi, "Florensiya esdaliklari" torli seksteti, Beshinchi va Oltinchi simfoniya, shuningdek, boshqa asarlarni yaratdi. Kompozitorning ijodiy bisotidan cholg'u musiqasi ham keng o'rin egallagan bo'lib, ular bugun jahonning eng yorqin cholg'u asarlari sifatida konsert dasturlaridan mustahkam o'rin olgan.

Kompozitorning so'ngi asari – Oltinchi ("Patetik") simfoniyasi – jahon musiqasidagi eng fojiviy asarlardan biri bo'lib, inson hayoti va o'limi mohiyatining murakkab falsafiy muammosini ochib berishdan boshlangan.

1893 yil 16 oktyabrda P.I.Chaykovskiy o'limidan 9 kun oldin Peterburg shahrida Oltinchi simfoniyaning birinchi marta ijro etilishiga dirijyorlik qildi.

3. P.Chaykovskiy fortepiano uchun "Yil fasllari" ("Времена года") deb nomlangan pyesalar turkumini yaratgan. Shu turkumdan joy olgan "Kuz qo'shig'i" ("Осенняя песня") yoki "Oktyabr" pyesasi skripka cholg'usi uchun ham moslashtirilgan bo'lib, bugungi kunda bu asar ko'plab cholg'ular ijro dasturidan mustahkam o'rin olgan. Xuddi shunday bizning o'quv dasturimizga ham kiritilgan ushbu asar qashqar rubobda asosan tremolo shtrixini takomillashtirish va jahon musiqasi durdonalari namunalarini o'rganish maqsadida tanlangan.

Asar oddiy uch qism A-V-A shaklida yozilgan. Birinchi qism, ya'ni, davriya 16 taktdan iborat bo'lib, sol major tonalligida 4/4 o'lchovida **Andante doloroso e molto contabile** (shoshilmay, g'amgin, juda kuychan) sur'atida boshlanadi. Haqiqatan kuy ohangi juda g'amgin va kuychan, aynan kuz faslidagi hissiyotlarni ifodalagandek xususiyatga ega. Inson xotiralari va sog'inch kabi kayfiyat bilan boshlanadi.

Kuz qo‘shig‘i

P.Chaykovskiy

Andante doloroso e molto cantabile

The image displays a musical score for the piece 'Kuz qo'shig'i' by P. Chaykovskiy. The score is written in G major and 3/4 time. It consists of two systems of music. The first system shows the vocal line and piano accompaniment. The second system features a more complex vocal line with triplets and dynamic markings like 'poco cresc.' and 'dim.'

5 taktda *poco crescendo* dinamikasi asar xarakterini kuchaytirishga xizmat qiladi va hayajonni yanada junbushga keltirib 8 taktda asta-sekin pasayadi. Ushbu jumlaning qashqar rubobida ifodali ijro etish, asar xarakterini ochib berish uchun, mayin tremolo va uni sezilmaydigan darajada tepaga uzish ko‘nikmasini o‘zlashtirish zarur. Asarda barcha belgilar aniq qo‘yilgan bo‘lib, unga to‘liq amal qilish talab etiladi. Shu o‘rinda aynan “portamento”, “aksent”, “liga”, “legato” qo‘yilgan notalarni talab etilgandek ijro etish maqsadga muvofiq. Masalan, bir taktni o‘zida, ya’ni 5-6- taktlarda ham liga, portamento, aksent va kreshendo belgilari berilgan.

Bularning barchasini aniq ijro etish uchun sozandadan yuqori ijro mahorati talab qilinadi. Shuning uchun har bir takt ustida ustoz bilan, hamda fortepiano jo‘rligida alohida ishlang. Aksentlar qo‘pol bo‘lmasdigi, balki aynan boshlangan tovush asosida o‘ta nozik urg‘u bilan ijro etiladi. Ligalarni bajarish uchun tremoloni tepaga uzish shunday bo‘lishi kerakki, unda o‘ng qo‘l tepaga uzulsada, tovushda uzulish sezilmasligi darkor. Bu ko‘nikmalar bir muncha murakkab bo‘lib, uni uni sinfda ustozingiz bilan, mustaqil ravishda esa turli qo‘shimcha mashqlar yordamida o‘zlashtiriladi.

9-taktdan kuy bir oktava pastda jaranglashi sababli, qashqar rubobining II va III torlarida ijro etiladi.

The image shows a musical score snippet for 'Kuz qo'shig'i'. It features a melodic line in G major, starting with a piano (p) dynamic marking.

Bu torlarda *r*- dinamikasida chalish, o'ng qo'l texnikasini yuqori darajada rivojlantirishni talab etadi. Shuning uchun II va III torlarida tremolo mashqini bajaring. 13 taktdan boshlab yana hayajon bir oz kuchayadi va 15 taktning yarmi va 16 taktlarda asta-sekin pasayib davriya o'z nihoyasiga etadi.



Bu asarda *pizz f* – ya'ni asta-sekin tovush kuchaytirilishi asar xarakterini ochib berish uchun xizmat qiladi. Ayniqsa 15-16 taktlardagi liga va aksentlar, hamda diminuendo xo'rsinish, iztirob hissiyotlarini ifoda etadi. Asarni to'laqonli ijro etish, uni obrazli ifodalash uchun talaba uni to'liq his qila olish muhim omillardan hisoblanadi. Yuqorida aytib o'tilgan ijrochilik jihatlarini amalga oshirish uchun aynan asarni idroklay olish, uni his qila bilish zarur. Aks holda kuy quruq va tushunarsiz jaranglashi mumkin.

Savollar:

- 1) P.Chaykovskiy nechanchi yillarda yashab ijod etgan?
- 2) "Kuz qo'shig'i" asari qaysi turkumga kirgan?
- 3) **Andante doloroso e molto cantabile** nima ma'noni bildiradi?
- 4) Tremolo shtrixi yana qanday uzilishi mumkin?

Mustaqil mashg'ulot uchun topshiriqlar:

- 1) P.Chaykovskiy ijodi va hayotini manbalarda o'rganib to'liq o'zlashtiring.
- 2) Asarning fortepiano ijrosidagi yozuvini fonotekadan olib tinglang.
- 3) Qashqar rubobining II va III torlarida alohida mashqlarni bajaring.
- 4) Mashqlarni asosan *r* dinamikasida bajarishga harakat qiling.


Tayanch iboralar: turkum, dinamika, doloroso, cantabile.

13-14-DARSLAR: AMALIY IJROCHILIK MASHG'ULOTLARI


1. O'tgan darsda o'zlashtirilgan mavzu yuzasida kompozitor ijodi haqida ustozingizga gapirib bering. Oldingi darslarda o'rganilgan 16 taktning fortepiano jo'rligida yoddan ijro etib bering.

2. So'ngra mashqlar ijrosini amalga oshiring.






3. Endi kuyning qolgan qismi V, ya'ni o'rtaliq qismini o'rganishga kirishamiz. 17 taktdan boshlab *r* dinamikasida 2 taktli jumlar mavjud.



Bu kichik qism 20 taktdagi kreshendo va kuy motivining yuqorilab borishi hisobiga hayajonni yanada kuchaytirib, *do* notasidagi fermatoga *f* dinamikasida yetib keladi. 22 taktdan kuyning eng yuqori avji boshlanadi. Har taktda bir pog'onadan pastlab boruvchi ohang kishi ruhiyatida qandaydir ichki hayajon va oxiri sokinlik uyg'otuvchi kayfiyat beradi. Bunda so'nggi ikki taktli fortepiano partiyasi o'rtaliq, ya'ni II qismni yakunlab, bevosita reprizaga olib o'tadi.



Bu qismni o'rganishda oldingi dasrlarda bo'lganidek tremolo shtrixini yaxshi o'zlashtirilishi ko'zlangan natijaga olib keladi. Buning uchun o'ng qo'l texnikasi ustida alohida mashq qiling. Ustozingiz bilan birga tovush hosil qilish va uni boshqarish ko'nikmalari ustida muntazam ishlab borish kerak. O'zlashtirilgan II qismni to'liq holda fortepiano jo'rligida chalib ko'ring, so'ngra birinchi qism bilan bog'langan holda nota bilan chalib chiqing. Ijro paytida dinamikaga, ayniqsa *r* dinamikasida hamda fortepiano partiyasini eshitib chalishga harakat qiling. Berilgan applikaturaga amal qiling.

Savollar:

- 1) P.Chaykovskiyning yana qanday asarlarini bilasiz?
- 2) Uch qismli oddiy shaklning qismlari qanday nomlanadi?
- 3) Tovush kuchini boshqarish deganda nimani tushunasiz?
- 4) Dinamik ijroni o'zlashtirishda yana qanday mashqlardan foydalanasiz?

Mustaqil mashg'ulot uchun topshiriqlar:

- 1) P.Chaykovskiyning fortepiano ijodi va operalari haqida ma'lumot to'plang.
- 2) Dinamika ustida maxsus mashqlar orqali alohida shug'ullaning.
- 3) Asarning simfonik yoki kamer orkestri ijrosi yozuvlarini fonotekada tinglang.
- 4) P.Chaykovskiy asarlariga xos bo'lgan ijro yo'nalishini aniqlashga harakat qiling.

Tayanch iboralar: tremolo, fermato, krescendo, ijro yo'nalishi.

15-16-DARSLAR: AMALIY IJROCHILIK MASHG'ULOTLARI.

1. Avvalo qo'llarni quyidagi mashqlar orqali qizdirib olamiz. Tremolo mayinligi va uni tepaga uzish ustida ishlang. Uchinchi va to'rtinchi mashqlarda tremoloni tepaga uzganda aksent bo'lmasligiga va mizrobning boshqa torlarga tegib ketmasligiga harakat qiling.

The image contains four musical exercises for tremolo technique on a piano. The first two exercises show sustained notes with a tremolo effect indicated by a wavy line underneath. The third and fourth exercises show a sequence of eighth notes with a tremolo effect indicated by a wavy line underneath.

2. P.Chaykovskiyning "Kuz qo'shig'i" asarining A-B qismini fortepiano jo'rligida chalib chiqing. Tremolo mayinligiga va jumlar aniqligiga e'tibor bering. Tovush dinamikasini nazorat qiling.

3. Navbatdagi darslarda P.Chaykovskiyning "Kuz qo'shig'i" asarining so'nggi reprizasini oldingi qismlarga bog'lang.

Repriza I qismning to'liq takrorlanishi va kodadan iborat. Asar yakuniga xos mungli ohanglarda 50 taktdan 57 taktgacha davom etib juda past tovushlarda *morendo*, ya'ni uchta *ppp* dinamikasigacha pastlab yakun topadi.

Kodaning dastlabki ikki taktli jumlasini takrorlanib, eski xotiralarning dam-badam yodga tushishidek, bir oz mahzun, shu bilan birga umid uchqunlagandek va oxir oqibat xotirjamlik baxsh etuvchi kayfiyat uygʻotadi. P.Chaykovskiyning “Kuz qoʻshigʻi” asarini talabaga uning qiziqishlari yoki hissiyotlari orqali obrazli tushuntirib berish, asarni toʻliq idrok etishga, oʻzining his-tuygʻulari orqali ijro etishiga zamin yaratadi.

Bunday xarakterdagi asarlarni oʻrganish xalq cholgʻularida ijrochilik yoʻnalashida tahsil olayotgan talabaning ijro mahoratini, musiqiy tafakkurini takomillashtiribgina qolmay, oʻzining his-tuygʻulari orqali musiqani his qila olish koʻnikmalarini rivojlantiradi.

Savollar:

- 1) *Morendo* atamasi qanday maʼnoni bildiradi?
- 2) “Kuz qoʻshigʻi” xarakterida yana qanday asarlarni bilasiz?
- 3) Agogika deganda nimani tushunasiz?
- 4) Qashqar rubobida jahon klassik kompozitorlari asarlarini ijro etish qanday ahamiyatga ega?

Mustaqil mashgʻulot uchun topshiriqlar:

- 1) Asarni qismlarini bir biriga bogʻlang va oxirigacha yodlang.
- 2) Tremolo shtrixi ustida ishlashni davom ettiring.
- 3) Asarning dinamikasiga alohida eʼtibor bering
- 4) Asarni toʻliq tahlil qilib bering.

Tayanch iboralar: repriza, morendo, tremolo, agogika.

17-18-DARSLAR: 1-SEMESTR JORIY NAZORATI UCHUN IJRO DASTURINI TAYYORLASH VA SAHNADA TOPSHIRISH

1. Mashqlar:

The image shows four staves of musical notation for guitar exercises in G major. The first staff is a melodic line with triplets. The second and third staves are rhythmic patterns with fret numbers above the notes. The fourth staff is a melodic line with a slur and the instruction 'espress.' below it.

2. Joriy nazorati uchun tayyorgarlik ko‘rish. Asarlarni to‘liq yodlangan va o‘zlashtirilgan barcha bilim va ko‘nikmalarni qo‘llagan holda ijro etish lozim. Ushbu uchta dars davomida O‘zbekiston kompozitori Q.Komilovning “Fantaziya”si ijrosiga xos bo‘lgan shtrixlar alohida mashq qilib boriladi. Asarning bir butun, yaxlit holda jaranglashi uchun uni jo‘rnavor bilan ko‘p ijro etish talab etiladi. Asardagi tez sur‘atli bo‘laklarda pastga va tepaga beriladigan zarblarning tekis chiqishi muhim. Talabalarda aynan ana shu kamchilik yaqqol ko‘zga tashlanganligi bois, bu ko‘nikmani mustahkamlash ustida muntazam ish olib borilishi talab etiladi.

Jahon kompozitorlar ijodiga mansub asarlardan P.Chaykovskiyning ”Kuz qo‘shig‘i” asari jo‘rnavor bilan birga bir necha marotaba ijro etiladi. Bunda asosan ansambl ijrosi, dinamika, sur‘at(temp), tovush sifati va artikulyatsiya talablari ustida ishlanadi. Shu bilan birga murakkab musiqiy jumla va bo‘laklar qayta-qayta ishlanib sayqallanadi. Ushbu asarga xos bo‘lgan tremolo shtrixidagi ijro va uning o‘ta mayinligi ustida alohida ishlanadi. Tremoloni jumla oxirida tepaga uzish va asarni agogika talablariga xos uslubda ijro etish ustida ishlanadi. Bunda talaba asosan o‘ng qo‘l texnikasi ustida jiddiy shug‘ullanishi lozim.

O‘zbek xalq kuylaridan “Gulbahor va Tanovor” asarining har ikki qismi mustahkamlanadi. Bunda asosan chap qo‘l ko‘nikmalarining to‘liq o‘zlashtirilishi zarur. Ya’ni, tovushlarning sadolanish davomiyligi, musiqiy bezaklarning aniqligi, ayniqsa “kashish” ijrosida uning miqdori va sadosi ustida alohida ishlanadi. Doirachi va jo‘rnavor bilan ijro mustakamlanadi. Usulni his qilish, undan chiqib ketmaslik uchun ijrochi o‘zi usul berib asarni ovoz bilan kuylash orqali usul muammolari ustida ishlanadi. Asar sur‘ati (temp), dinamika, hamda tovush sifati

ustida alohida shugʻullaniladi. Shu bilan birga tremolo shtrixi ustida alohida ishlanadi. Imtihonda ijro etishning oʻziga xos tomonlari, yaʼni asarni xuddi konsertda tinglovchilar oldida ijro etgandek ijro eta olish koʻnikmalari ustida ishlanadi. Bunda talabaning ijro madaniyati bilan birga sahna madaniyatiga, uning kiyinishidan tortib oʻzini tutishi, imtihonga boʻlgan jiddiy munosabatni shakllantirishga alohida urgʻu berilishi shart.

Oʻtilgan mavzular boʻyicha tavsiya etiladigan adabiyotlar:

1. O.Nazarov “Qashqar rubobida oʻqitish uslubiyoti” T.,2008
2. A.Jabborov “Oʻzbekiston bastakorlari va musiqashunoslari”...
3. R. Qodirov “Muzikalnaya pedagogika” “Musiqqa” T., 2009
4. V. Vaxromeev “Elementarnaya teoriya muziki” “Muzgiz” M., 1975.
5. F. Karomatov “Uzbekskaya intsrumentalnaya muzika” “Muzika” M., 1987
6. N.Mironov “Muzika uzbekov” Oʻzbekiston davlat nashriyoti, Samarqand, 1929
7. V.Y.Suzukey. “Muzikalnoe nasledie potomkov drevnix kochevnikov sentralnoy Azii (obshee i osobennoe)”. Materiali mejdunarodnoy konferentsii “Traditsionnaya muzika kazaxov i sentralnoy Azii” Almati., 2013
8. V. Kruglov “Shkola igri na domre” M., 2003
9. “Biblioteka domritsa”., Pyesi kompozitorov-klassikov. “Muzika” M.,1965
10. N. Isakulova va b. “Oʻquv jarayonida taʼlim texnologiyalaridan foydalanish uslubiyati” “Fan”., T., 2013
11. T. Kruntayeva, N. Molokova «Slovar inostrannix muzikalnix terminov». L. «Muzika». 1987

19-20-DARSLAR: OʻZBEKISTON BASTAKORLAR IJODIYOTI. M.MURTAZOYEV “TAMANNO”

Bugun konservatoriyada xalq cholgʻulari yoʻnalishi boʻyicha tahsil olayotgan talabalar nafaqat bastakorlarimiz ijod namunalarini ijro etishlari, balki ularning tarixini ham chuqur oʻrganmoqliklari zarur. Talabalar bu asarlarni oʻrganish orqali milliy musiqalarimizning asoslaridan birini oʻzlashtirgan boʻladilar.

1. Birinchi semestrning oʻninchi haftasi mashgʻulotlarini boshlaymiz. Ijro dasturida belgilangan Oʻzbekiston bastakorlar ijodiyoti namunalaridan M.Murtazoyevning “Tamanno” ashulasini oʻrganishga kirishamiz. Dastavval Oʻzbekiston bastakorlik ijodiyoti, M.Murtazoyevning ijod yoʻli va ashula matni bilan tanishamiz.

2. Zamonaviy musiqashunos olimlarimizdan Oʻzbekiston bastakorlik ijodiyoti borasida koʻplab ilmiy izlanishlar olib borgan I.Rajabov, F.Karomatov, T.Gʻofurbekov, O.Matyoqubov, R.Yunusov, O.Ibrohimov, B.Matyoqubov, S.Begmatov kabi mualliflar ishlarida XX asr bastakorlik sanʼati va va bastakorlari xususida atorflicha maʼlumotlar berilgan. XX asr bastakorlik ijodi ham oʻzining

yorqinligi, zamonaviyligi, mukammalligi va o‘zbek milliy musiqa an‘analarini o‘zida to‘liq aks ettirganligi bilan ajralib turadi.

Darhaqiqat, XX asrda Hoji Abdulaziz Abdurasulov (1852 - 1936) tamal toshini o‘rnatgan Samarqand (N. Hasanov, D. Zokirov, Sh. Akromov), To‘xtasin Jalilov (1894 – 1966) asos solgan vodiy (M. Murtazoyev, G‘. Toshmatov, K. Jabborov, F. Mamadaliyev, G‘. Ro‘ziboyev, O. G‘atamov, A. Ismoilov), Yunus Rajabiy (1897 – 1976) boshliq Toshkent (A. Ikromov, F. Sodiqov, S. Kalonov, N. Qulabdullayev), shuningdek Xorazm (K. Otaniyozov, O. Xudoyshukurov, O. Otajonov), Buxoro (A. Boboxonov, O. Atayev)⁴. Bastakorlik maktablari juda salmoqli ijod qilib o‘zbek xalqi musiqa xazinasiga “oltin meros” qoldirib ketdilar.

3. O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan madaniyat xodimi, O‘zbekiston Bastakorlar uyushmasi a‘zosi, sozanda, xonanda va bastakor Muxtorjon Murtazoyev zabardast san‘atkorlarimizdan biri. Bastakorning turli mavzularda, klassik va zamondosh shoirlarning she‘rlariga bastalagan rang-barang, jozibali qo‘shiq va ashulalari, sahna uchun yozgan musiqasi va mohir ijrochilik faoliyati XX asr o‘zbek musiqasi tarixida o‘chmas iz qoldirdi.

Muxtorjon Murtazoyev Qo‘qon shahrida 1909 yilda tug‘ildi. Tabiat unga ajoyib ovoz bergan ekan, kunlarning birida taniqli Maxram hofizga duch kelib qoladi. Uning jaranglagan ovozini eshitgan ustoz o‘spirinni yangi tashkil etilgan internatga joylashtirib, undan xabar olib turib, muruvvat ko‘rsatdi. Muxtorjon maktabda havaskorlik to‘garagida g‘ijjak va dutor chalishni o‘rgandi, yil sayin barcha qolgan cholg‘ularni ham o‘zlashtirdi. Ochiq konsertlarda qo‘shiq aytib yurdi. 1928 yili Qudash tumani (hozirgi O‘zbekiston tumani) xalq maorifi bo‘limi huzurida tashkil qilgan ansambl g‘ijjakchisi Qodirjon Hamdamov va boshqa ishtirokchilar yosh Muxtorjonni o‘z saflariga olishdi. Tez orada u xonanda va sozanda sifatida ommaga tanildi, hurmat-e‘tiborga sazovor bo‘ldi. Bir oz vaqt o‘tgach, uni Qo‘qon shahar temir yo‘l teatriga musiqa rahbari vazifasiga taklif etishdi va 1933 yilga qadar u erda ishladi. So‘ngra Hamza nomidagi Qo‘qon shahar musiqali drama teatriga ishga taklif qilishadi. Ushbu teatr uning uchun haqiqiy ijod maktabi bo‘ldi. Bu dargohda ajoyib san‘atkorlar bilan birga ishladi, yaqin muloqotda bo‘ldi. Mahalliy shoirlarning so‘zlariga 1936-1940 yillarda «Bo‘lsin omon», «Bir ishva bilan», «Ey, go‘zal», «Obod o‘lkam», «Jon jo‘rajonim», «Yigit qo‘shig‘i», «Hur diyor», «Umring ziyoda bo‘lsin», «Kanalim», «Vatanga muhabbat» kabi qo‘shiq va ashulalarini yaratdi.

M. Murtazoyev Ikkinchi jahon urushi yillarida tinimsiz ijodiy izlanishlar bilan shug‘ullandi. Uning jangovar «Vatanim», «Tor-mor aylay bugun», «Maktubingizni oldim», «Vafodorlar», «Malohat» va boshqa qo‘shiqlari jangchilarni va front ichkarisidagi azamat mehnatkashlarni mardlikka, vafodorlikka va sadoqatlikka undadi. Urush yillarida u Toshkent viloyati Yangiyo‘l musiqali teatrida Yunus Rajabiy rahbarligida ishlab, xalq musiqa xazinasini yanada chuqurroq tanishish sharafiga muyassar bo‘ldi. U 1945-1957 yillarda Muqimiy nomidagi o‘zbek musiqali drama teatrida konsertmeyster, respublika radiosida

⁴ T. G‘ofurbekov “Musiqaning borlig‘im”. T., 2015.

ashula muallimi vazifalarida ishladi va yana Hamza nomidagi Qo‘qon shahar musiqali drama teatrida musiqa rahbari, Qo‘qon shahar xalq teatri huzuridagi maqomchilar ansamblining badiiy rahbari lavozimlarida faoliyat olib borgan.

Ustoz san’atkor M.Murtazoyev ijrochilik va rahbarlik ishlari bilan bir qatorda yillar davomida ijod qilib, turli mavzularda, klassik va zamondosh shoirlarning she’rlariga rang-barang, shirali qo‘shiq va ashulalarni yaratdi. Jumladan, “O‘rtama” va “Gulzor makon” (Navoiy g‘azali); “Bizni tashlab” (Miskin g‘azali); “Jonim ila jonim” (Fuzuliy so‘zi); “Aylading, qo‘yding” (Muqimiy g‘azali); “Bir ishva bilan” (S.Abdullo so‘zi); “Qasamyod”, “Ey, ko‘ngil”, “Bulbullaring”, “Tasadduqman”, “Jafo ham qilmading” (Chustiy so‘zi); “Jonim erursan” (Kamtar so‘zi); “Baxt tole to abad ul dilbarim qoshindadir”, “Barnoligingizdan”, “Vafodorlar”, “Sunbullaringdan”, “O‘rgilay”, “O‘n sakkiz yoshindadir” (Charxiy so‘zi) va boshqa 100 ga yaqin qo‘shiqlar kuylab, xonandalarning repertuaridan joy oldilar. Xususan, mashhur xalq hofizlari O.Imomxo‘jaev, K.Mo‘minov, A.Oxunovlarning repertuarlaridan ham joy olgan.

M.Murtazoyev “Do‘stlar” (Uyg‘un pyesasi); “Qumrining murodi” (J.Mashrabiyy pyesasi); bastakor va dirijyor Dehqonboy Jalilov bilan hamkorlikda “Ishq-obod” (S.Abdullo pyesasi), “Xolisxon” (Hamza pyesasi) sahna asarlariga musiqa bastaladi. Ajoyib inson, katta iste‘dod sohibi, bastakor, xonanda va sozanda Muxtorjon Murtazoyev o‘z san‘ati bilan xalq dilida va musiqa san‘atimiz tarixida chuqur iz qoldirdi.

4. “Tamanno” ashulasi shoir Kamtar (Otaboyev) she‘riga bastalangan. She‘r matnini yod oling. Ashulani magnit yozuvlaridan tinglab, she‘r va ohang uyg‘unligiga e‘tibor berib, asarni tahlil qiling.

Tamanno

Tamanno ey yuzing guldek jamoling,
Tutib maskan hayolimda hayoling.
Ustuni ko‘nglimu qaddi niholing,
Bag‘ishlar jonima rohat maqoming.
Etib men umrila iqroga ishqing,
Belimg‘a bog‘labon zinnora ishqing.
Vujudim o‘rtamoqda nora ishqing,
Bu dog‘imdan nishondur qora xoling.
Parilar ehtiromidan kecharman,
Necha ehson maqomidan kecharman.
Yana jamshidni jomidan kecharman,
Etishsa gar labingda lali boling.
Ko‘zim har lahza rohi intizoring,
Ko‘ngul zulfi siyoxing intizoring.
Erur Kamtar nigohing intizoring,
Umidim doimo janon visoling.

Savollar:

- 1) Bastakorlik ijodiga bag'ishlangan qanday ilmiy ishlarni bilasiz?
- 2) O'zbek musiqasida bastakorlarning ijodi qanday ahamiyatga ega?
- 3) Bastakorning yana qanday mashhur ashulalarini bilasiz?
- 4) O'zbekistonda qanday bastakorlik maktablarini bilasiz?

Mustaqil mashg'ulot uchun topshiriqlar:

- 1) Bastakorlik ijodi tarixi haqidagi yozma ma'lumotlarni o'rganing.
- 2) Musiqashunos olimlarning bastakorlar ijodiyotiga bag'ishlangan asarlarini o'rganing va uning ahamiyati haqida ustozingizga gapirib bering.
- 3) M.Murtazoyevning ijodi haqida yozma ish tayyorlang.
- 4) Bastakorlik maktablari yaratgan asarlarni tinglang va ularni taqqoslang.

Tayanch iboralar: bastakorlik ijodiyoti, dastakorlik maktablari, ashula, she'r matni.

21-23-DARSLAR: AMALIY IJROCHILIK MASHG'ULOTLARI

1. Mashqlar. Ushbu darsda bajaradigan mashqlar milliy musiqa bezaklarini o'zlashtirishga mo'ljallangan. Ularni o'zlashtirishda albatta eshitib mashq qiling. Glissandolarni chorak, nimchorak, hatto undanda kichikroq miqdorda sadolantirish nafaqat chap yoki o'ng qo'l ijrosining, balki uni faqat eshitish orqaligina boshqariladigan murakkab ijro hisoblanadi.

Quyidagi mashqlarni ustoz bilan dars jarayonida o'zlashtiring.


2. M.Murtazoyevning "Tamanno" ashulasini notadan o'qing. 1-48 taktlarni o'rganing.

Dastlabki 8 takt fortepiano partiyasida berilgan bo'lib, ushbu kirish qismi magnit yozuvlarida orkestr yoki ansambl ijrosida jaranglaydi.

Moderato con moto




Sakkiz taktli jumlar 7-8 taktlar tonallikning turg'un tovushlarida usul bilan yakunlanadi. Har bir jumla she'r matnining bir misrasiga to'g'ri keladi.



Ta - man - no ey yu - zing gul - dek
ja - mo - - - ling

Qashqar rubobida ushbu asar o'ziga xos ijro shtrixida ijro etiladi. Agar ashula jumlasini 8 taktdan tashkil topgan bo'lsa, har ikki takt bir usulga to'g'ri keladi. Qashqar rubobi mizrob bilan chalinganligi unda bemalol usul berib chalish imkoniyatini yuzaga keltiradi. Shuning uchun asosiy ijro shtrixi ashulaning dastlabki ikki takti, ya'ni so'zning usul bilan uyg'unlashgan ohangi asosidan quyidagicha ijro etiladi.



Ushbu usul o'ng qo'lda "zarb-tremolo-zarb" ko'rinishida ijro etilsa, chap qo'l esa takt ichidagi notalarni mana shu formulaga sig'dirishi kerak bo'ladi. Ijroda mana shu jihatlarga alohida e'tibor qaratish lozim.

3. 49-70 taktlarni notadan o'qing va 1-48 taktlar bilan bog'lang.

Asar 49 taktda yana fortepiano partiyasi bilan davom etadi. Qashqar rubob partiyasida shtrixlar to'liqroq jaranglay boshlaydi. 59-60 taktlarga o'xshash jumalarda *fa* notasidan *do* notasiga o'ziga xos glissando, ya'ni *fa* notasi birinchi

barmoq bilan olinib, *do* notasiga olib o‘tiladi. 60 taktda *do-si-re-do* notalar tremolo shtrixida chalinadi. *Si* va *re* tovushlari bir qarashda forshlag ko‘rinishida, boshqa tomondan qaralsa, asosiy tovush – *do* atrofida uning sadolanishi davrida *si-re* notalari go‘yoki “paypaslab” o‘tiladi. Aynan mana shu ijro ashula ohangini va so‘z bo‘g‘inlarini to‘liq ifoda eta oladi. Ushbu ijro uslubini ustozingizdan o‘rganing. Chap va o‘ng qo‘llar mutanosibligiga e‘tibor bering.

4. 70-88 taktlarni o‘rganing va oldingi taktlar bilan bog‘lang.



Ushbu qism ashulaning eng yuqori avji bo‘lib, unda uchinchi oktava *mi* notasi ikki takt davomida cho‘zib turiladi. Qashqar rubob dastasining yuqori qismida sado(oberton)lar kamayishi oqibatida yuqori pardalarda tovushni jarangdor sadolantirib chalish imkoniyati pasayadi. Shu sababli, talabalar ijrosida bunday bo‘laklar quruq, sadosi “o‘chib qolgan” holatda ijro etiladi. Tovush sadosini saqlab qolish uchun chap qo‘l barmoqlari nihoyatda aniq, uchi bilan pardani to‘liq bosgan holda, barmoqlar almashish paytida sadoni o‘chirib qo‘ymasdan, pardadan pardaga o‘tishi zarur. Ayniqsa 77-78 taktlar, 83-84 taktlarda uchinchi oktava *fa-sol* notalari ijrosida yuqoridagi tavsiyalarga to‘liq amal qilish talab etiladi.

5. Ashulaning so‘nggi “repriza” qismini so‘z bo‘g‘inlariga mos ravishda shtrix tanlagan holda o‘rganing.



O‘zbek musiqasiga xos ravishda tuzilgan “Tamanno” ashulasi monoton ravishda rivojlanib, yana shu tartibda tugallanadi. Demak, asarning dastlabki qismi deyarli o‘zgarishsiz takrorlansada, ashula so‘zlari boshqa bo‘lganligi bois ijro shtrixlarida ayrim o‘zgarishlar yuz beradi. Bu birinchidan, ashulani to‘liq ifoda etishga xizmat qilsa, ikkinchidan, cholg‘u asari sifatida jozibali jaranglashiga zamin yaratadi. Shuni alohida ta’kidlash joizki, ijro etiladigan shtrixlarning xilma-xilligi kuyning lad tuzilmasiga putur yetkazmasligi, ya’ni me’yorni buzmagani holda tanlanishi zarur.

Asarning tugallanishi 4 takt fortepiano va 4 takt qashqar rubobi ijrosida yakunlanadi. Bu yerda ham yuqori pardalarda chalinganligi bois, tovush sadolarini saqlagan holda ijro etishga harakat qiling.

Savollar:

- 1) Ashulaning daromad qismi qaysi soʻz misralari bilan boshlanadi?
- 2) Shtrixlar tanlashda nimalarga eʼtibor berish kerak?
- 3) Avj pardalar nechanchi taktlarni oʻz ichiga oladi?
- 4) Milliy bezaklarni oʻzlashtirish uchun moʻljallangan mashqlar qanday oʻziga xosliklarga ega?

Mustaqil mashgʻulot uchun topshiriqlar:

- 1) Mashqlarni bajarishda oʻz ijroingizni nazorat qilishga harakat qiling.
- 2) Mustaqil ravishda asar tahlilini yozma ish koʻrinishida tayyorlab, topshiring.
- 3) Bastakorlar yaratgan asarlar haqida koʻproq maʼlumotlar toʻplang.
- 4) M.Murtazoyev “Bir ishva bilan”, “Fargʻona tong otguncha” kabi ashulalari bilan “Tamanno” ashulalarini taqqoslang.
- 5) Asarni fortepiano va doira joʻrligida yoddan tayyorlang.

Tayanch iboralar: daromad, avj, milliy bezaklar, molish.

24-25-DARSLAR: CHOLGʻU ASARLARINI TAHLIL QILISH USLUBIYOTI. M.OTAJONOV. QASHQAR RUBOB VA ORKESTR UCHUN “KONSERT”

Ushbu darsdan boshlab cholgʻu asarlarini tahlil qilish uslubiyoti bilan tanishib boramiz. Oʻzbekiston kompozitori Muhammadjon Otajonovning Qashqar rubob va orkestr uchun “Konsert” asarini shakl va ijro uslublari jihatidan tahlil qilib oʻrganishni boshlaymiz. Cholgʻu asarlarini tahlil qilish uslubiyoti asosan asarning shakli uning ijro uslublari va shtrixlarni tahlil qilishni oʻz ichiga oladi. Navbatdagi darslar davomida asarni shakli, ijro uslublari va ijro shtrixlarini bevosita amaliy mashgʻulotlar jarayonida tahlil qilib boramiz.

1. M.Murtazoyevning “Tamanno” kuyini fortepiano joʻrligida takrorlang. Ijroda ansambl va shtrixlarga eʼtibor bering.

2. Yirik shakl. Ijro dasturida belgilangan bu turkumdagi asar namunasi sifatida M.Otajonovning qashqar rubob va orkestr uchun “Konserti” tanlab olingan. Bu janrdagi asarlar “sonata shakli” deb ataladigan shaklda yaratiladi. **Sonata shakli** (Sonatnaya forma) – uch asosiy boʻlimdan iborat musiqa asarining tuzilishi. Bular *ekspozitsiya, rivojlov* va *reprizalardan* iborat boʻlib, asar mazmuniga koʻra kengayib maʼlum bir mavzuni ifoda qiladi. Bularga *koda* va baʼzan boshlangʻich qism qoʻshiladi. Sonataning ekspozitsiya qismi oʻz navbatida *bosh partiya* va *yordamchi partiyalarga* boʻlinadi. Bular ikki qarama-qarshi mavzu yoki mavzuli guruhlar turli tonnaliklarda keladi. Rivojlovda ekspozitsiya mavzusidagi ayrim ohanglar kengaytirilib, ishlov beriladi. Repriza – bosh va yordamchi partiya tonnaliklarini birlashtirib (yordamchi partiya tonnaligini bosh tonnalikka koʻchirish yoʻli bilan), ekspozitsiyani qaytaradi. Bular, (ayniqsa repriza) kompozitorning xohishi bilan oʻzgartirilishi mumkin. Sonata shakli drama yoki romanlardek badiiy ifoda vositalari, har xil mavzuda musiqa asarlari yaratish imkoniyatiga boy. Bu shaklda sonata, konsert, uvetyura, simfonik poema kabi yirik asarlar yoziladi. Rivojlovsiz sonata shakli ham uchraydi. Bunda ikki asosiy qism – ekspozitsiya va repriza boʻladi.

3. Asar muallifi kompozitor Muhammad Otajonov 1959 yil 16 sentyabrda Urganch shahrida tugʻilgan. Boshlangʻich musiqa savodini otasidan oʻrgangan Muhammad K.Otaniyozov nomidagi musiqa maktabida fortepiano boʻyicha dastlabki musiqa bilimlarini oʻzlashtirib, 1973 yili M.Xarratov nomidagi Urganch musiqa bilim yurtida fortepiano mutaxassisligidan taʼlim oladi.

1976–1977 oʻquv yilida M.Ashrafiy nomidagi Toshkent davlat konservatoriyasining tayyorlov boʻlimida, 1977-1982 yillarda asosiy bosqichda fortepiano fakultetida tahsil olgan. 1982 yilda konservatoriyaga ikkinchi marta kompozitorlik fakultetiga oʻqishga kiradi. M.Otajonov 1985 va 1987 yillarda oʻtkazilgan yosh kompozitorlar koʻrik-tanlovida ikkinchi darajali mukofotga sazovor boʻldi. 1989 yilda esa diplom ishi sifatida fortepiano va simfonik orkestr uchun uch qisimli konsertini oʻz ijrosida taqdim etdi.

Konservatoriyaning kompozitorlik fakultetini 1989 yil ikkinchi marta tamomlab, 1989 – 1996 yillarda A.Qodiriy nomidagi Toshkent davlat madaniyat institutining oʻzbek xalq cholgʻulari orkestri dirijyorligi kafedrasida joʻrnavor, oʻqituvchi, 1996 – 2000 yillarda Oʻzbekiston radiosi “Yoshlar” kanalida musiqa muharriri, 2000 – 2010 yillarda Oʻzbekiston davlat konservatoriyasida katta oʻqituvchi, dotsent, bastakorlik kafedراسi dekani lavozimlarida ishladi.

M.Otajonov turli janrlarda milliy asosda musiqiy asarlar yaratib, musiqa jamoatchiligini xushnud qilib kelmoqda. Chang va xalq cholgʻulari orkestri uchun uch qisimli “Konsert”, fortepiano va simfonik orkestr uchun ikkita Konsert, xalq cholgʻulari orkestri uchun uch qisimli syuita, fortepiano dueti, fortepiano va simfonik orkestr uchun uchta Konsert, qonun va orkestr uchun uch qisimli Konsert, kamer cholgʻu musiqasi shular jumlasidandir. Kompozitorning ijodidagi asosiy yetakchi obrazlar musiqa tilining xalqchil intonatsiyalar bilan boyitganligi tufayli

bu asarlar zamonaviy ruh bilan tinglovchi qalbini to'qinlantiradi va go'zallik olamiga chorlaydi.

M.Otajonov o'zbek xalqining sevimli musiqali drama va komediya janrlarida samarali ijod qilib "Chirog'imni kim yoqadi" (Y.Juchik pyesasi, Yugoslaviya, 1992y.) tragikomediyasini, "Har kimki vafo qilsa..." (H.Muhammad pyesasi, 1991y.), "Dilbar yuraklar" (S.Soliyev va X.Rasul pyesalari, 1994y.), "Ogahiy" (K.Avaz pyesasi, 1999y.) musiqali dramalarini yaratdi. Bu asarlar Ogahiy nomidagi Urganch musiqali drama va komediya teatrida sahna yuzini ko'rgan. M.Otajonov 1998 yilda "Gunoh", 2005 yilda "Qizi borning nozi bor" kinofilmlariga musiqa bastalagan.

Jonajon Vatanimiz mustaqillikka erishgandan keyin turli mavzularda bir talay jozibali qo'shiqlar yaratib, xonandalar repertuarlarini boyitdi. Bular orasida "Shirin xotira" va "Sog'indim" (S.Rustam so'zlari), "Yashnagan o'lkamga boq" (O.Odilxonov so'zi), "O'ynasin" (N.Narzullayev), "To'y bo'lsin" (xalq so'zi), "Qalam qosh" (Z.Obidov so'zi), "Qarashlaring" (O.Erkin so'zi), "Mazali" va "Yulduzim", "Shunday qo'shiq kuylasam", "Asrolmadim" (M.Otajonov so'zlari), "Meni tushun" (A.Ko'chimov so'zi), "Qizgina" (P.Mo'min so'zi), "Bahorim keldi" (Shamsiya so'zi), "Intilib yashayman" (T.Niyozov so'zi), "Setor" (B.Mashrab g'azali), "Jaloliddin", "Urganchim" (O.Matchon so'zlari) mavjud.

M.Otajonov bolalar uchun ko'plab xor qo'shiqlarini yaratdi. Shu jumladan, "Assalom", "Beozor musicha", "Chumchuq", "Onajon" va boshqalar. Buxoro shahrida o'tkazilgan Respublika bolalar xor jamoalarining ko'rik-tanlovida, O'zbekiston xalq artisti, dirijyor Sh.Yormatov rahbarligida 5000 ta bolalardan iborat qo'shma xor ijrosida M.Otajonovning "O'zbekistonim" (Qambar ota so'zi) va "Navro'zjon" (Z.Mo'minova so'zi) qo'shiqlari ikkinchi darajali sovringa sazovor bo'ldi. "Gladiessa" (T.Nurmuhammad so'zi) bolalar musiqiy ertagiga musiqasi 2009 yilda O'zbekiston davlat konservatoriyasi katta zalida "So'g'diyona" xalq cholg'ulari kamer orkestri tomonidan ijro etildi. "So'g'diyona" xalq cholg'ulari kamer orkestri uchun ko'plab yangi asarlar yaratish bilan birga cholg'ulashtirilgan asarlarni taqdim etgan.

Kompozitor so'nggi yillarda xalq cholg'ulari uchun barakali ijod qildi. Qashqar rubob va orkestr uchun "Konsert", Afg'on rubob va orkestr uchun "Konsert", Qashqar rubob va fortepiano uchun "Fantaziya", "Bolgarcha syuita", asarlari va B.Murtazaviyning "Eroncha fantaziya"si, "Kujo rafte", "Mavrigi" kab ko'plab boshqa cholg'ular uchun yozilgan asarlarni qashqar rubob uchun moslashtirgan.

4. Asar nota matni bilan tanishib tahlil qilib chiqing.

Konsert bir qismli bo'lib, sonata shaklida yozilgan. Kirish qismi *ad libitum* holda, bosh partiya (1-27 taktlar), yordamchi partiya (28-58 taktlar), rivojlov o'rniga epizod (59-142 taktlar) va Kadensiya hamda repriza (fugetto)dan tashkil topgan. Bugungi darsda asarni tahlil qilib, uning shakli, sur'atlari, dinamikasi hamda, qo'llanishi mumkin bo'lgan shtrixlar, aksentlar, ritm kabi jihatlarini o'rganing.

Savollar:

- 1) Sonata shakli deb qanday shaklga aytiladi?
- 2) M.Otajonovning yana qanday Konsertlarini bilasiz?
- 3) Konsert qanday janr?
- 4) Yirik shaklda yana qanday asarlar yaratiladi?

Mustaqil mashg'ulot uchun topshiriqlar:

- 1) Sonata shakli sxemasini tuzib chiqing.
- 2) M.Otajonov hayoti va ijodini ustozingizga so'zlab bering.
- 3) Konsert nota matniga mustaqil ravishda applikatora qo'yib chiqing.
- 4) Notani varaqdan o'qing.

Tayanch iboralar: kompozitorlar ijodiyoti, ad libitum, sonata shakli, tahlil.

26-28-DARSLAR: AMALIY IJROCHILIK MASHG'ULOTLARI

1. M.Murtazoyevning "Tamanno" kuyini fortepiano jo'rligida takrorlang. Ijroda ansambl va shtrixlarga e'tibor bering. Konsertni o'rganishga kirishishdan oldin mashqlar orqali qo'llarni qizdirib olamiz.

1 4 1 4 3 4 1 4 2 4

1 3 2 4 1 3 3 4 1 3 3 4

0 4 3 4 0 4 3 4

0 1 0 1 0 3 0 1 0 4 0 1 0 1 0 4 0 1 0 4

2. M.Otajonov konserti kirish qismini o'rganing.

Zensa metrum ad libitum


f 3

Ko‘rib turganingizdek bu qism *senza metrum ad libitum* sur‘atida berilgan. Erkin holda ijrochining ijro mahorati orqali ijro etiladi. Kirish qismini tanovar, ulug‘vor milliy ohangda chalish talab etiladi. Konsertning bosh partiyasi **Allegro** sur‘atida *lya* tovushida o‘noltitalik notalar bilan *lya* minor tonalligida boshlanadi. 1-raqamdan boshlangan to‘rt taktli jumla to‘xtovsiz harakat bilan 5-taktdan yana takrorlanib, 9-taktda sinkopali aksentlar bilan yakunlanadi.



3. Bosh partiya shu zaylda davom etar ekan, milliy kuy ohangi o‘n oltitalik notalar orqali ifodalanib 9, 15, 19, 27 taktlardan sinkopali aksentlar bilan o‘ziga xos xususiyat, shu bilan birga shaxdamlik, bir oz keskin, ishonchli xarakter pastgapaga beriladigan zarblarning aniqligi va tekisligi muhim. Ayniqsa talabalarning



o‘n oltitalik notalarning har sakkizinchi va oxirgi o‘n oltinchi tovushlari eshitilmay qolishi kuzatiladi. Shuning uchun aynan shu jihatlarga e‘tibor qarating. Bosh partiya 4-raqamdan boshlab asta-sekin tasodifiy alteratsiya belgilari orqali yordamchi partiyaga ya‘ni *fa diez-minor* tonalligiga o‘tadi. 4-raqamning 5-taktidan orkestr, ya‘ni fortepiano partiyasi yakkaxonga yordamchi partiyani tayyorlab beradi.



4. Beshinchi raqamdan boshlangan yordamchi partiya qashqar rubobida bosh partiya mavzusiga qarama-qarshi holda mayinroq xarakterli ohang bilan boshlanadi.



f tovushida *legato* shtrixi qashqar rubobida tremolo orqali ijro etiladi. Bunda o'ng qo'l ijro texnikasi, tovushni boshqarish, dinamikaga to'liq rioya qilish kerak. Buning uchun alohida mashqlar orqali o'ng qo'l texnikasini rivojlantirib boring.

Yordamchi partiya *legato* shtrixida yozilgan bo'lsada, asar sur'ati o'zgarmaganligi bois, triolli bo'laklarni tremolosiz chalish mumkin.

Lekin shunga qaramay triol shtrixida ohanglarni mayin ulanishiga harakat qiling. Asarni applikaturasiga rioya qilib ustozingiz bilan takrorlang. Fortepiano partiyasi orkestr ijrosini oʻzida aks ettirishini hisobga olib doimo orkestr bilan hamohang ijro etishga eʼtibor bering.

Savollar:

- 1) Konsertning bosh partiyasi nechanchi taktlarni oʻz ichiga oladi?
- 2) Bosh partiya qanday shtrixda ijro etiladi?
- 3) Yordamchi partiya bilan bosh partiyaning farqlari nimada?
- 4) Yakka zarb shtrixi orqali *legato* chalish mumkinmi?

Mustaqil mashgʻulot uchun topshiriqlar:

- 1) Asarni ekspozitsiya qismini toʻliq yodlang.
- 2) Shtrixlar ustida alohida ishlang.
- 3) Tremolo shtrixini takomillashtiring.
- 4) Ijroda pastga-tepaga zarblar aniqligi va tekisligiga eʼtibor qarating.

Tayanch iboralar: bosh partiya, legato, orkestr, zenza metrum ad libitum.


29-30-DARSLAR: AMALIY IJROCHILIK MASHGʻULOTLARI

1. Dastlab mashqlar orqali qoʻllarni qizdirib olamiz.



2. Konsertning ekspozitsiya qismini fortepiano joʻrligida yoddan takrorlang. Shtrixlar, tovushlar aniqligi, dinamika va aksentlarga eʼtibor bering.

Konsertning rivojlov qismi yaʼni 7/8 oʻlchovi ritmiga eʼtibor bering. Koʻrib turganingizdek **Allegretto** surʼatida si minor tonalligida 7/8 oʻlchovida berilgan.



Oʻzbekiston xalq artisti Ortiq Otajonovning “Xorazm farzandiman” qoʻshigʻi ohangi asos qilib olingan ushbu qism milliy ohangda ijro etilishi kerak. Buning uchun *fa diez* va *do diez* notalariga ikkinchi barmoq qoʻyilib *fa bekar* va *do bekar* tovushlariga bidratma qilinadi. Musiqiy jumlar 4 takt qashqar rubobida va 2 takt fortepiano partiyasidan rivojlanib borib 10-raqamdan boshlab tonallik tasodifiy alteratsiya orqali rivojlanib oʻzining yuqori avji (kulminatsiya)ga chiqadi.



Bu qismda alteratsiya belgilariga diqqat qarating. Ularni aniq ijro etish uchun chap qoʻl barmoqlari uchi bilan aniq bosib chaling. Ayniqsa 10-raqamning 9-20-taktlari qashqar rubobining eng yuqori notalarida ijro etiladi. Dastaning ushbu qismida tovushlar kamayadi. Shu bois aksentli, triolli, ketma-ket alteratsiya oʻzgarishlari bilan keladigan jumlar sadosini oʻchirib qoʻymasdan jarangdor qilib, baland tovush bilan chalish oʻziga xos murakkablik keltirib chiqaradi.

Yuqorida keladigan. *Si bemol* tovushini aniq ijro etish ustida ishlang. Bunda pardani chap qo‘l barmoqlari uchi bilan qattiq bosing.

Kulminatsiyaning eng yuqori nuqtasi 10-raqamning 19-20-taktlari butun bir qismni tugallanishiga olib o‘tadi. Buni ijroda amalga oshirish uchun tovush dinamikasiga, tovushni to‘g‘ri taqsimlashga alohida e‘tibor bering. Dinamika jihatdan eng yuqori tovush 21-taktning uchinchi oktava *si bemol* notasi hisoblanadi. Ushbu taktlarda aksentlarga amal qilib, shu bilan birga qo‘pol chalmasdan ijro etish ancha shug‘ullanishni talab etadi.

Konsertning ekspozitsiya va rivojlov qismlari, ya‘ni 1-raqamdan kadensiyagacha bog‘lang. Ustozingiz bilan birga aksentlar, shtrixlar ustida ishlang. Fortepiano partiyasini eshitib, dinamik belgilarini fortepiano bilan birga bajarishga harakat qiling.

Savollar:

- 1) Konsertning kulminatsiyasi nechanchi taktga to'g'ri keladi?
- 2) Konsertda rivojlov qismi qanday ko'rinishda berilgan?
- 3) Rivojlov qismiga qaysi ohang asos qilib olingan?
- 4) Ekspozitsiya va rivojlovda qanday qarama-qarshiliklar bor?

Mustaqil mashg'ulot uchun topshiriqlar

- 1) Konsert janrining turlarini o'rganib chiqing.
- 2) Klassik konsertlar va zamonaviy konsertlar o'rtasidagi farqlarni o'rganing.
- 3) Dars mashg'ulotlarida berilgan topshiriqlarni bajarishda berilgan mashqlardan foydalaning.
- 4) Konsertni kadensiyagacha barcha talablarni bajargan holda yodlang.

Tayanch iboralar: oktava, kulminatsiya, rivojlov, klassik konsertlar.

31-33-DARSLAR: AMALIY IJROCHILIK MASHG'ULOTLARI. KADENSIYA

1. Mashqlar:

The image displays five staves of musical exercises for cadenza. The first two staves are in 4/4 time and feature eighth-note patterns with triplets and various fingering (1, 4, 1, 1). The third staff shows a scale with fingering 0 1 2 1 3 and 0 1 2 4 1 2 4, with a '6' below the notes. The fourth staff shows a scale with fingering 0 1 2 4 1 2 4 1 3 4 and a '9' below the notes. The fifth staff is in 4/4 time and shows a sequence of arpeggios labeled 'I sim', 'II sim', 'III sim', and 'II sim'.

2. M.Murtazoyevning "Tamanno" asarini fortepiano va doira jo'rligida takrorlang. Tovushlar jarangi, zarblar aniqligi va milliy musiqiy bezaklar ijrosi ustida ishlang.


3. M.Otajanovning “Konsert”i ekspozitsiya va rivojlov (epizod) qismini fortepiano joʻrligida takrorlang. Ritmlar, surʻat va dinamikaga eʻtibor qarating. Mavjud kamchiliklarni aniqlab, ustoz bilan birga ular ustida ishlang.

4. Kadensiyani notadan oʻqing.

11 Cadenza ad libitum



Zensa metrum




Avvalo kadensiya jumllarini aniqlab oling. Kadensiya *si minor* tonalligida yozilgan. Kadensiya qashqar rubob cholgʻusi diapazonini, ijro imkoniyatlariga mos kelib, ijrochining mahoratini koʻrsatib beradi. Murakkab passajlarga alohida applikator qoʻyib chiqish zarur. Uch torda chalinadigan qismlardan oʻng qoʻlning tordan-torga oʻtish mahorati va akkordli jumlar ustida ishlang. Chap qoʻl barmoqlarining chaqqon harakati, notalar almashinuvi aniqligi, tovushlar tekisligiga erishish zarur.

Kadensiyadan soʻng repriza oʻtish vazifasini oʻtab beruvchi fugetta keladi. 12-raqamda 3/4 oʻlchovida, **Moderato** suratida keladigan fugetta *si minor* tonalligida 13-raqamgacha davom etib fortepiano partiyasi orqali yana reprizaga oʻtadi.

5. Soʻnggi qism reprizani oʻzlashtirilgan oldingi qismlar bilan bogʻlang. Repriza deyarli oʻzgarishsiz **Allegro** surʼatida takrorlanib, 13-raqamdan yuqorilab boruvchi sekvension kuy tuzilmasining tantanavor ohanglari bilan yakun topadi.

Konsertning yakuniy qismida katta hajmdagi tovush dinamikasi talab etiladi.



Tantanavor xarakterni yaratib berish uchun o'ng qo'l texnikasi va tovush kuchi hamda uni bosharish mahorati yuqori bo'lishi kerak. Shuning ushbu qismlarni dars mashg'ulotlarda fortepiano bilan birga ansambl ijrosida mustahkamlab boriladi.

Savollar:

- 1) Kadensiya deb nimaga aytiladi?
- 2) "Konsert" so'zi ma'nosi nima?
- 3) Fugetto nechanchi raqamdan boshlanadi?
- 4) Reprizalarning qanday turlari bor?

Mustaqil mashg'ulot uchun topshiriqlar:

- 1) Jahon kompozitorlari orasida ko'p "Konsert" yozgan kompozitorlar haqida ma'lumotlar o'rganing.
- 2) M.Otajonovning "Konsert"ini barcha qismlarini alohida, so'ngra yaxlit holda chaling.
- 3) Asarni uch marta sekin, bir marta tez sur'atda chalib shug'ullaning.
- 4) So'nggi qismlarni alohida ishlab chiqing.
- 5) Jummalarni aniq ifodalashga harakat qiling.

Tayanch iboralar: konsert, kadensiya, fugetto, repriza, jumla.

34-36-DARSLAR: 1-SEMESTR YAKUNIY NAZORATI UCHUN IJRO DASTURINI TAYYORLASH VA SAHNADA TOPSHIRISH

1. Mashqlar:

The image shows four staves of musical exercises for guitar in D major (two sharps). Each staff contains sixteenth-note patterns with specific fingerings and accents. The first staff has fingerings 0 4, 3 4, 3 4, and 1 4, with accents 'e' under the second and fourth measures. The second staff has no fingerings or accents. The third staff has fingerings 1 0 1 3 4 1 1 2 4 0 1 3 4 1 1 2, 4 0 1 3 4 0 1 3 4 1 1 2 4. The fourth staff has fingerings 1 2 4 2 1 2, 1 3 4 3 1 3, 0 1 3 1, 0 1 0 3, 1 3 4 3 1 3 1 4.

2. Amaliy mashg'ulotlar: 1-semestr yakuniy nazorati uchun tayyorgarlik ko'rish. Asarlarni to'liq yodlangan va barcha o'zlashtirilgan bilim va ko'nikmalarni qo'llagan holda ijro etish lozim. Ushbu uchta dars davomida kompozitorlar ijodiga mansub yirik shakldagi asarlardan M.Otajonovning "Konserti" jo'rnavor bilan birga bir necha marotaba ijro etiladi. Bunda asosan ansambl ijrosi, dinamika, sur'at(temp), tovush sifati va artikulyatsiya talablari ustida ishlanadi. Shu bilan birga murakkab musiqiy jumla va bo'laklar qayta-qayta ishlanib sayqallanadi.


Bastakor M.Murtazoyevning "Tamanno" asari takomillashtiriladi. Bunda asosan chap qo'l ko'nikmalari mustahkamlanishi zarur. Ya'ni, tovushlarning sadolanish davomiyligi, musiqiy bezaklarninig aniqligi, ayniqsa "kashish" ijrosida uning miqdori va sadosi, shu bilan birga tremolo shtrixi ustida alohida ishlanadi. Doirachi bilan ijro mustakamlanadi. Usulni his qilish, undan chiqib ketmaslik uchun ijrochi o'zi usul berib asarni ovoz bilan kuylash orqali usul muammolari ustida ishlanadi. Asar sur'ati (temp), dinamika, hamda tovush sifatiga alohida e'tibor qaratiladi. Imtihonda ijro etishning o'ziga xos tomonlari, ya'ni asarni xuddi konsertda tinglovchilar oldida ijro etgandek ijro eta olish ko'nikmalari ustida ishlanadi. Bunda talabaning ijro madaniyati bilan birga sahna madaniyatiga, uning kiyinishidan tortib o'zini tutishi, badiiy ijroga bo'lgan jiddiy munosabatni shakllantirishga alohida urg'u berilishi zarur.

O'tilgan mavzular bo'yicha tavsiya etiladigan adabiyotlar:

1. T. G'ofurbekov "Musiqqa mening borlig'im". T., 2015
2. A. Fitrat "O'zbek klassik musiqasi va uning tarixi". "Fan".T., 1993
3. A. Jabborov "O'zbekiston bastakorlari va musiqashunoslari"...

4. N. Sharipov “Chet el musiqa adabiyoti” T., “Musiq”., 2015
5. Q. Bozorov “Qashqar rubobida akkordli tuzilmalar ijro etishning uslubiy asoslari”. “Musiq”. T., 2015
6. O. Nazarov “Rubob ijrochiligi” “Musiq” T., 2014
7. H. Nurmatov, O. Nazarov, Sh. Janaydarov “Cholg‘uchilar ansambli” T., “Bilim” 2005
8. E. Doriyeva “Metodika obucheniya igri na yatage” Ulan-Ude, 2006
9. I. Akbarov «Musiq lug‘ati» G‘. G‘ulom nomidagi adabiyot va san‘at nashriyoti. T., 1987.

Musiqiy krossvord “Musiq lug‘ati” krossvordi



Izoh: a) lotin alifbosidagi undosh “Sh”, “Ch” qo‘sh harflari ikkita katakka yoziladi;

Eniga: 1. Qadimda Yaqin va O‘rta Sharq mamlakatlarida keng tarqalgan o‘n ikki maqomdan birining nomi. 2. Aks sado. 3. Sonata allegro o‘rta qismi. 4. Qadimda sozanda va xonandalar rahbari. 5. Tanlov. 6. Elektrlashtirilgan klavishli musiqa asbobi. 7. Qozoq va qirg‘iz xalqlarida hofizning nomlanishi. 8. Buzruk maqomining nasr bo‘limidagi ashula, Toshkent-Farg‘onada keng tarqalgan cholg‘u kuyi. 9. Bir juftan puflab chalinadigan yog‘och cholg‘u asbobi bo‘lgan simfonik orkestr. 10. Laddagi tovushlar balandligi.

Bo‘yiga: 1. Milliy cholg‘u sozandasi. 2. Alteratsiya belgisi. 3. Sur‘atni ko‘rsatib beruvchi moslama. 4. Ashula san‘ati turi. 5. Kuy sur‘ati. 6. Metalldan ishlangan urma cholg‘u asbobi. 7. Rus xalq puflama cholg‘u asbobi.

1-semestrda o‘zlashtirilgan bilimlarni mustahkamlash uchun testlar

№	Test topshirig‘i	“A”	“B”	“C”	“D”
1.	Qashqar rubob qanday sozlanadi?	Kvarta-kvinta	Kvinta-kvarta	Kvarta-kvarta	Barcha javoblar to‘g‘ri
2.	Fortepianoni kim kashf etgan?	Bartolomeo Kristofori	Djovanni Gabrieli	Djon Fresko-baldi	Paul Xofmayer
3.	O‘rta asr “Sharq Arastusi” nomini olgan buyuk musiqa bilimdoni kim?	Ibn Sino	Ar-Roziy	Abduraxmon Jomiy	Abu Nosir Farobiy
4.	O‘zbekiston kompozitorlari uyushmasi qaysi yil tashkil topgan?	1940-yil	1961-yil	1939-yil	1999-yil
5.	O‘rta asrda organlar qayerda qurilgan?	Cherkovlarda	Zodagarlar uyida	Konsert zalida	Ochiq maydonda
6.	Dissonans termini qanday ma‘noni anglatadi?	Uyg‘unlashgan tovushlar	Uyg‘unlashmagan tovushlar	Jarang-dosh tovushlar	jarangsiz tovushlari
7.	Mushkilot qismi qanday nomlanadi?	Alemanda	Cholg‘u	Menuet	Kuranta
8.	“Gardun” so‘zi qanday ma‘noni bildiradi?	Tortish	Gavot	Jiga	Aylanish
9.	“Interval” so‘zining ma‘nosi qaysi javobda to‘g‘ri ko‘rsatilgan?	Oraliq	Birin-ketin ijro etilgan ikki tovush oralig‘i	masofa	belgi
10.	Musiqqa “Avj” – so‘zi qanday ma‘noni anglatadi?	Me‘yor	O‘rta	Cho‘qqi	Past
11.	“Sug‘diyona” davlat kamer orkestri qaysi yili tashkil topgan?	1990 yilda	1991 yilda	2001 yilda	2002 yilda
12.	Eng avval qaysi cholg‘ular paydo bo‘lgan?	Damli cholg‘ular.	Zarbli cholg‘ular.	Shovqinli cholg‘ular.	Torli cholg‘ular

13.	Quyidagi cholg'ulardan qay biri mizrobsiz chalinadi?	Qashqar rubobi	Dutor prima	Afg'on rubobi	rubob prima
14.	Quyidagi cholg'ulardan qay biri transport qilinadi?	Nay	doira	nog'ora	Qashqar rubobi
15.	Quyidagi asboblardan qaysi biri o'zbek xalq cholg'ulariga kirmaydi?	dutor	setor	chang	g'ijjak
16.	Eng ko'p simfoniya yozgan o'zbek kompozitorini aniqlang?	M.Bafoyev	F.Alimov	M. Tojiyev	O.Abdul-layeva
17.	O'zbekiston davlat konservatoriyasi nechanchi yili tashkil etilgan?	2002 yil	1910 yil	2000 yil	1932 yil
18.	Agar rubob kosasi noto'g'ri ushlansa, sozanda ko'rinishida qanday o'zgarishlar yuz beradi?	Hech qanday o'zgarish bo'lmaydi	Oyoqda o'zarish bo'ladi	Mediator tushib ketadi	Ijrochilik holati o'zgaradi
19.	I.S.Bax nechanchi yillarda hayot kechirgan?	1735-1782	1714-1784	1543-1574	1685-1750
20.	Qashqar rubobda liga qaysi shtrix orqali ijro etiladi	Zarb bilan	tremolo bilan	Aksent orqali	To'g'ri javob yo'q
21.	Qashqar rubobni O'zbekistonda ommalashtirgan sozanda kim?	T.Rajabiy	M.Mirzayev	O.Nazarov	Q.Usmonov
22.	Temperatsiyada oktava nechta yarim tonlarga bo'linadi?	12	8	10	11
23.	M.Mirzayev kim bilan rubobda duetlar chalgan	F.Sodiqov	T.Rajabiy	Sh.Mirzayev	O.Nazarov
24.	Qashqar rubob transport qilinadimi?	Ha	Yo'q	To'g'ri javob yo'q	Barcha javoblar noto'g'ri
25.	Buzruk maqomi tartib bo'yicha nechanchi?	1	2	3	4
26.	Fa-# majorda qancha belgi mavjud?	6 ta	3 ta	5 ta	2 ta

27.	Molishning ma'nosi nima?	Urish	Uzish	Chertish	Silash
28.	Rubobda nechta tayanch nuqtasi bor?	3 ta	4 ta	6 ta	2 ta
29.	“Rubob ijrochiligi” qo‘llanmasi muallifi kim?	T.Gafurbekov	O.Nazarov	G.Irgashev	A.Lutfullayev
30.	Qaysi belgi notalarni bir-biriga ulab chalish ma'nosini anglatadi?	rikoshet	stakkato	legato	pitsikato
31.	Applikatura nima?	musiqiy cholg‘u	barmoqlarni to‘g‘ri qo‘yish sur‘at va almashtirish holati	alteratsiya belgilari	sur‘at
32.	Pozitsiya nima?	musiqiy asar	dinamika belgilari	menzura	cholg‘uda ijro etishda qo‘l vaziyati
33.	Menzura nima?	asosiy xarakdan shayton xarakkacha bo‘lgan masofa	musiqiy janr	asar xarakteri	sezura
34.	Romantizm davrida qanday obrazlar ustun keladi?	Hissiy	Qahramonona	Falsafiy	Diniy
35.	Kadensiya nima?	auftakt	agogika	yakkanavoz ijro etadigan mohirona qism	Fraza
36.	Auftakt nima?	kuy	musiqiy jumla	ohang	maxsus nafas, ijroga tayyorlanish
37.	Ilk bor Germaniyada SD chiqargan jamoa	“So‘g‘diyona”	“Sato” guruhi	Maqom ansambli	“Chor zarb

		orkestri			Guruhi”
38.	Germaniyada ilk konservatoriyani kim tashkil etgan?	F.Mendelson	R.Shuman	F.Shubert	L.Bethoven
39.	Konservatoriyada qashqar rubobdan kimlar dars beradi	O.Nazarov, B.Mirpayazov, A.Islomov, Q.Bozorov	O.Nazarov, B.Mirpayazov,	B.Mirpazov, A.Islomov	O.Nazarov, A.Islomov, Q.Bozorov
40.	Lyuft pauza nima?	zarb	musiqiy tanaffus	jumla	rubato
41.	F.List qaysi milliy kompozitorlik maktabining vakili?	Vengriya	Polsha	Italiya	Avstriya
42.	Yanga doyra asari muallifi kim?	M.Bafoyev	A.Mansurov	F.Alimov	A.Varelas
43.	Qashqar rubob uchun yozilgan “Tong” kuyi muallifi kim?	M.Mirzayev	K.Jabborov	A.Ismoilov	F.Sodiqov
44.	Sezura nima?	dinamik belgi	musiqiy asarni bo‘limlarga ajratuvchi belgi	Qisqartirish belgilari	sur’at
45.	Boshlang‘ich rubob darsligining muallifi kim?	A.Odilov	Q.Usmonov	A.Umarov	O.Nazarov
46.	Shashmaqomni kim notaga olgan	Y.Rajabiy	K.Jabborov	T.Jalilov	N.Mironov
47.	Buxorcha konsertmuallifi kim?	M.Bafoyev	J.Bize	S.Jalil	N.Paganini
48.	Qashqar rubobi O‘rta Osiyoning qaysi mamlakatlarida keng tarqalgan	O‘zbekiston, Tojikiston	Qirg‘iziston	Turkmaniston	Qozog‘iston
49.	E.Grig qaysi milliy maktabining vakili?	Norveg	Slavyan	Rus	Fin
50.	O‘zbekistonda tashkil etilgan birinchi oliy musiqa o‘quv yurti qaysi	Toshkent davlat madaniyat	Toshkent davlat konservatori	Toshkent davlat san’at	Toshkent davlat pedago-

	bandda to‘g‘ri ko‘rsatilgan?	instituti	yasi	instituti	gika univ- siteti
51.	Birinchi o‘zbek operasining muallifi kim?	F.Nazarov	M.Ashrafiy	B.Gienko	F.Alimov
52.	Afg‘on rubobi necha torli cholg‘u?	4	6	7	5
53.	Rossiyada birinchi konservatoriya kimning tashabbusi bilan ochgan?	A.Rubin- sheyn	M.Glinka	A.Dargom- ijskiy	A.Boro- din
54.	O‘zbekiston davlat konservatoriyasi kimning tashabbusi bilan bunyod etildi?	R.Qurbo- nov	B.Sayfulla	A.Tolipov	I.Karimov
55.	Nayning diapazoni qanday?	1-oktava “re”dan – 4- oktava “lya”gacha	1 oktava “lya” dan – 4 - oktava “re”gacha	1-oktava “mi” dan – 4 - oktava “sol” gacha	1-oktava “sol”dan – 4 – oktava “fa” gacha
56.	Cho‘li iroq kuyini kim qayta ishlagan?	M. Toirov	M.Toshmuh- amedov	D.Soat- qulov	O.Naza- rov
57.	O‘zbekistonda birinchi naychi ayol kim?	F.Shuku- rova	S. Saidova	R.Xoji- yeva	F.Abdu- rahimova
58.	Yilning barcha oylarini kim fortepiano majmuasi sifatida ifoda etgan?	M.Glinka	M.Musor- gskiy	A. Rubin- shteyn	P.Chay- kovskiy
59.	M.Bafojev nechta opera larni yaratgan?	3	2	5	7
60.	M.Bafojevning “Poema”si kimga bag‘ishlangan?	Q.Usmo- nov	T.Rajabiy	O.Nazarov	M.Mir- zayev
61.	P.Chaykovskiyning bolalar uchun pyesalari qanday nomlanadi?	Bolalar albomi	Kichkintoyla r olami	Bolalar dunyosi	Bolalar hayotiga
62.	D. Zokirov nomidagi o‘zbek xalq cholg‘ulari orkestri nechanchi yil tashkil etilgan?	1933.	1975.	1965.	1957.
63.	O‘zbekistonda tashkil etilgan konsert etnografik ansamblining 1-chi rahbari kim edi?	Y.Rajabiy	D.Zokirov	M.Qori Yoqubov	F.Sodiqov

64.	P.Chaykovskiyning “Yil fasllari” asariga nechta pesa kirgan?	24	12	18	10
65.	Tanbur notatsiyasini kim tomonidan yaratilgan?	T.Jalilov	D.Zokirov	Y.Rajabiy	K.Xorazmiy
66.	Faktura nima?	musiqiy cholg‘u	musiqiy matn	ijro usuli	temp
67.	Birinchi o‘zbek operasi?	“Dilorom”	“Maysaraning ishi”	“Toxir va Zuhra”	“Bo‘ron”
68.	“Mahallada duv-duv gap” kinofilmi musiqasini kim yaratgan?	M.Ashrafiy	M.Leviyev	S.Yudakov	B.Gienko
69.	“Xalq cholg‘ularida ijrochilik” kafedrasi mudiri kim?	A.Lutful-layev	O.Nazarov	B.Mirpa-yazov	O.Tashmatova
70.	Ayollar ovozi qaysi?	Bas	Tenor	bariton	soprano
71.	Qashqar rubob uchun “Ballada” asarini kim yozgan?	O.Nazarov	S.Hayit-boyev	M.Bafo-yev	A.Man-surov
72.	Urma zarbli cholg‘u qaysi?	Tuba	Dutor	Chang	vibrafon

37-DARS: IJROCHILIK MAHORATINI TAKOMILLASHTIRISH

Uzluksiz musiqiy ta'lim, ya'ni BMSM, musiqa va san'at litsey-kollejlari, so'ngra oliy ta'lim muassasalarida ta'limning davom ettirilishi sozanda, xonanda – mutaxassisni mukammal bilimlarga ega bo'lishining asosiy omillaridan biridir .

Shunday bo'lsada, ta'lim tizimining barcha bosqichlarida yosh sozanda bilan ishlashda o'ziga xos maqsad va vazifalar, muammolar yetarli. Sababi, musiqa ijrochilik san'ati doimiy rivojlanib, yangilanib boradigan, qamrov doirasi keng bo'lgan ijodiy jarayonlardan biri ekanligidir.

Darhaqiqat, talaba oliy ta'lim muassasasiga muayyan bilimlar, ijrochilik ko'nikmalari, ijro dasturi va ma'lum tajribalarni o'zlashtirgan holda keladi. Shunga qaramay, talabalarda o'ziga xos kamchiliklarni kuzatish mumkin. Bunday kamchiliklar sirasiga ijrochilik holati (postanovka)da uchraydigan nuqsonlar, asar ijrosida badiiylilikning yetishmasligi, asarni shakl va ijrochilik tomonidan tahlil qila olmaslik, nota o'qish tezligining rivojlanmaganligi, elementar musiqa savodxonligining pastligi, nazariy bilimlarning puxta o'zlashtirilmaganligi va umuman ijrochilik mahoratining yetishmasligi kabilarni kiritish mumkin.

Oliy ta'lim, xususan konservatoriyada o'qish davri ta'limning oldingi bosqichlaridan tubdan farq qiladi. Chunki, bu yerda talaba muayyan soha bilan jiddiy shug'ullanishga to'g'ri keladi. Buni talabaning yoshi, o'zlashtirgan bilimlari, tushunchalari va dunyoqarashi taqozo etadi. Ya'ni, talaba muayyan sohani chuqurroq anglay boshlaydi va yangi bir muhit bilan to'qnashadi. Demak, zamonaviy talaba yetuk mutaxassis bo'lib yetishishi uchun tinmay shug'ullanishi, izlanishi, o'z ustida muntazam ishlashi talab etiladi. O'z navbatida, oliy ta'lim professor-o'qituvchilari oldiga, umumiy qilib aytganda, talabaning ijrochilik mahoratini takomillashtirish vazifalarini qo'yiladi.

Zamonaviy ta'limning barcha sohalarda innovatsion pedagogik texnologiyalar keng qo'llanilmoqda. Ushbu texnologiyalarning mohiyati shundaki, u an'anaviy o'qitish uslubidan farqli ravishda talabaga o'qituvchi tomonidan berilayotgan ma'lumotlarnigina o'zlashtirmasdan o'zi mustaqil ravishda bilimlarni o'zlashtirishi, o'qishga ijodiy yondoshib, bilim doirasini kengaytirib berishiga o'rgatishdan iborat. Bunda o'qituvchining vazifasi talabani boshqarish, bilimlarini nazorat qilish, uni to'g'ri yo'naltirish, o'zlashtirishi lozim bo'lgan ma'lumotlarga to'g'ri jalb qilib turishdan iborat bo'ladi. Ushbu texnologiyalar zamonaviy talabalarni erkin fikrlashga, o'z fikrini yorqin ifodalay olishga, izlanuvchanlikka, ijodkorlikka o'rgatishi sir emas. Shunday bo'lsada, mazkur texnologiyalar guruhli mashg'ulotlarga, darslarga mo'ljallangan. Konservatoriyada, umuman cholg'u ijrochiligida darslar yakka tarzda olib borilayotganligi bois pedagogik texnologiyalarning ayrimlarini, masalan "FCMY", "SWOT", "Nima uchun", "Blits - so'rov", "Bilaman, bilmayman, bilishni hohlayman" kabi sxemalaridan qisman, ba'zan og'zaki usulda, ba'zan uyga vazifa tariqasida foydalanish mumkin.

Ushbu sxema muayyan asar ijrosida uchraydigan muammolarning dastlabki sababini aniqlash bo'yicha fikrlar zanjiri: tizimli, ijodiy va tahliliy fikrlashni rivojlantiradi va faollashtiradi.

Bilamizki, qashqar rubob cholg'usi o'zbek milliy cholg'ulari orasida o'quv jarayonida ko'lami kengligi bilan ajralib turadi va tabiiyki bu cholg'uda ijrochilik amaliyoti ham shunga mos ravishda taraqqiy etib kelmoqda. Konservatoriyada ta'lim oladigan talaba o'z cholg'usini yaxshi bilishi, ijrochilik sir-asrorlaridan to'liq xabardor bo'lishi uchun mavjud kamchiliklarni bartaraf etishda tinimsiz mashq qilish talab etiladi. Ijrochilik mahorati deganda faqat ijro tezligining yuqoriligi emas balki, asarni yuqori badiiy darajada, uning xarakterini to'liq ochib berilgan mukammal ijrosi tushunilishi sir emas, albatta. Buning uchun ixtisoslik darslarida avvalo:

- ijrochilik holatidagi o'ng va chap qo'llarda uchraydigan kamchiliklarni bartaraf etish;
- asar ijrosi uchun kerakli barcha nazariy ma'lumotlarni chuqur o'zlashtirish;
- ijro etilayotgan asarni shakl va ijrochilik tomonidan tahlil etib chiqish;
- aniq applikaturasini belgilab olish;
- nota matnini to'liq, xatosiz yod olish;
- ijro tezligiga erishish uchun kerakli bo'lgan mashqlarni aniqlab olish va ularni muntazam ijro etish;
- murakkab passajlar va katta intervallar orasidagi harakatlar ustida ishlash;
- tovush sifati va xususiyati ustida ishlash;
- asar uchun mos va xos bo'lgan ijro shtrixlarini to'g'ri tanlash;
- asarni ijrochilik yo'nalishi(stil) va uslubini aniqlash;
- shtrixlar va dinamika ustida jiddiy ish olib borish;
- tovushni boshqarish ko'nikmasini to'liq o'zlashtirish;
- mavjud ijro namunalarini kompyuter texnologiyalari yordamida tinglash va tahlil etish;
- ijrochilik amaliyoti, konsert ijrochiligi, konservatoriyadagi boshqa bo'limlar konsertlarini muntazam kuzatib borish, hamda tahlil va xulosalar qilish;
- musiqiy bezaklar ijrosini to'g'ri o'zlashtirish va qo'llash; kabi jihatlarga ahamiyat berilgan holda mashg'ulotlarni, shuningdek, talabaning mustaqil shug'ullanishini tashkil etish ijrochilik mahoratini takomillashtirishda muhim ahamiyatga ega.

Savollar:

- 1) Ijrochilik mahorati deganda nimani tushunasiz?
- 2) "Nima uchun" texnologiyasi mohiyati nimadan iborat?
- 3) Pedagogik innovatsion texnologiyalarning afzalliklari nima?
- 4) Yangi pedagogik texnologiyalar talabaga qanday imkoniyatlar beradi?

Mustaqil mashg'ulot uchun topshiriqlar:

- 1) Tovush sifati va uni boshqarish ko'nikmasi haqida gapirib bering.
- 2) Mavzu yuzasidan o'z xulosalaringizni yozma ravishda ustozingizga taqdim eting.
- 3) O'z ijro ko'nikmalaringizni tahlil etib kelajakda mahoratingizni takomillashtirish uchun reja tuzib chiqing.
- 4) Innovatsion pedagogik texnologiyalar haqidagi adabiyotlardan ushbu texnologiyalar bo'yicha to'liqroq ma'lumotlar to'plab daftaringizga yozib keling.

Tayanch iboralar: tovush hosil qilish va uni boshqarish, ijrochilik mahorati, shtrixlar, applikatura.

38-41-DARSLAR: GAMMALAR VA MASHQLAR. POZITSİYALAR

O'quv yili boshida ikkinchi semestr uchun shakllantirilgan ijro dasturidan o'rin olgan gammalarni o'rganish vaqti keldi. Gammalar o'quv dasturida har bir kurs uchun alohida ishlab chiqilgan bo'lib, ularni o'zlashtirish orqali talaba qashqar rubobida mavjud gamma turlari bilan tanishib, ularni o'zlashtiribgina qolmasdan, balki cholg'uning dastasini yanada chuqurroq his qila boshlaydi. 39-41-darslar mashg'ulotlarida dasturda belgilangan gammalar o'rganib chiqiladi va doimiy ravishda takrorlab boriladi.


Mashqlar biron bir maqsadda har-xil ko'rinishdagi kichik yoki kattaroq musiqiy jummalarni mashq qilish bo'lsa, gamma tovushqatori doimiy ravishda aniq pog'onalarni bosib u yoki bu shtrix asosida ijro etiladi. Gamma chalishning ijro mhoratini oshirishda asosiy ahamiyati shuki, bunda barmoqlar aniq belgilangan applikatura asosida, ya'ni majburiy holda ijro etadi. Aynan shu holat gammalarni mashqlardan ajratib turadi.

1. Mashqlar: Quyidagi mashqlar murakkablik jihatidan hozirgi zamonaviy ijrochilik talablarini hisobga olgan holda ishlab chiqilgan. Bu mashqlarda aynan zamonaviy kompozitorlar asarlarida uchraydigan yo'nalishlar va zamonaviy qashqar rubob ijrochilik uslublari aks etgan. Ilgari chop etilgan darslik va qo'llanmalarda berilgan mashqlardan farqli o'laroq, ushbu mashqlar burmuncha murakkab bo'lib, talabadan alohida e'tibor talab qiladi. Mashqlarni dars jarayonida o'qituvchi bilan yoki bir necha talaba birga unison holda chalish yaxshi natija beradi. Mashqlar o'ng va chap qo'llar uchun mo'ljallangan bo'lib, har biri alohida maqsadni ko'zda tutadi.

1-mashq



2-mashq



3-mashq



4-mashq



5-mashq



6-mashq



7-mashq



8-mashq



9-mashq



10-mashq



2. O‘zbek musiqasida barcha xalq musiqalarida bo‘lgani kabi milliy xususiyatga ega bo‘lgan tovushqatorlar (ya’ni gammalar) mavjud. Ushbu tovushqatorlar major va minor gammalaridan farqli o‘laroq ayrim bosqichlarining 0,5 ton ko‘tarilganligi yoki pasayganligi bilan xarakterlidir. Musiqada ular *xalq ladlari* deb yuritilib quyidagicha nomlanadi:

Majorda:(do major misolida)

Lidiy ladi (IV bosqich yarim ton ko‘tariladi)




Miksolidiy ladi (VII bosqich yarim ton pasayadi)



Qo‘shgarmonik ladi (II va VI bosqichlar yarim ton pasayadi)



Pentatonika (VI va VII tovushlar qoldirilib ijro etiladi)



Minorda: (lya minor misolida)


Doriy ladi (VI bosqich yarim ton ko‘tariladi)



Frigiy ladi (II bosqich yarim ton pasayadi)



Qo‘shgarmonikladi (IV va VII bosqichlar yarim ton ko‘tariladi)




Pentatonika(II va VI tovushlar qoldirilib ijro etiladi).



3. Gammalar: Demak, birinchi kurs talabasi uch torda chalinadigan bir oktavali major va minor gammalari va ularning tonika, subdominanta kvartsekstakkord, dominant sekstakkord uchtovushliklari, shuningdek, ularning aylanmalarini o‘rganishi talab etiladi. Gammalarning tabiiy, melodik va garmonik turlari har-xil ko‘rinishlarda, ya’ni shtrixlarda ijro etiladi. Yuqorida ta’kidlanga-nidek, qashqar rubobida bir turdagi gamma applikaturasi boshqa shu turdagi gammalar uchun bir xil bo‘lganligi sababli quyida berilayotgan gammalar shu turdagi boshqa barcha tonalliklardagi gammalar uchun namuna sifatida keltirilmoqda⁵.

E^b-dur



c-moll
tabiiy



⁵ Ushbu gammalar ijrosida qashqar rubobining 3-tori *si* tovushiga sozlanadi. Uch torda chalinadigan bir oktavali gammalarning barchasi berilgan applikatura bilan chalinadi. Gammalarni turli xil shtrixlarda chalish tavsiya etiladi.

melodik

1 4 3 1 4 3 1 4 3 2 4 3 2 3 4 1 3 4 1 3 1

h e h e a e a e h e h

1 3 4 1 3 4 1 3

h e a

1 4 3 1 4 3 1 4 2 1 4 2 1 3 4 1 3 4 1 3 1

h e h e a e a e h e h

t₃ S₆₄

1 4 3 4 1 1 4 3

h e a

D₆₄ t₃

1 4 3 4 1 4 3 4

h e a h e a

Savollar:

- 1) Mashq va gammalar farqini aytib bering?
- 2) Do diez majorning parallel minori qaysi?
- 3) Xalq ladlari qanday nomlanadi?
- 4) Pentatonika ladi asosan qaysi xalqlar musiqasida ko‘p uchraydi?

Mustaqil mashg‘ulot uchun topshiriqlar:

- 1) O‘z cholg‘uingizda berilgan mashqlarni o‘rganib kelgusi darsda ustozga chalib bering.
- 2) Mashqlarni mustaqil ravishda boshqa talabalar bilan unison holda chaling.
- 3) Mashqlarni chalayotganda o‘ng qo‘l va tovush chiqarishga ham alohida e‘tibor bering.
- 4) Gammalar uchtovushliklari va ularning aylanmalari tovushlarini og‘zaki aytib bering.

Tayanch iboralar: gamma, pozitsiya, xalq ladlari, major, minor, pentatonika.

42-45-DARSLAR: ETYUDLAR. APPLIKATURA

Navbatdagi 42-45-darslarda etyudlar o‘rganiladi. Konservatoriya talabalari uchun yaratilgan muallif Odiljon Nazarovning **“Xalq chol g‘ularida ijrochilik (qashqar rubob uchun gamma va etyudlar)”** o‘quv qo‘llanmasida barcha bosqich talabalari uchun etyud va gammalar ishlab chiqilgan. Etyudlar maxsus qashqar rubob uchun yozilgan bo‘lib, ularda hozirgi zamon musiqa ijrochiligi

yoʻnalish va uslublari aks ettirilgan. Dasturda belgilanganidek birinchi kurs talabasi bitta majburiy etyud va bitta ixtiyoriy tanlangan etyudlarni oʻrganib imtihonda topshirishi shart. Birinchi kurslar uchun ijro murakkabligi jihatidan deyarli bir xil boʻlgan uchta etyud majburiy berilgan boʻlib, talaba oʻz ustozini bilan ulardan birini tanlab ijro etishi mumkin. Ushbu dars mashgʻulotlarida tanlangan etyudlar oʻrganiladi.

1. Mashqlar: Etyudlarni oʻrganishga kirishishdan oldin albatta oldingi darslarda oʻzlashtirilgan mashqlar yordamida qoʻllar qizdirib olinadi.

2. Etyud № 3. Dastavval etyudlarning nota matnllari varaqdan oʻqib chiqiladi. Etyudning 1-2-taktlaridagi punktir ritmli notalarning aniq va keskin jaranglashiga erishish zarur.

Allegro ♩=110

Keyingi 3-4-taktlarda akkordli tuzilmalarda ikkinchi tovush rubobning ochiq torlariga toʻgʻri kelganligi bois, bu tovushlarni keskin jaranglatish murakkab, Shuning uchun chap qoʻl zarbidan soʻng torlarni oʻng qoʻl bilan yengil va keskin bosib tovushni soʻndirish kerak boʻladi.

Etyudning yuqoridagi 22-23-taktlarida triolli tuzilmalar ijro uchun murakab boʻlib, bunda triol tovushlarining turli torlarga toʻgʻri kelishi oʻng qoʻl uchun noqulay boʻlganligi sababli bunday boʻlaklarni alohida mashq qilib oʻzlashtirib olish kerak boʻladi.

Ushbu etyudning kuy sur'ati tez ekanligi hisobga olinsa, etyudni berilgan sur'atda ijro etish murakkablik keltirib chiqaradi. Shuning uchun etyudni ilovada berilgan applikator asosida o'rganish shart.

3. Etyud № 13. Navbatdagi etyud triol shtrixida milliy musiqa ohanglari asosida yozilgan bo'lib, uning dastlabki jumalari sakkiztalik triol hamda o'noltitalik notalar almashinuvi asosida tuzilgan. Bu yerda asosan triol tovushlarining tekisligi, ya'ni yuqoriga beriladigan zarbning tekis va aniq ijro etilishi muhim. Talaba buning uchun triollarni punktir ritmda sekin tempda chalib o'rganishi maqsadga muvofiq.

Allegro

The first part of the etyud consists of two staves of music. The first staff begins with a treble clef and a 6/8 time signature. It contains a series of eighth-note patterns, including some with accidentals (sharps). The second staff continues the melodic line with similar rhythmic motifs.

18-22-taktlardagi triollarning uchinchi tovushi ikkinchi torga to'g'ri kelishi va o'ttizikkitalik notalarga almashishi ritm jihatidan notekislik keltirib chiqarishi mumkin. Ayniqsa o'ttizikkitalik bo'lakni chalish uchun talaba notalar cho'zimini aniq his qilishi zarur.

This musical notation shows a specific section of the etyud. It features a triplet of eighth notes, indicated by a bracket and the number '3' below the notes. The notes are ascending in pitch.

Etyudning tugallash qismidagi jumalarda keladigan katta intervallarga sakrovchi qismida chap qo'l harakatlari, ayniqsa to'rtinchi barmoqning uchi bilan aniq bosilishi muhim hisoblanadi. Shuning uchun etyudni dastlab sekin tempda varaqdan o'qing. Ritmik o'zgarishlarni aniq ijro etish uchun notalarni sanab sakkiztalik, o'n oltitalik, o'ttiz ikkitalik notalarni cho'zimini aniqlab oling.

The final part of the etyud is shown across four staves. It includes various rhythmic patterns, including several triplets of eighth notes, marked with '3' below the notes. The piece concludes with a series of eighth-note runs.



Savollar:

- 1) "Etyud" so'zining ma'nosi nimani anglatadi?
- 2) Qashqar rubob uchun maxsus etyudlar kimlar tomonidan yozilgan?
- 3) Ijro mahoratini rivojlantirishda etyudlarning qanday ahamiyati bor?
- 4) Siz o'zingiz uchun ushbu mashg'ulotdan nima oldingiz?

Mustaqil mashg'ulot uchun topshiriqlar:

- 1) Etyudlarni sekin tempda sanab chaling.
- 2) Qiyin bo'laklarni aniqlab, ularni oson o'zlashtirish usullari haqida o'ylab ko'ring.
- 3) Etyudlarni o'rganishda ilovada berilgan applikatoraga qat'iy rioya qiling.
- 4) Ixtiyoriy etyud bilan majburiy etyudlarni shakl va murakkablik jihatidan solishtiring.

Tayanch iboralar: applikatora, etyud, triol, mashqlar, interval.

46-48-DARSLAR: MOHIRONA ASAR. V.ASEVEDO «BRAZILIYALIK KICHKINTOY»

Chap qo'l barmoqlari tezligi ularning torlarga bosish kuchining to'g'ri taqsimlanishi bilan bog'liq. Barmoqlarni pardaga juda katta kuch bilan bosish qo'lni siqilishiga olib kelsa, bo'sh bosish tovushning sifatsiz bo'lishiga sabab bo'ladi. Harakatlarning tekisligi, barmoqlarning egiluvchanligi, erkinligi va ularning kuchi – bularning bari birgalikda talabada texnik ishonchni shakllantiruvchi asosiy omillardandir.

Qashqar rubobida chap qo'l texnikasi ustida ishlashda ko'plab mashq qilish bilan birga ijroda pozitsiya almashuvini to'g'ri qo'llash, applikatorani to'g'ri tanlash kabi omillar asosiy o'rin tutadi.

Pozitsiya almashtirish usulini dastlab rus skripkachisi I.E.Xandoshkin qo'llagach, skripkada ijro tezligini rivojlanishida katta iz qoldirdi⁶. Qashqar rubobida ham shunga o'xshash pozitsiya almashtirish turlari mavjud bo'lib ular yuqorilab va pastlab boruvchi pozitsiya almashtirish usuli.⁷



Bir barmoqning sirg'alib boshqa pozitsiyaga o'tishi va yana shu barmoq bilan torni bosish usuli:

⁶ В.Круглов "Школа игры на домре". М., 2003й.

⁷ О.Нazarov "Qashqar rubobida o'qitish uslubiyoti". Т.,2008й.

Raqs

G'.Qodirov



1. Mashqlar: Quyidagi mashqlar orqali chap qo'l mahoratini oshirish ustida ishlang. Tordan-torga o'tishda tovush sofligiga erishing. Xromatik bo'laklarda chap qo'l barmoqlari qashqar rubob pardalarini aniq bosishiga e'tibor bering.



2. Gammalarni takrorlang. Tordan torga o'tishga tovush tiniqligiga va o'ng qo'l holatiga e'tibor bering. Gamma uchtovushliklari aylanmasida sakrashlar va barmoq tezligining aniqligiga harakat qiling.



3. Shartli etyudlarni to‘liq holda chalib chiqing. Shtrixlar va ritmik shakl ijrosi maromiga yetgunicha ishlang. Dinamikaga va applikator talablariga rioya qiling.



4. Mohirona asar. Birinchi bosqich talabalari uchun mohirona asar turkumiga Braziliyalik kompozitor, mohir sozanda V.Asevedo qalamiga mansub bo‘lgan “Braziliyalik kichkintoy” asari tanlab olingan. Dastlab muallif haqidagi ma’lumotlar bilan tanishing.

Braziliyalik mashhur sozanda, xor dirijyori va kompozitor Valder Asevedo 1923 yilning 23 yanvarida Rio de Janeyroda tug‘ilgan. Sozanda sifatida mandalino va chavaguino cholg‘ularida ijrochi sifatida tanilgan. Ijodi davomida turli xil janrlarda 130 dan ortiq asarlar yozib qoldirgan. U Braziliyaning eng mohir chavanguino cholg‘uchisi deb tan olingan. 1990 yilda San Paolo shahrida vafot etgan.

5. “Braziliyalik kichkintoy” murakkab uch qisimli, (ya’ni $A[A+B]+B$ [epizod]+S [soxta repriza va repriza) shaklida yozilgan.

- a) Birinchi qism oddiy ikki qismdan iborat, ya’ni $A+B$ shaklida bo‘lib, dastlabki qism 4-11-taktlar; keyingi qism esa 12-19-taktlarni o‘z ichiga oladi.
- b) Ikkinchi qism, ya’ni, epizod 20-68-taktlardan iborat bo‘lib, 20-36-taktlar *A-dur*, 37-68-taktlar esa *a-moll* tonalligida davom etadi.
- c) Uchinchi qism-Repriza ikkita reprizadan iborat. Ya’ni dastlab soxta repriza 69-100-taktlarga *D-dur* tonalligida rivojlantiriladi. 100-137-taktlarda haqiqiy repriza, ya’ni *A-dur* tonalligida yangraydi.

6. Asar Janubiy Amerikalik muallif qalamiga mansubligi bois, unda milliy ohanglar, jaz musiqasi elementlari, sinkopalar, turli metroritmik ko‘rinishlar mavjud. Shuning uchun qashqar rubobi ijrosida shunga mos shtrixlar tanlanishi zarur. Dastlabki mavzu zataktan boshlanib, Iya major uchtovushligi asosiga qurilgan ohanglar davom etadi. Bu qism tordan- torga o‘tish murakkabligi bilan o‘ziga xoslik kasb etadi. Shu sababli barcha tovushlar ikkinchi torda pastga-yuqoriga shtrixida chaling.

Sinkopali bo‘laklar (sakkiztalik notalar) faqat pastga urib chalinadi.

Asarda uchraydigan aksentlar ijrosida dinamikalarni to‘g‘ri tanlash zarur. Shtrixlar, ya‘ni zarblarni kuy ohangiga mos ravishda ijro etish maqsadga muvofiq Matnda uchraydigan tasodifiy alteratsiya belgilariga e‘tibor bering. Asarni milliy xarakterini ochib berish uchun internet tarmoqlaridan magnet yozuvlarini topib tinglang. Asar mohirona asar bo‘lganligi uchun uning sur‘ati ustida ishlashga alohida e‘tibor bering.

Savollar:

- 1) V.Asevedo qaysi davlat kompozitori?
- 2) Oddiy uch qismli shakl, murakkab uch qismli shakllar nima bilan farq qiladi?
- 3) Asarning ikkinchi qismi qanday nomlanadi?
- 4) Soxta repriza va haqiqiy repriza o‘rtasida qanday farq bor?

Mustaqil mashg'ulot uchun topshiriqlar:

- 1) A-B-C shaklini tushuntirib bering.
- 2) Brazilcha asarlar magnit yozuvlarini tinglang.
- 3) Asarni to'liq yod oling. Nota matnidagi o'zgarishlarga diqqat qarating.
- 4) Intervallarga sakrovchi jummalarni alohida mashq qiling.

Tayanch iboralar: oddiy uch qismli shakl, murakkab uch qismli shakl, mohirona asar, soxta repriza.

49-51-DARSLAR: AMALIY IJROCHILIK MASHG'ULOTLARI. ASARNI FORTEPIANO JO'RLIGIDA IJRO ETISH

1. Dastlab mashqlar bilan qo'llarni qizdirib olamiz. 1-mashq o'ng qo'lning tordan torga o'tish mahoratini takomillashtirish uchun:



2-mashq chap qo'l barmoqlari akkordlar, ayniqsa sekunda akkordini aniq olishni takomillashtiradi. Pardalarni barmoq uchi bilan aniq bosishga harakat qiling.



3-mashq esa zarblar tekisligini yaxshilash uchun. Bunda pastga-tepaga berilgan zarblar kuchini bir xil chiqishiga erishish zarur.



4-mashq tovush kuchini mustahkamlash uchun. Uchinchi torda tovushlarning tekis va aniq bo'lishi asosiy mezon hisoblanadi. Bunda mizrob birinchi va ikkinchi torlarga tegib ketmasligini oldini olish ustida ishlang.



2. Etyudlar ustida ishlashni davom ettiring.

Etyudlarning yuqori notalarida tovushlar aniqligiga erishing. Pastga-tepaga zarblarning tekisligiga va chap qo'l barmoqlari harakatlarining aniqligiga e'tibor qarating. Akkordli qismlarda har ikki torda tovushlarning tekis jaranglashi ustida muntazam ishlab boring.

3. Avvalgi darslarda o'rgangan V.Asevedoning "Braziliyalik kichkintoy" asarining 1-19 taktlariga 20-68 taktlarni bog'lang.





Yuqorida ta'kidlanganidek, ushbu taktlar asrning ikkinchi, ya'ni, epizod qismi bo'lib, unda dastlabki mavzu rivojlana boshlaydi. Xromatik passajlar, aksentli sekvensiyalar gitara, banjo ijrochilik uslubiga xos sinkopali jumlar qashqar rubobida tovushni boshqarish mahorati orqali yuzaga keltiriladi. Tovushlar turli intervallarga sakrayotgan bo'lsada, ulr tekis, ravon, silliq ijro etilishi kerak. Shundagina asar o'z xarakterida jaranglashi mumkin.

4. O'rganilgan qismlarga repriza, ya'ni, uchinchi qismni bog'lang. (69–137 taktlar)

Tonallik o'zgarishi munosabati bilan qashqar rubobi dastasida notalar joylashuvi o'zgargan. Shuni inobatga olgan holda alohida applikatora qo'yib chiqing. *Re* major tonalligida uchraydigan tasodifiy alteratsiya belgilari tekstni yodlashni bir oz qiyinlashtiradi. Ayniqsa soxta reprizada tekstda chalkashliklar paydo bo'lishi mumkin. Shuning uchun nota matni ustida diqqat bilan ishlang. Fortepiano partiyasini eshitib borishni e'tibordan chetda qoldirmang. Sababi, barcha jumlar takt oldi(zatak)dan boshlanganligi bois, fortepiano partiyasi muhim ahamiyat kasb etadi. (75-76, 83-84, 99-100-taktlar).



Ko'rib turganingizdek, ushbu taktlarda fortepiano partiyasida turli ritm, sinkopalar ijro etilmoqda. Aynan ana shu har-xillik diqqatni jamlashni talab etadi. Soxta reprizadan so'ng haqiqiy repriza *lya major* tonalligida takrorlanadi(100-137-taktlar). Asar reprizaning so'nggi jumlasida yuqori dinamikada borgan sari *crescendo* qilib aksentli *sf* lar bilan asosiy tonallik akkordlari orqali ta'kidlanib yakun topadi. Oxirgi notalar *sf* dinamikasi qo'pol bo'lmasligiga harakat qiling. Ansambl ijrosiga alohida e'tibor bering. Sur'atga erishish kuyni to'liq yodlab olingach, fortepiano jo'rligida sekin sur'atlarda chalib o'zlashtiriladi. Avvalo nota matnini to'liq va xatosiz yodlang. Matnda uchraydigan tasodifiy alteratsiya belgilariga e'tibor bering. Asarni milliy xarakterini ochib berish uchun internet

tarmoqlaridan magnit yozuvlarini topib tinglang. Ijroda agogika qoidalariga amal qilgan holda chalishga harakat qiling. O‘noltitalik jumlar pastga-tepaga zarblari to‘liq va aniqligiga erishish lozim. Buning uchun ushbu qismlar alohida mashg‘ulotda ishlab puxtalab borilsa ko‘zlangan maqsadga erishiladi.

Savollar:

- 1) A-B-S shakli qanday shakl?
- 2) *sf* va *f* dinamikalari o‘rtasida qanday farq mavjud?
- 3) Yana qanday braziliyalik kompozitorlarni bilasiz?
- 4) “Braziliyalik kichkintoy” asari qanday ijro uslubida yozilgan?

Mustaqil mashg‘ulot uchun topshiriqlar:

- 1) A-B-S shakli tahlili bo‘yicha mustaqil ravishda yozma ish tayyorlang.
- 2) Brazilha asarlar magnit yozuvlarini tinglang.
- 3) Asarni to‘liq yod oling. Nota matnidagi o‘zgarishlarga diqqat qiling.
- 4) Intervallarga sakrovchi jummalarni alohida mashq qiling.

Tayanch iboralar: A-B-S shakli, ijro mahorati, tonallik, ibterval, mohirona asar.

52-54-DARSLAR: 2-SEMESTR JORIY NAZORATI UCHUN IJRO DASTURINI TAYYORLASH VA SAHNADA TOPSHIRISH

1. Mashqlar:

The exercises consist of several staves of music. The first two staves show chord progressions in 4/4 time. The third staff includes dynamic markings: *p*, *mf*, *p*, *f*, *p*, *ff*, *p*, *sf*, *p*, *ff*, *p*, *f*, *p*, *mf*. The fourth staff shows a melodic line with fingerings 1 3 2 3 4 and 1 2 1 4, and accents 'e'. The fifth staff continues the melodic line with fingerings 1 2 1 4 and accents 'e'. The sixth staff shows a more complex melodic line with fingerings 1 2 3 4 1 2 3 4 1 2 3 4 1 2 3 4 and accents 'e'. The seventh staff shows a descending melodic line with fingerings 4 3 2 1 4 3 2 1 4 3 2 1 4 3 2 1 and accents 'e'. The eighth staff ends with a wavy line and the word *simile.*

2. Ikkinchi semestr joriy nazorati uchun tayyorgarlik ko‘rish. Gamma va etyudlarni to‘liq yodlangan va barcha o‘zlashtirilgan bilim va ko‘nikmalarni qo‘llagan holda ijro etish lozim. Ushbu uchta dars davomida kompozitorlar ijodiga mansub mohirona asarlardan V.Asevedoning “Braziliyalik kichkintoy” asari jo‘rnavoz bilan birga bir necha marotaba ijro etiladi. Bunda asosan ansambl ijrosi, dinamika, sur‘at(temp), tovush sifati va artikulyatsiya talablari ustida ishlanadi. Shu bilan birga murakkab musiqiy jumla va bo‘laklar qayta-qayta ishlanib sayqallanadi.

Tanlangan etyudlar asosan qo‘yilgan maqsadga erishish uchun takomillashtiriladi. Bunda asosan chap qo‘l ko‘nikmalari mustahkamlanishi zarur. Ya‘ni, tovushlarning aniqligi, passajlar aniqligi ustida alohida ishlash kerak. Bunda belgilangan applikator qoidalariga qat‘iy rioya etish talab etiladi. Chap qo‘l barmoqlari harakatlari aniqligi, ularning pardalarni to‘liq bosishi ustida alohida ishlab chiqiladi. Shuningdek, etyudlar sur‘ati (temp), dinamika, hamda tovush sifati ustida shug‘ullanishga e‘tibor qaratiladi. Imtihonda ijro etishning o‘ziga xos tomonlari, ya‘ni asarni xuddi konsertda tinglovchilar oldida ijro etgandek ijro eta olish ko‘nikmalari ustida ishlanadi. Bunda talabaning ijro madaniyati bilan birga sahna madaniyatiga, uning kiyinishidan tortib o‘zini tutishi, imtihonga bo‘lgan jiddiy munosabatni shakllantirishga alohida urg‘u berilishi shart. Talabaning o‘tilgan mavzular bo‘yicha og‘zaki savol javoblariga tayyorgarligi puxtalanadi.

O‘tilgan mavzular bo‘yicha tavsiya etiladigan adabiyotlar:

1. F. Vasilyev “Qashqar rubobi uchun gamma va arpedjio applikatorasi” “O‘qituvchi”, T., 1978
2. G. Shradik “Uprajneniya” “Muzika” M., 1969
3. O. Nazarov “Xalq cholg‘ulari ijrochilik”(Qashqar rubobi uchun gamma va etyudlar) “Musiqqa” T., 2016
4. O. Nazarov “Qashqar rubobi” “Nishon-noshir” nashriyoti, T., 2013
5. V. Kruglov “Shkola igri na domre” M., 2003
6. Q. Usmonov “Boshlang‘ich rubob darsligi” G‘. G‘ulom nomidagi adabiyot va san‘at nashriyoti T., 2004
7. M. Imxanitskiy “Istoriya ispolnitelstvo na russkix narodnix instrumentax” izd. RAM im. Gnesinix, M., 2002
8. Tursunjon Latip “Uyg‘ur cholg‘u asboblari”, Shinjon universiteti nashri, 1997
9. F. Abdurahimova “Orkestr sinfi” “Musiqqa” T., 2014
10. Y. Evdokimov, I. Ahmedov “Ruscha-o‘zbekcha qisqacha musiqqa terminlari lug‘ati”, “O‘qituvchi”, T., 1970.

55–56-DARSLAR: MILLIY MUSIQA NAMUNALARINING IJROCHILIK USLUBLARI. MUSIQIY BEZAKLAR USTIDA ISHLASH

Har bir xalqning musiqasi hamda kompozitorlar yaratgan asarlar boy musiqiy bezaklarga ega. Musiqiy bezaklarsiz musiqa o‘zining to‘liq mazmun mohiyatiga ega bo‘lmaydi. Musiqiy bezaklar kuyni har tomonlama boyitibgina qolmasdan, uning xarakterini ochib berishda juda katta rol o‘ynaydi. Musiqiy bezaklar har-xil melizmlar va qochirimlardan iborat.


Melizmlar «trel», «forshlag», «mordent» va «gruppetto» deb nomlanadi va deyarli barcha xalqlar kuy va qo‘shiqdarida hamda kompozitorlar ijodida juda keng qo‘llaniladi. Shashmaqom asarlari va mumtoz o‘zbek kuylarida uchraydigan bezaklar melizmlar deb atalishi bilan birga «qochirim», «nola» deb ham yuritiladi. Qochirim, nola milliy musiqiy bezaklarning barchasini o‘z ichiga oladi: «bidratma», «sayqallar», «to‘lqinlantirish», «naxshlag», «kashish», «molish» shular jumlasidan bo‘lib, ular milliy musiqamizni haqqoniy jaranglashiga va kuy ohanglari jozibasini to‘liq ochib berishga yordam beradi.

Ulardan forshlag (nem. «vorschlag» – «oldindan», «bosim oldidan urish») ⁸ – asosiy nota oldiga kichik notalar bilan yozilib, bittalik forshlag va qo‘sh forshlag turlariga bo‘linadi. Bittalik forshlag («qisqa forshlag» deb ham yuritiladi) yuqoriga qisqa zarb bilan asosiy nota cho‘zimi hisobiga chalinadi. Bittalik forshlag an’anaviy ijrochilikda «zarbi parron», ya’ni «uchma zarb» ⁹ deb ham yuritiladi va kompozitorlar ijodida ham an’anaviy ijrochilikda ham juda ko‘p qo‘llaniladi.

Raqs

G.Artemovskiy

O‘rtacha tez



Shahlo

R.Tursunov

Shoshilmasdan



Yuqoridagi misollarda keltirilgan forshlaglarni chalganda talabalar ko‘pincha forshlag cho‘ziminin qisqaligini dastlab his eta olmaydilar. Bunda talabaning asosiy e‘tiborini avvalo o‘ng qo‘lning harakat amplitudasi qisqa bo‘lishiga va

¹ I.Akbarov «Musiqqa lug‘ati» G‘. G‘ulom nomidagi Adabiyot va san‘at nashriyoti. T., 1987.

⁹ S.Taxalov «Afg‘on rubobini chalishga o‘rgatish metodikasi asoslari». T., O‘qituvchi, 1983.

forshlagning asosiy notaga nisbatan baland yoki qo‘pol chiqib qolmasligiga qaratishi lozim.

«Qo‘sh forshlag» asosiy nota oldiga ikki kichik notalar bilan yoziladi va pastga tepaga beriladigan zarb bilan qisqa ijro etiladi.

Anitra raqsi

E.Grig



Fantaziya № 2

U.Hojibekov



Amaliyotda forshlag har xil sur‘atli asarlarda ko‘p uchraydi, shuning uchun uning uzun-qisqaligi va qaysi tovush hisobiga chalinishi, ba‘zan asar xarakteridan kelib chiqadi. Ya‘ni ayrim kodentsiyalarida, yoki erkin ijro etish mumkin bo‘lgan bo‘laklarda, musiqani ifodali ijroga erishish maqsadida forshlaglar birmuncha kengroq chalinadigan holatlar ham uchrab turadi. Xuddi shunday forshlaglar tremolo usuli bilan ham ijro etiladi.

«Naxshlag» – (nem. «Natschlag» – oldingi nota cho‘zimi hisobiga chalinadigan bezak turi)¹⁰ qashqar rubobida va ko‘pgina mizrobli cholg‘ularda keng qo‘llaniladigan musiqiy bezaklardan biri. Asosiy tovushdan keyin yoziladigan kichik notalar bilan belgilanadi.

Forshlaglar asosiy tovushdan oldin har bir tovushni mizrob bilan urib ijro etilsa, naxshlag asosiy tovushni mizrob bilan urib keyingi tovushlarni asosiy tovush sadosi ostida ijro etish bilan farqlanadi. Bu ko‘nikmani o‘zlashtirish ham murakkab ijro usullaridan hisoblanib, asosan, chap qo‘l barmoqlarining torni yaxshi his qilish va harakatlarini nazorat qila olish muhimdir.

Navbatdagi bezak – «mordent» (it. «mordente» – «o‘tkir», «uchi o‘tkir»)¹¹ asosiy tovushni bir ton yoki yarim ton yuqoridagi va pastdagi tovush bilan ijro etiladi. Mordentning ham bir necha turlari mavjud.

¹⁰Крунтяева Т. С., Молокова Н. В. «Словарь иностранных музыкальных терминов». Л. «Музыка». 1987

¹¹ I.Akbarov «Musiqqa lug‘ati» G‘. G‘ulom nomidagi Adabiyot va san‘at nashriyoti. T., 1987.

1. Oddiy mordent



2. Chiziqchali mordent



3. Qo'shaloq mordent



4. Chiziqchali qo'shaloq mordent



Mordentlarni ijro etganda tovushlarning tekis eshutilishiga etibor berish kerak. Chunki tez sur'atli asarlarda pastga-yuqoriga beriladigan zarblarning aniq chiqmasligi natijasida mordentlar noaniq ijro etiladi. Bundan tashqari mordentlar juda yengil xarakterga ega. Aynan shu yengillik bilangina, u musiqani bezaydi. Buning uchun talaba bilan shu asarni musiqiy tahlil qilish (ayniqsa, Yevropa klassiklari asarlarini) asarning xarakterini ochib berishda, har bir elementning ahamiyatini tushunib yetishga, xususan, mordentni kerakli darajada ijro etishga olib keladi.

«Sayqal»¹² - qashqar rubobida an'anaviy ijrochilikda juda keng qo'llaniladigan bezak turlaridan biri. U mordent belgisining ustiga "+" belgisi qo'yib ifodalanadi. Uning 4 turi mavjud. Mordent bilan sayqalning asosiy farqi, agar mordentning barcha tovushlari mizrob bilan urilib ijro etilsa, sayqal faqat bir zarb bilan urib, qolganlari esa, shu zarb sadosi ostida chap qo'l bilan torni bosish yo'li bilan amalga oshiriladi. Sayqalni ijro etishning asosiy xususiyati zarb berilgan tovushning sadosini o'chirib qo'ymaslikdan iboratdir. Bunda zarb berilgan pardani bosib turgan birinchi yoki ikkinchi barmoq pardadan ko'tarilmasdan o'ziga xos glissandolash orqali ohangning uzilmasligiga va keyingi tovush ohangiga ulanishiga olib kelishi kerak bo'ladi.

Keng tarqalgan melizmlardan biri «trel» – («trilloro» – «titramoq», «tebranmoq»)¹³ – qariyb, barcha torli va puflama cholg'ularda qo'llaniladi.

¹²Sayqal – xalq amaliy san'atida keng qo'llaniladigan atamalardan biri. Asarga jilo berish, sayqal berish ma'nosida. Musiqada ham shu ma'noda ishlatiladi.

¹³I.Akbarov «Musiqqa lug'ati» G'. G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti. T., 1987.

Eskerani

S.Rustamov



Trel qashqar rubobda pastga va tepaga tez sur'atdagi tremolo kabi tezlikda chalinadi. Tajribada talabalar trel chalganda o'ng va chap qo'llar harakatining bir-biriga mos kelmasligi kuzatiladi. Hozirgi zamon ijrochilik repertuarining kengayishi va zamonaviy musiqamizning, xususan zamonaviy estrada kuy va qo'shiqlarning rivojlanishi ham milliy cholg'ularda ijrochilik san'ati taraqqiyotiga o'zining ijobiy ta'sirini ko'rsatmoqda. Bunday kuy va qo'shiqlarda trel bezaklarning boshqa elementlari bilan hamohang tarzda juda keng ishlatilishi bois ularni ma'lum bir yo'nalishda juda yengil harakatlar bilan nafis ijro etishni talab qiladi.


Kel endi

S.Azizboyev



Dil so'z


A.Olimov




Kompozitorlar ijodiga mansub asarlarni ijro etganda trel asosan birinchi va ikkinchi barmoqlar yordamida amalga oshiriladi. Lekin, yuqorida keltirilgan S.Azizboyevning "Kel endi", A.Olimovning "Dil so'z" kabi hozirgi zamon estrada kuy va qo'shiqlari ijrosida esa boshqa barmoqlarning ham juda yengil bo'lishi talab etiladi. Bu misollarda trel qilinadigan tovushlarga, asosan ikkinchi barmoq qo'yilgan bo'lib, trel uchinchi va to'rtinchi barmoqlar bilan amalga oshiriladi.

Bundan tashqari biz talabalarga trelni doimiy ravishda barcha barmoqlar bilan mashq qilishni tavsiya qilamiz.

Trel an'anaviy ijrochilikda "bidratma" deb ham yuritiladi. Bidratmaning o'ziga xos tomoni shuki, mizrob bilan urib chalish bilan birga faqat bir zarb sadosi ostida ham ijro etish mumkinligidir. Bunda trel belgisi ustiga + belgisi qo'yiladi. Ko'pincha talabalar sayqal va bidratmani ijro etganlarida asosiy nota sadosini o'chirib qo'yadilar. Bu ko'nikmalarni o'zlashtirish juda murakkab jarayon bo'lib, muntazam shug'ullanishni va ko'p musiqa tinglashni talab etadi.



O'zbek xalq kuyi



«To'lqinlatish» – vokal ijrochiligida hamda barcha cholg'ulardagi kabi qashqar rubobda ham keng qo'llaniladigan usul. U tor ustida chap qo'l barmoqlari bilan torni to'lqinlatib ijro etiladi. To'lqinlatish kuyni ifodaviylik xususiyatini oshiradi, tovushlarni mayin, ohangdor va jozibali eshutilishini ta'minlaydi.

Kompozitorlar asarlarida to'lqinlatish maxsus belgi bilan belgilanmaydi. Sozanda asarni puxta o'zlashtirgach, uni har qanday katta cho'zimli tremololarda yoki musiqiy jummalarda emas, balki mantiqiy fikrdan kelib chiqqan holdagina qo'llashi kerak bo'ladi. Bu borada albatta tajribali ustozlar tajribasiga tayanish maqsadga muvofiqdir. To'lqinlatish an'anaviy ijrochilikda, shartli ravishda nota ustiga to'lqinsimon chiziq bilan belgilanadi.

Tong

A. Ismoilov

Shoshilmasdan



Eshvoy

Ozbek xalq kuyi

Vazmin



Kompozitorlar ijodida “glissando” nomli melizm qo‘llaniladi. “Glissando” (it. “glissando” – “sirg‘anma”) – bir tovushdan ikkinchi tovushizga sirg‘alib o‘tish. Qashqar rubobda glissando chap qo‘l barmog‘ini dasta bo‘ylab pastga yoki yuqoriga sirg‘altirib amalga oshiriladi. Katta intervallar orasidagi glissando asosan birinchi barmoq bilan chalinsa, kichikroq intervallarda boshqa barmoqlarda ham ijro etish mumkin. Bunda sirg‘alayotgan barmoq tovushni so‘ndirib qo‘ymasligi va ravon harakat bilan nota cho‘zimiga mos vaqtda ikkinchi notaga yetib kelishi kerak bo‘ladi.

Sayohatnoma

M.Bafoyev



Tush manzaralari

D.Saydaminova



Dilorom Saydaminovaning “Tush manzaralari” asaridan keltirilgan parchadagi sekunda intervalidagi glissandolar mizrob bilan rez usulida, chap qo‘l bilan esa “kashish”¹⁴ usulida, ya’ni, torni ko‘tarish yo‘li bilan amalga oshiriladi.

Qashqar rubobda chap qo‘l dasta bo‘ylab sirg‘alib glissando qilganda o‘ng qo‘l bilan rez qilinadi lekin, ayrim hollarda o‘ng qo‘l bilan birinchi tovushga zarb berilgach, shu tovush sadosi ostida ham glissando amalga oshiriladi. Bu usul Shashmaqom va o‘zbek mumtoz kuylari ijrosida ko‘p qo‘llaniladi. Bunda glissando qilib tushiladigan tovush ustiga + belgisi qo‘yib belgilanadi¹⁵ va bu bezak turi “molish” (fors. “molash” – “silamoq”) deb ataladi.

Nag‘mai Orazi Navo

O‘zbek xalq kuyi



¹⁴ “Kashish” haqida keyingi betga qarang.

¹⁵ S.Taxalov «Afg‘on rubobini chalishga o‘rgatish metodikasi asoslari». T., O‘qituvchi, 1983.

Sozanda bu bezakni dastlab o‘rganish jarayonida glissandoning davriyligini seza olmasligi natijasida uning soxta va quruq jaranglashi kuzatiladi. Molishni puxta o‘zlashtirish uchun avvalo talaba, shu asarni chuqur anglagan bo‘lishi, kuyning har bir jumlasini va elementlarini his qila olishi muhimdir.

Bu usullar ashula yo‘lida uchraydigan va kamonli cholg‘ularda chalinadigan mayda, yengil nolalarni qashqar rubobida ijro etish imkoniyatini beradi.

Musiqiy bezaklarning navbatdagisi bu – kashish (fors. “kashidan” – “tortmoq”) N.Mironov o‘zining “O‘zbeklar musiqasi” (“Muzika uzbekov”) kitobida xalq hofizlari tomonidan kuylangan qo‘shiqlarda ovoz bilan o‘ziga xos glissando qilib kuylanishi va bu xalq tilida “kashish” deb nomlanishi aytib o‘tiladi.¹⁶ Bu bezak qashqar rubobida torni barmoqlar bilan yuqoriga ko‘tarib chalish usulida amalga oshiriladi. Bunda bir tovushni o‘zida bir tongacha pastga yoki yuqoriga glissando qilib uning balandligini o‘zgartirish mumkin. Bu tremolo va yakka zarblar usulida ham ijro etiladi. Yuqoriga glissando qilganda torni yuqoriga ko‘tarishni boshlash bilan bir vaqtda o‘ng qo‘l bilan tor rez yoki zarb usulida chalinadi. Pastga glissando qilganda esa avval tor chap qo‘l barmog‘i bilan ko‘tarilib tushyotgan paytdan boshlab mizrob bilan chalinadi. Bunda ko‘tarilayotgan parda 2 - yoki 3 - barmoq bilan bosilishi, shu pardaga yonma-yon bo‘lgan parda esa 1 - barmoq bilan bosib turilishi va torni ko‘targanda 2 -, 3 - barmoqqa yordam berishi kerak bo‘ladi. Bu usul nihoyatda murakkab bo‘lib ko‘p mashq qilish bilan birga ko‘p eshitishni talab etadi. Talabaga aynan chalib ko‘rsatib berish yoki magnit yozuvlaridan keng foydalanish kerak bo‘ladi. Ayniqsa glissandoning qanday intervalda bo‘lishi faqat ijrochining eshitishi orqali tartibga solinadigan jarayon. Bundan tashqari chap qo‘l barmoqlarining torni sezish malakasini o‘zlashtirish ham asosiy omillardan biridir. Chunki, dastlabki o‘rganish davrida barmoqlarning torni sezmasligi natijasida torlar barmoqlar ostidan ikki tomonga ajralib chiqib ketishi yoki torlar birlashib qolib, tovushning ohangdorligi, jarangi yo‘qolishiga sabab bo‘ladi.

Milliy kuy-qo‘shiqlarimiz va maqom asarlari ijrosidagi applikatura o‘ziga xos bo‘lib, asarning to‘laqonli ijrosini ta‘minlash bilan birga yuqoridagi musiqiy bezaklarni ijro etish imkoniyatlaridan kelib chiqqan bo‘lishi maqsadga muvofiq.

Savollar:

- 1) Qanday musiqiy bezaklarni bilasiz?
- 2) Trel va bidratmaning farqi nimada?
- 3) Kashish haqida dastlab qaysi adabiyotda so‘z yuritilgan?
- 4) O‘zbek milliy musiqasida melizmlar qanday nomlanadi?

Mustaqil mashg‘ulot uchun topshiriqlar.

- 1) Musiqiy asarning badiiy jihatdan to‘laqonli jaranglashida dinamikaning ahamiyati haqida gapirib bering.
- 2) Melizm va qochirim farqlarini aniqlang.

¹⁶ Н.Миронов “Музыка узбеков” О‘zbekiston davlat nashriyoti, Samarqand 1929

- 3) Glissandoni turlarin o‘zlashtirish uchun alohida mashq qiling.
- 4) Milliy musiqalarni magnit tasmasidagi yozuvlardan muntazam tinglab boring.

Tayanch iboralar: sayqal, molish; kashish; musiqiy bezaklar.

57-59-DARSLAR: SHASHMAQOM ASARLARI NAMUNALARI. TARJE’I BUZRUK

Ikkinchi semestrning yarmi ortda qoldi. Navbatdagi haftalarda o‘quv rejasida belgilab olingan va ijro dasturidan o‘rin olgan Shashmaqom asarlari turkumidan Tasnifi Buzruk va Garduni Buzruk asarlarini o‘rganib chiqamiz.

1. Shashmaqom – o‘zbek va tojik xalqlari musiqa merosining yetuk mukammal asaridir. Olti maqom olti turli pardadan boshlanib, ijro etiladigan yirik siklli musiqa asari bo‘lib, har biri alohida lad va tovushqatoriga ega. Shashmaqom *Buzruk, Rost, Navo, Dugoh, Segoh va Iroqlardan* iborat; har biri o‘z navbatida mushkilot, ya’ni cholg‘u va nasr, ya’ni ashula bo‘limlaridan iborat. Har bir maqom Ufar bilan tugallanadi. Shashmaqom yo‘llarini ijro etuvchi ashulachi va cholg‘uchilarni xalq orasida maqomchi, maqomdon deyiladi. Shashmaqomni birinchi marta 1923 yil, mashhur hofiz va sozanda – Ota Jalol va Ota G‘iyoslar ijrosida professor V.A.Uspenskiy yozib olgan va bu 1924 yil Moskvada nashr qilingan. Keyinchalik (50-yillardan) Shashmaqom siklini akademik Yunus Rajabiy taniqli maqomdonlardan notaga olib Ilyos Akbarov (Toshkent, 1959) va F. Karomatov (T., 1961-77) tahririda nashr ettirgan.

Xorazm maqomi oxirgi Panjgoh maqomi to‘liq bo‘lmaganligi uchun Olti yarim maqomi deb atalib quyidagi tartibda joylashgan: Rost, Navo, Segoh, Dugoh, Buzruk, Iroq, Panjgoh.

Yuqorida ta’kidlab o‘tilganidek, Shashmaqom asarlari qat’iy tartib asosida jamlangan bo‘lib, ular umumiy va o‘ziga xos tuzilishga ega. Biz o‘rganmoqchi bo‘lgan Shashmaqomning birinchi maqomi “Buzruk”, ya’ni “buyuk”, “katta” ma’nolarini bildirib quyidagicha tuzilishga ega:

BUZRUK MAQOMI			
Mushkilot bo‘limi	Nasr bo‘limi		
	<i>Birinchi guruh sho‘balari</i>	<i>Ikkinchi guruh sho‘balari</i>	
Tasnifi Buzruk	Saraxbori Buzruk	Mo‘g‘ulchai Buzruk	Iroqi Buxoro
Tarje’i Buzruk	I-VI taronalari	Talqinchasi	Talqinchasi
		Qashqarchasi	Chapandozi

Garduni Buzruk	Talqini Uzzol	Soqiynomasi	Soqiynomasi
Muxammasi Buzruk	Taronasi	Ufori	Ufori
Muxammasi Nasrulloyi	Nasrulloyi I-III taronalari	Savti Sarvinoz Talqinchasi	Rok Talqinchasi
Saqili Islimxon	Nasri Uzzol	Qashqarchasi	Qashqarchasi
Saqili Sultonxon	Ufori Uzzol	Soqiynomasi Ufori	Soqiynomasi Ufori

Shashmaqom tarkibidagi ashula va cholg‘u kuy nomlari “Tasnif” – “yaralish”, “Tarje” – “qaytarish”, “Muxammas” – “beshlik”, “Saqil” – “og‘ir”, “hafif” – “yengil” kabi ma’nolarni bildiradi. Tasnif va tarje’lar bir xil usulda chalinadi. Tarje’i Buzruk maqomi bilan tanishib nota matnidan uning tuzilishini o‘rganing, xona va bozgo‘ylarini aniqlab uning turli magnit yozuvlarini tinglang.

3. Tarjei Buzruk kuyini 1-5 xonalari (1-84 taktlar)ni o‘rganing.

Yuqoridagi jadvaldan ko‘rinib turibdiki Buzruk maqomi mushkilot qismidagi tasnifdan keyingi ikkinchi asar – bu Tarje’i Buzruk. Maqom cholg‘u kuylari tuzilishi xilma-xil ko‘rinishga ega bo‘lib, bu ham ushbu janrning o‘ziga xosliklaridan biri deyish mumkin. Ya’ni, ayrim asarlar xona va bozgo‘ylari bir xil miqdorda bo‘lsa, boshqalarida xonalar miqdorini turlicha kelishini kuzatish mumkin. “Tarje’i Buzruk” tuzilishi ham, xonalar miqdori ham har-xil bo‘lgan asarlar turkumiga kiradi. Asar birinchi xonadan boshlanib, ja’mi sakkizta xona va bozgo‘ydan iborat. Xonalardan taktlar bo‘yicha miqdorini sanab chiqsak quyidagicha sxema hosil bo‘ladi:

I	II	III	B	IV	V	B	VI	B	VII	VIII	B
8	20	8	12	16	8	12	16	12	20	8	12

Maqom ijrochiligida qashqar rubob cholg‘usi kvinta-kvarta intervali bo‘yicha, ya’ni, *lya-re-lya* tovushlariga sozlanadi. Shu bois Tarje’i Buzrukning birinchi taktidan *lya* notasida kvinta-kvarta akkordi, so‘ngra *re-lya-lya* akkordini arpedjio qilib chalish bilan boshlanadi. Birinchi xonaning keyingi taktlarida *re*, *do*, *bekar*, *mi*, *fa*, diez notalari ikkinchi barmoq bilan olinishi kerak. Beshinchi va oltinchi

taktlarda *fa diez* notasi ustiga qo'yilgan belgi "kashish" nolasi, ya'ni, torni ko'tarish usulida o'ziga xos glissando bilan ijro etishni bildiradi.¹⁷




Kuy murakkab tuzilishiga ega bo'lgan asar rivojlanishi bir tekisda pog'onama-pog'ona yuqorilab yoki pastlab bormasdan turlicha ko'rinishda davom etadi. Masalan, ikkinchi xona boshlang'ich pardaning oktava yuqori notasidan boshlansa, uchinchi xona yana *fa diez* notasiga qaytadi va oltinchi xonagacha V-VI bosqichlarda davom etadi.



Kuyning ushbu qismini alohida o'rganish zarurati qismning tuzilishining murakkabligidan kelib chiqadi. Ya'ni asarning avjigacha alohida mashg'ulotlarda o'zlashtirish maqsadga muvofiq.

4. Oltinchi xonadan oxirigacha o'rganing va oldingi qismlar bilan bog'lang(85-164-taktlar). Bir qarashda oltinchi va yettinchi xonalar o'xshash, takrorlanayotgandek tuyulsada, kuyni o'rganib bo'lganingizdan keyin yettinchi xonada mavzu rivojlanganining guvohi bo'lasiz.



¹⁷ "Musiqiy bezaklar va ularni ijro etish uslublari" mavzusiga qarang.



Agar oltinchi xonada kuy uchinchi oktava *mi* dan bir oktava oralig'ida tekis pastlab ketsa, yettinchi xonada har bir xonada alohida rivojlangan holda pastlab boradi. Kuyning avj qismining o'rganishda qashqar rubobining yuqori pardalarida tovush sadolari davomiyligini saqlash va uni keyingi tovushlarga "olib o'tish" ko'nikmasi ustida ishlash zarur. Bu o'rinda to'g'ri qo'yilgan applikator bilan "bidratma" usulini tovush sadosi evaziga, ya'ni torni faqat asosiy tovushni chertib bezaklar uning sadosi davomida amalga oshirish talab etiladi. Bu murakkab ijro usuli bo'lib, uni o'zlashtirish uchun ustoz bilan mashq qilish, bezaklarni eshitish orqali o'rganish maqsadga muvofiq.

Shashmaqom asarlarini ijro etish orqali talaba boy milliy musiqa merosimizni o'rganish, o'zbek xalqining dard-u quvonchi, milliy qadriyatlarini anglash, ularni o'z his-tuyg'ulari orqali ifodalay olish tajribasini o'zlashtirib boradilar. Tarje'i Buzruk asarida ham milliy xususiyatlarimizni yorqin ifodalab beradigan go'zal, ulug'vor ohanglar zamirida chuqur falsafiy mazmun yotadi. Mashg'ulotlarda talabalarni asarni shunchaki yodlab, ijro etmasdan uning mazmuniga ham etibor berib, chuqurroq mushohada etishga o'rgatib borish, ularga Shashmaqom asarlarining yuqori darajadagi mukammal asarlar ekanligini uqtirib borish zarur.

Savollar:

- 1) Shashmaqomda maqomlar tartibi qanday joylashgan?
- 2) Xorazm maqomlari nima uchun olti yarim maqom hisoblanadi?
- 3) Maqomlar kimlar tomonidan notaga olingan?
- 4) Shashmaqomning cholg'u bo'limi qanday nomlanadi?
- 5) Farg'ona-Toshkent maqomlari qanday nomlanadi?
- 6) "Kashish" bezagi qanday ijro etiladi?

Mustaqil mashg'ulot uchun topshiriqlar:

- 1) Buzruk maqomi namunalarini magnit yozuvlaridan tinglang.
- 2) Maqomlar tuzilishi haqida manbaalardan ma'lumotlarni o'qib chiqing.
- 3) O'n ikki maqom nomlarini aytib bering.
- 4) Buzruk maqomi mushkilot qismining boshqa kuylarini ham magnit yozuvlaridan tinglab, o'zingiz uchun tahlil qiling.

Tayanch iboralar: Shashmaqom, Buzruk, xona, maqom, mushkilot, musiqiy bezaklar, kashish.

60-62-DARSLAR: AMALIY IJROCHILIK MASHQLARI. GARDUNI BUZRUK

1. Mashqlar. Quyidagi mashqlar orqali Shashmaqom asarlariga xos ijro uslublari ustida ishlang.



2. Tarjei Buzruk asarini yoddan takrorlab chiqing. Tovushlar jarangi va mayinligiga, xona va bozgo‘ylarning bir-biriga tekis bog‘lanishiga ahamiyat bering.

3. Asarning magnit yozuvlarini tinglang. Ijroga kirishishdan oldin nota matnini ko‘zdan kechirib chiqing. Endi asarni tahlil qilib chiqamiz. “Gardun” so‘zi usulga nisbatan ishlatilib, usulning “aylanishi” ma’nosida keladi. Gardunlar odatda, Tasnif va Tarje’ bilan birga ijro etiladi. Tasnif va Tarje’ga nisbatan bir oz shaxdam usulda yorqin ohanglardan tashkil topgan bo‘lib, 2/4, 3/4, 3/4 o‘lchovida keladi.



Asar bozgo‘y bilan boshlanadigan uch taktli jumlar bilan monoton rivojlanib boradi. Shuning uchun ham 1-xona 3 takt; 2-xona 6 takt; 3-xona 9 takt kabi miqdorda kuy tuzilmalaridan quyidagicha tashkil topgan:

- Bozgo‘y – 1-3 taktlar;
- 1 xona 4-6 taktlar;
- 2 xona 7-12 taktlar V pog‘ona;
- 3 xona 13-21 taktlar VI pog‘ona;
- Bozgo‘y – 23-24 taktlar;
- 4 xona 25-42 taktlar IX pog‘ona;
- Bozgo‘y – 43-45 taktlar;
- 5 xona 46-67 taktlar X pog‘ona;
- Bozgo‘y – 68-70 taktlar;
- Siporish 71-75 taktlar.



Yuqorida 5-xonaning oxirigacha (46-75-taktlar) nota matni keltirildi. Ushbu notadan ko‘rinib turibdiki kuy eng yuqori avjidan oxirigacha bitta xona oralig‘ida butun kuyning barcha xonalari va bosqichlarini ulangan holda pastga qarab ijro etib chiqilmoqda. Bundun ko‘rinadiki asar dastlab xonama-xona yuqorilab rivojlanib borgan bo‘lsa, avjidan keyin pog‘onama-pog‘ona monoton ravishda pastlab yakun topadi.

4. Kuyini o‘rganish jarayonida jummalarga e‘tibor bering. Usuldan chiqmagan holda tovushlar sadosini tovushdan tovushga olib o‘tishga harakat qiling.

Yevropa musiqa ijrochiligida qo‘llaniladigan mordent w belgisi bu yerda “pirrang”, ya’ni qisqa tremolo shtrixini bildiradi.

Jumlalar har uch taktida yakunlangandek bo‘lganligi uchun ijroda ulardan ajralib, bo‘lak-bo‘lak bo‘lib qolmasdan yaxlit, bir butun asar bo‘lib asar bo‘lib jaranglashiga harakat qiling. Buning uchun tovushlar sadosini o‘chirmasdan “molish”, “kashish” va “bidratma” kabi bezaklarni to‘g‘ri qo‘llashga harakat qiling¹⁸.

Yakka zarb va tremolo shtrixlari qo‘llashda tovush jarangi va me‘yoriga ahamiyat bering.

Savollar:

- 1) “Gardun” so‘zi qanday ma’noda ishlatiladi?
- 2) 5 xona nechanchi pog‘onadan boshlanadi?
- 3) Monoton musiqa deganda nimani tushunasiz?
- 4) Bozgo‘y qanday vazifani bajaradi?

Mustaqil mashg‘ulot uchun topshiriqlar:

- 1) Asarning usulini o‘zingiz chalib o‘rganing.
- 2) Shashmaqomning boshqa Gardunlari magnit yozuvlarini tinglab taqqoslang.
- 3) Buzruk maqomi tuzilishi haqida yozma ish tayyorlang
- 4) Musiqashunos olimlarning maqom haqida yaratgan ilmiy ishlari haqida adabiyotlardan o‘qib o‘rganing.

Tayanch iboralar: gardun, bozgo‘y, monoton, usul, kashish, molish.

¹⁸ “Musiqiy bezaklar va ular ustida ishlash uslublari” bo‘limiga qarang.

63-DARS: CHOLG`U ASARLARI TAHLILI. MURAKKAB SHAKL. H.XANMAMEDOV. TOR VA SIMFONIK ORKESTR UCHUN UCHINCHI KONSERT I-QISM

1. O'tgan darslarda o'zlashtirilgan Tarje'i Buzruk va Garduni Buzruk asarlarini yoddan takrorlang. Usul va milliy bezaklar ijrosiga e'tibor bering. Asar matnini xatosiz chalishga harakat qiling.

2. O'quv dasturiga asosan konservatoriyaning birinchi kurs talabasi qardosh xalqlar musiqa ijrochiligi namunalaridan, ya'ni kompozitorlar asarlaridan o'rganib borishlari ko'zda tutilgan. Bu o'rinda ozarbayjon, uyg'ur, tojik, qozoq, qirg'iz, turkman, eron, turk, hind kompozitorlari asarlaridan ayrim namunalar chalish mumkin. Bizning o'quv dasturlarimizda turli qardosh kompozitorlar asarlari mavjud bo'lib, bundan ko'zlangan asosiy maqsad talabani turli ijrochilik maktab va yo'nalishlari bilan tanishtirish, ularni o'rganish, o'zlashtirishdan iborat. Ushbu darslikka ozarbayjon kompozitori Hoji Xanmamedovning Tor va simfonik orkestr uchun Uchinchi Konsertining birinchi qismi tanlab olingan. Dastlab muallif haqida qisqacha ma'lumotlar bilan tanishib chiqamiz. Bu darsda dastlab asar muallifi H.Xanmamedov hayoti va ijodi bilan tanishib chiqamiz. Ozarbayjon kompozitori Hoji Dadash o'g'li Xonmammedov – 1918 yilda Derbent shahrida tug'ilgan. 14 yoshida ularning oilasi Bokuga ko'chib keladi va bu yerda Xanmamedov buyuk ozar kompozitori Uzeir Hojibekov bilan tanishadi. U. Hojibekovning tavsiyasi bilan Ozarbayjon konservatoriyasining tor sinfiga o'qishga qabul qilinadi. Mutaxassislikdan Said Rustamov sinfida tahsil oladi. 1934 yilda U. Hojibekov taklifi bilan Ozarbayjon radiosi qoshidagi "xalq cholg'ulari orkestri"ga torchi sozanda sifatida ishga qabul qilindi. "Go'ro'g'li" operasini premyerasiga 7 nafar taklif qilingan torchilar orasida Xanmamedov ham bor edi. 1941 yilda Eron bo'ylab gastrollarda qatnashadi. 1943 yilda H. Xanmamedov Ozarbayjon konservatoriyasining "Xalq musiqasi asoslari" bo'limiga ishga qabul qilinadi. Ulug' vatan urushi yillarida Ozarbayjon musiqa va komediya teatrida dirijyorlik faoliyati bilan birga xalq cholg'ulari orkestri uchun bir qancha qo'shiq va marshlar yozdi. 1946 yilda Tabriz filarmoniyasiga rahbarlik qiladi. 1947-52 yillarda konservatoriyada dastlab B.Zeydman, keyinchalik tengdoshi buyuk kopozitor Kara Karaev sinfida kompozitsiya bo'yicha tahsil oladi. 1952-54 yillarda Ozarbayjon "qo'shiq va raqs davlat ansambli", 1966-68 yillarda esa "Ozarbayjon davlat filarmoniya"si direktori, 1980-yilda konservatoriyada dotsent lavozimida faoliyat olib borgan. Uning ijodidan ikkita operetta, 4 ta tor va simfonik orkestrlar uchun konsert, ikkita arfa va simfonik orkestr uchun konsert, xalq cholg'ulari orkestri uchun simfonetta, qo'shiqlar va marshlar o'rin olgan. Kompozitor 2005-yil vafot etgan.

3. Quyidagi mashqlar chap qo'l barmoqlarining keng joylashuvi, ya'ni 3-1 barmoqlarning orasi ochilgan holda erkin, yengil harakatlanishini rivojlantiradi. Ozarbayjon musiqasiga xos bo'lgan bezaklar, passajlar aynan shunday applikatora orqali amalga oshiriladi. Shuning uchun mashqlarni faqat berilgan applikatora bilan

dars mashg'ulotlarida ustoz nazorati ostida chalib chiqing. Odatda qardosh xalq musiqasini yoki jahon kompozitorlari asarlarini o'rganish uchun uning asl (original) ijrosi bilan tanishib chiqish zarur. Shundagina asarning mazmun-mohiyati, uning xususiyatlari, sur'ati, ijro yo'nalishi haqida tasavvur hosil bo'ladi.

The image shows a musical score for a piano exercise, consisting of four staves of music. The first two staves are in treble clef and the last two are in bass clef. The music features various rhythmic patterns and fingerings indicated by numbers 1, 2, 3. The first staff has three measures with fingerings 1 2 3, 1 2 3, and 1 2 3. The second staff has three measures with fingerings 3 2 1, 3 2 1, and 3 2 1. The third staff has two measures with fingerings 2 3 and 2 1. The fourth staff has three measures with fingerings 3 2 1, 2 1 1 2 1 1, and 3 1 1 2 1 1 2 1.

4. Biz o'rganayotgan Uchinchi Konsert 1973 yilda yozilgan. Endi bevosita asarni tahlil qilib chiqamiz. Asar sonata allegro shaklida yozilgan.

1) Ekspozitsiya:

- a) Kirish qismi 9 takt orkestr ijrosida
- b) Bosh partiya (10-34-taktlar); 2-7-raqam
- v) Yordamchi partiya (35-50-taktlar); 8-11-raqam
- g) Bog'lovchi partiya (51-60-taktlar); 12-13-raqam
- d) Yakunlovchi partiya (61-79-taktlar); 14-17-raqam

2) Rivojlov (razrabotka)

- a) 80-154-taktlar. 18-30-raqam
- b) 155-162-taktlar. 31-raqam
- v) 163-183-taktlar. 32-33-raqam
- g) 184-194-taktlar. 34-raqam

3) Repriza

- a) Bosh partiya (195-215-taktlar); 35-39-raqam.
- b) Bog'lovchi partiya (216-220-taktlar); 40-raqam.
- v) Koda (221-235-taktlar); 41-43-raqam.

Savollar:

- 1) Qardosh xalqlar kompozitorlarining asarlarini o'rganishdan asosiy maqsad nima?
- 2) H.Xanmamedov nechanchi yillarda yashab ijod etgan?
- 3) Kompozitor tor va simfonik orkestri uchun nechta konsert yozgan?
- 4) Uchinchi konsert qanday shaklda yozilgan?

Mustaqil mashg'ulot uchun topshiriqlar:

- 1) Ozarbayjon kompozitorlik ijodiyoti haqida internet manbalaridan ma'lumot to'plab o'rganib chiqing.
- 2) Uch qismli konsertlar tuzilishini tahlil qiling.
- 3) Konsertning turli yozuvlarini tinglab taqqoslang.
- 4) Berilgan mashqlarni muntazam ravishda ishlab boring.

Tayanch iboralar: bosh partiya, murakkab shakl, tahlil, simfonik orkestr.

64–66-DARSLAR: AMALIY IJROCHILIK MASHG'ULOTLARI

1. Tarje'i Buzruk va Garduni Buzruk asarlarini yoddan chalib bering. Notalar va usulga alohida ahamiyat bering. O'zingiz usul chalib asarni xirgoyi qilib bering.
2. H.Xanmamedovning tor va simfonik orkestr uchun "Konsert"ini tahlil qilib bering.
3. Mashqlar.

The image displays six musical exercises for guitar, arranged in two columns of three. The top three exercises are written in standard musical notation (treble clef) with various time signatures (12/8, 2/4, 4/4) and include detailed fingerings (1-4) above the notes. The bottom three exercises are written in tablature format, showing fret numbers (0-6) and string numbers (1-6) below the notes. Some exercises include dynamic markings like 'I - sim' and 'II - sim'.

4. Konsertning ekspozitsiya qismini notadan o'qing. (1-79-taktlar).

Kirish qismi orkestr, ya'ni fortepiano partiyasining **Allegro moderato** sur'atida Iya minor tonalligida **ff** (fortissimo) dinamikasida ishonchli, shaxdam

xarakterdagi milliy kuy tuzilmasi bilan boshlanadi. Ikkinchi raqamdan boshlangan *solo* partiyasi faqat pastga zarb bilan ijro etilishi kerak. Dastlabki 4 taktni bu shtrixda chalish uchun ijrochining o‘ng qo‘l texnikasi yuqori darajada bo‘lishi talab etiladi.

Va o‘ng qo‘lga berilgan bosim 6-raqamgacha, ya‘ni bosh partiya oxirigacha davom etadi.

Bosh partiyaning fortepiano yakunlab *do major* tonalligida yordamchi partiyaga olib o‘tadi. Dastlabki mavzuga qarama-qarshi xarakter ushbu partiya *legato* shtrixida qashqar rubobida tremolo bilan ijro etiladi. Nota matnida qo‘yilgan mordent belgisi notalarda ozarbayjon milliy musiqa bezagi qo‘llaniladi. Forshlag bilan nola ijrosi yengil, nafis ijro etilishi kerak. Buning uchun tremoloni tepaga

uzish ko‘nikmasi a’lo darajada o‘zlashtirilishi talab etiladi. Chap qo‘l bilan ortiqcha nola qilib yubormaslikka harakat qiling.

10

The image shows a musical score for exercise 10. It consists of two staves. The top staff is in treble clef and contains a melodic line with various ornaments and slurs. The bottom staff is in bass clef and contains a rhythmic accompaniment with chords and single notes. The key signature has two flats (B-flat and E-flat), and the time signature is 4/4.

12-raqamdan bog‘lovchi partiya boshlanib asta-sekin shaxdam xarakter kasb eta borib fortepianoning 4 taktli partiyasi orqali yakunlovchi partiyaga o‘tadi.

13

The image shows a musical score for exercise 13. It consists of two staves. The top staff is in treble clef and contains a melodic line with various ornaments and slurs. The bottom staff is in bass clef and contains a rhythmic accompaniment with chords and single notes. The key signature has three flats (B-flat, E-flat, and A-flat), and the time signature is 4/4. A forte (f) dynamic marking is present at the beginning of the piece.

Bu partiya ham bosh partiyaning mavzusidek faqat pastga zarb shtrixida chalinishi bilan murakkablik tug‘diradi. O‘ng qo‘l applikatorasi kichik bo‘lishi va torlarga zarbning to‘g‘ri yo‘naltirilishi asosiy me‘zon hisoblanadi.

Savollar:

- 1) Ekspozitsiya qanday mavzulardan iborat bo‘ladi?
- 2) Bosh va yordamchi partiyaning qarama-qarshiligi nimalarda ko‘zga tashlanadi?
- 3) Bog‘lovchi partiyaning vazifasi nimadan iborat?
- 4) Bosh partiyada qanday shtrix qo‘llaniladi?

Mustaqil mashg‘ulot uchun topshiriqlar:

- 5) Asarning mavzulari va jumllarini aniqlang.
- 6) Ijro paytida jumlalarga e‘tibor bering.
- 7) Tovush sifati ustida ishlang.
- 8) O‘ng qo‘l amplitudasini qisqartirish ustida muntazam mashq qiling.

Tayanch iboralar: ekspozitsiya, rivojlov, vibratsiya, mavzu.

67-69-DARSLAR: AMALIY IJROCHILIK MASHG‘ULOTLARI

1. Mashqlar:

1-mashq



2-mashq



3-mashq



4-mashq



1-79-taktlarni fortepiano jo‘rligida chalib chiqing. Forteplano partiyasini eshitib chalishga harakat qiling. Pastga zarb berilganda sur‘at pasaymasligini nazorat qiling.

180-194-taktgacha notadan o‘qing. Rivojlovning dastlabki 8-taktidagi ishonchli, intiluvchan, shaxdam va yorqin xarakterdagi kuyni ijro etishda o‘ng qo‘l amplitudasini qisqa bo‘lishi ustida ishleng. Chunki pastga to‘xtovsiz zarblarning mordentlar, ya‘ni bezaklar bilan chalinishi bir oz murakkabdir.

Bu mavzuga qarama-qarshi mavzu 21-raqamda boshlanib tremolo shtrixida ijro etiladi. Liga va legatoli ushbu jumlar juda ravon, intiluvchan, shu bilan birga tekis tovushlar bilan chalinishi kerak. Ko‘pincha talabalarda tremololar uzilishida qo‘pol aksentlar chiqib qolishi kuzatiladi. Ana shunday kamchiliklar ustida dars jarayonida ustoz nazorati ostida ishlab boring.

25-raqamgacha rivojlanib boruvchi ushbu qism o'zining eng yuqori avji kulminatsion nuqtasiga ikkita forte *ff* dinamikasiga yetib kelib yana fortepiano partiyasiga navbat beradi.

Ushbu qismda ham ayniqsa kuchli dinamika (*ff*)da chalinganda tovush sifati buzilishi, qo'pol ijro kabi kamchiliklar yuzaga chiqadi. Buni bartaraf etish uchun mizrob bilan torlarga qattiq zarb bermasdan, balki, mizrobni qattiq ushlab bosim bilan chalish tavsiya qilinadi.

26-raqamdan boshlanagan sekventsion jumla ham pastdan yuqoriga ko'tarilib borib, yana bir kichik kulminatsiyani yaratadi.

Shundan so'nggi bo'lak ham rivojlanib, hayajon yanada kuchayadi va 30-raqamda orkestrning yuqori nuqtasiga yetib keladi.



Yuqoridagi qism qashqar rubob uchun dinamik jihatdan, ya'ni tovush kuchini kerakli darajada hosil qilish, sarflash, to'g'ri taqsimlay bilish kabi ko'nikmalarni qo'llash tomonlama murakkablik kasb etadi. Buning uchun ushbu darslikning 2-bobida keltirilgan "tovush kuchini boshqarish" bo'limidan keltirilgan tavsiyalarga amal qilish zarur.

Ad libitum tarzida ijro etiladigan qism yana **Adagio** sur'atidagi sokin, xotirjamlik kasb etuvchi jumlagi olib keladi. Bu mavzu yordamchi partiya mavzusining boshqa 2/4 o'lchovida sekin sur'atda qayta jaranglashidan iborat. Qisqagina berilgan bu mavzu rivojlovning shiddatli va hayajonli obrazlaridan so'ng bir oz tinchlanish, go'yoki eski xotiralarni yodga olish hissiyotlarini uyg'otadi. Bunda ijrochidan o'ta mayin tremolo va jumlar ijrosining aniqligi talab etiladi. Mordent qo'yilgan notalarga yengil bezak berilib, *pp* dinamikasida ijro etish kerak.



Aynan mana shu qism rivojlovni yakunlab beradi va reprizaga o'tiladi. Reprizaning oxirida 43-raqamdan to'xtovsiz tarzda takrorlanadigan ritmik ko'rinishli aksentli mavzu konsert g'oyalarini go'yoki oxirigacha ta'kidlagandek yakun yasab beradi.



43

Bu qismda ham yuqori dinamika va aksentni ijro etishda qo‘pol tovushlarni oldini olish va tovush tiniqligiga erishish muhim. Konsert tom ma‘noda orkestr va yakkaxon o‘rtasidagi musobaqa ko‘rinishida, shu bilan birga yaxlit bir asar sifatida yozilgan.

Savollar:

- 1) Konsert qanday shaklda yozilgan?
- 2) Mavzularning tonallik jihatidan farqlarini aytib bering?
- 3) H.Xanmamedovning yana qanday konsertlarini bilasiz?
- 4) Ijroda qanday shtrixlar qo‘llash mumkin?
- 5) Murakkab passajlar ijrosida applikatorning qanday ahamiyati bor?


Mustaqil mashg‘ulot uchun topshiriqlar:

- 1) Konsert qismlarining tonalliklarini aniqlang.
- 2) Shtrixlar ustida olahida mashq qiling.
- 3) Fortepiano jo‘rligida ko‘proq ansambl ijrosiga e‘tibor bering.
- 4) Pausalardan keyin tushish vaqtlarini yaxshilab oling.

Tayanch iboralar: tonallik, koda, repriza, aksent, yakkaxon.

70–72-DARSLAR: 2-SEMESTR YAKUNIY NAZORATI UCHUN IJRO DASTURINI TAYYORLASH VA SAHNADA TOPSHIRISH

1. Mashqlar:




2. 2-semestr yakuniy nazorati uchun tayyorgarlik ko‘rish. Asarlarni to‘liq yodlangan va barcha o‘zlashtirilgan bilim va ko‘nikmalarni qo‘llagan holda ijro etish lozim. Ushbu uchta dars davomida kompozitorlar ijodiga mansub yirik shakldagi asarlardan H.Xanmamedovning “Konsert”i jo‘rnavez bilan birga bir necha marotaba ijro etiladi. Bunda asosan ansambl ijrosi, dinamika, sur‘at(temp), tovush sifati va artikulyatsiya talablari ustida ishlanadi. Shu bilan birga murakkab musiqiy jumla va bo‘laklar qayta-qayta ishlanib sayqallanadi. Tasnifi Navo va Garduni Navo asarlari takomillashtiriladi. Bunda asosan chap qo‘l ko‘nikmalari mustahkamlanishi zarur. Ya‘ni, tovushlarning sadolanish davomiyligi, musiqiy bezaklarining aniqligi, ayniqsa “kashish” ijrosida uning miqdori va sadosi ustida alohida ishlanadi. Doirachi bilan ijro mustakamlanadi. Usulni his qilish, undan chiqib ketmaslik uchun ijrochi o‘zi usul berib asarni ovoz bilan kuylash orqali usul muammolari ustida ishlanadi. Asar sur‘ati (temp), dinamika, hamda tovush sifati ustida alohida shug‘ullaniladi. Imtihonda ijro etishning o‘ziga xos tomonlari, ya‘ni asarni huddi konsertda tinglovchilar oldida ijro etgandek ijro eta olish ko‘nikmalari ustida ishlanadi. Bunda talabaning ijro madaniyati bilan birga sahna madaniyatiga, uning tashqi ko‘rinishiga, imtihonga bo‘lgan jiddiy munosabatni shakllantirishga alohida urg‘u berilishi shart.

O‘tilgan mavzular bo‘yicha tavsiya etiladigan adabiyotlar:

1. Y.Rajabiy “O‘zbek xalq musiqasi”. I jild T., 1955
2. I.Rajabov “Maqomlar masalasiga doir”. T., 1963
3. Ne‘matillo Mo‘jazyiy “Tavorixi musiqiy”. Pekin mallatlar nashriyoti. Pekin. 1982.
4. A.Fitrat. “O‘zbek klassik musiqasi va uning tarixi” . “Fan”.T.,1993
